


Janni Rodari

JELSOMINO YOLG'ONCHILAR MAMLAKATIDA



BIRINCHI BOB

*Jelsomino ochganda og'iz
To 'pni darvozada ko'rasiz.*

Jelsomino to'g'risidagi bu hikoyani uning o'zidan eshitdim. Men bu voqeani oxirigacha tinglagunimga qadar, qulog'imga yarim kilo paxta tiqib olganimga qaramay, kar bo'lib qolay dedim. Jelsominoning ovozi shu qadar o'tkir-ki, sekin gapirganda ham uning ovozi shu qadar o'tkirki, sekin gapirganda ham uning ovozini dengiz sathidan, hatto Jelsominoning tepasidan o'n ming metr balandlikdan uchib ketayotgan reaktiv samolyotdagilar ham eshita oladi.

Hozir Jelsomino dong'i ketgan mayin tovushli ashulachi. U shimoldan janubiy qutbgacha - hammaga mashhur. U artist bo'lgandan keyin o'ziga jarangdor, dabdabali yangi ism qo'yib oldi. Uning bu ismini gazetalardan yuz martalab o'qigandirsiz, shuning uchun uni takrorlab o'tirmayman. Yoshligida bu bolani " Jelsomino", ya'ni "Jasmin" deb atashardi, povestimizda ham uni shu nom bilan atayveramiz.

Shunday qilib, bir zamonlarda oddiygina, bo'yi hattoki boshqa bolalardan pastroq, lekin og'zini ochgandayoq quioqni kar qiladigan baland tovushli bir bola bo'lgan edi.

Jelsomino yarim kechada tug'ilgan edi. U tug'ilganda hamqishloqlari bizni fabrika gudogi ishga chaqirayapti deb o'rinlaridan turib ketganlar, holbuki bunda Jelsomino endigina dunyoga kelgan chaqaloqlar singari yig'lab, ovozini endigina sinab ko'rgan edi. Xayriyatki, u jurnalistlardan va kechasi ishlaydigan qorovullardan tashqari odamshavanda kishilardek, kechqurundan to ertalabgacha tinch uxlashga o'rganib qoldi. Endi u rosa soat yettida, ishga boradiganlar o'rnidan turadigan vaqtda yig'laydigan bo'ldi. Fabrika gudoklariga ehtiyoj qolmadi, tez orada zanglab ketdi.

Jelsomino olti yoshga kirganda maktabga bordi. O'qituvchi yo'qlamani o'qib turib, "J" harfiga yetganda:

— Jelsomino! — deb chaqirdi.

— Shu yerdaman! - deb quvonib javob berdi yangi o'quvchi.

Birdan gulduros eshitildi — sinfning tosh taxtasi ming bo'lak bo'lib, atrofga sochilib tushdi.

- Taxtaga kim tosh otdi? — chizg'ichga qo'l cho'zib, jiddiy so'radi o'qituvchi.

Hech kim javob bermadi.

— Yana boshqatdan yo'qlama qilaman, — dedi o'qituvchi. — Toshni sen otdingmi? — u yo'qlama qilaturib har bir o'quvchidan birin-ketin so'ray boshladi.

— Men otganim yo'q, men otganim yo'q, — deb javob qilishardi bolalar qo'rqa-pisa.

O'qituvchi Jelsominoni chaqirganda, u ham o'rnidan turib, samimiy javob qaytardi:

— Men tosh otganim yo'q, janob o'q...

U "o'qituvchi" so'zini tugatmasdanoq deraza oynalari chilparchin bo'lib polga sochildi.

Bu safar o'qituvchi sinfdagilarni diqqat bilan kuzatib, qirq o'quvchidan birontasi ham roгатka otmaganiga ishonch hosil qildi. "Maktabga bormasdan qushlarning

uyasini buzib yurgan bironta o'yinqaroq ko'cha tomondan tosh otgan bo'lsa kerak, — deb o'yladi o'qituvchi. — Uni tutaman-da, qulog'idan cho'zib politsiyaga eltaman".

O'sha kuni ertalab o'qish shu bilan tugadi. Ertasi kuni o'qituvchi yo'qlama qilib, yana Jelsominoning nomiga kelib yetdi.

— Shu yerdaman! — deb javob berdi qahramonimiz, o'quvchi bo'lganidan faxrlanib.

Derazadan taraqqataraqq degan ovoz eshitildi. Yarim soat ilgari qo'yilgan deraza oynalari ko'chaga chil-chil bo'lib tushdi.

- Qiziq, — dedi o'qituvchi. - Har safar sening nomingga kelganda ko'ngilsiz voqea sodir bo'lyapti. Tushunarli! Bolagina, sening ovozing juda o'tkir ekan, ovozingdan dovul paytidagidek havo larzaga kelayapti. Bugundan boshlab sen sekin gapirishing kerak, bo'lmasa maktabimiz ham, qishlog'imiz ham vayronaga aylanadi. Kelishdikmi?

Uyatdan va xijolatdan qizargan Jelsomino:

— Menda ayb yo'q, o'qituvchi janoblari! — deb e'tiroz bildirgan edi, maktab qorovuli yaqindagina magazindan olib kelgan taxta taqqataraqq etdi-da, sindi-qoldi.

— Ana, aytmadimmi, - dedi o'qituvchi.

Lekin bechora Jelsominoning ko'zidan yosh oqayotganini ko'rgan o'qituvchi o'rnidan turdi-da, unga yaqqin kelib, mehribonlik bilan uning boshini siladi.

Gapingga quloqq sol, o'g'lim. Ovozing boshingga ko'p kulfat solishi yoki baxt keltirishi mumkin. Hozir imkon boricha undan kamroqq foydalan. "So'zlaganingdan so'zlamaganing yaxshiroqq..." degan hammaga ma'lum maqqol bor.

Jelsomino shu kundan boshlab qattiq azobda qoldi. Maktabda yangi sho'r ish orttirmaslik uchun u og'zini ro'molcha bilan bekkitib o'tiradigan bo'ldi. Shunday bo'lsa ham uning ovozi shu qadar qattiq eshitilar ediki, u gapirayotganda sinfdosh o'rtoqlari quloqlarini barmoqlari bilan bekkitishga majbur bo'lardilar. O'qituvchi ham undan kamroqq so'rashga harakat qilardi. To'g'risini aytganda, Jelsominoning o'zi ham namunali o'quvchi hisoblanardi, uning har doim to'g'ri javob berishiga o'qituvchi ishonardi.

Uyda birinchi hodisadan keyinroqq (bunda u ovqqat vaqqtida maktabda bo'lgan voqeani gapira boshlagan edi) o'n ikkita stakan chil-chil bo'ldi, bundan keyin og'zingni ocha ko'rma, deb qo'yishdi. U ko'nglini bo'shatish uchun qishloqqdan uzoqqroqq joyga: o'rmonga, ko'l bo'yiga yoki keng dalaga borardi. Yolg'iz o'zi qolganiga va hamqishloqlarining derazasidan uzoqqda turganligiga ishonch hosil qilgach, u yerga mukka tushib, qo'shiqq ayta boshlardi. Bir necha minutdan so'ng yer qaynayotgandek bo'lardi — ko'rkalamush, qurt-qumursqalar va yer ostida yashovchi boshqa jonivorlar chiqib, yer qimirlayotgan bo'lsa kerak, deb uzoqq-uzoqlarga qochardilar.

Faqqat bir marta Jelsomino odatdagi ehtiyotkorligini unutib qo'ydi. Bu voqea dam olish kuni stadionda qizg'in futbol o'yini paytida ro'y berdi.

Jelsomino futbol ishqibozi emas edi, lekin sekin-asta bu o'yinga berilib qoldi. Futbol ishqibozlarining dalda beruvchi hayqiriqlari ostida uning qishlog'i komandasi

hujumga o'tdi. (Men "hujumga o'tdi"ning ma'nosini yaxshi bilmayman, chunki futbol o'yiniga tushunmayman, lekin Jelsomino hikoya qilayotganida ana shunday iborani ishlatadi, siz bunga tushunsangiz kerak deb o'ylayman, axir siz sport gazetalarini o'qib turasiz-ku!)

— Bo'sh kelma! Bo'sh kelma! — deb qichqirishardi ishqibozlar.

— Bo'sh kelma! — deb ovozi boricha qichqirdi Jelsomino ham.

Xuddi shu vaqtda o'ngdagi himoyachi markaziy hujumchiga to'pni uzatgan edi, lekin to'p yarim yo'lda burilib, qandaydir ko'zga ko'rinmaydigan kuch ta'sirida darvozabonning oyoqlari orasidan o'tdi-da, raqib tomon darvozasiga otilib kirdi.

— Gol! — deb qichqirishdi tomoshabinlar.

— Rosa bopladimi! — dedi kimdir hayratlanib. — To'pni burib yuborganini ko'rdinglarmi? Mo'ljalga urganini qarang! Bir millimetr ham yanglishmadi-ya. Uning oyoqlarini oltin desa bo'ladi.

O'yinga berilib ketgan Jelsomino nima qilib qo'yganini darrov fahmladi.

"Shubhasiz", — deb o'yladi u, — bu to'pni ovozim bilan men darvozaga kiritdim. Jim o'tirishim kerak ekan, bo'lmasa, o'yin bo'ladimi bu? Bo'lar ish bo'ldi, endi hisobni baravarlash uchun ikkinchi darvozaga ham to'p kiritishim kerak".

Ikkinchi taymda unga qulay fursat keldi. Raqib komanda hujumga o'tdi. Jelsomino bir qichqirgan edi, to'p uchib borib hamqishloqlarining darvozasiga kirdi. Shunda uning juda xafa bo'lib ketganini fahmlash qiyin emas. Oradan ancha yil o'tgan bo'lsa ham, Jelsomino shu voqeani hikoya qilarkan, menga bunday dedi:

— Shu to'pni kiritganimdan ko'ra, qo'llarimni kessalar rozi bo'lardim, lekin nima ham qilib bo'lardi, to'p darvozaga beixtiyor kirgandi-da.

Ha, uning o'rnida boshqa odam bo'lganda o'zi yaxshi ko'rgan komandasiga ko'maklashardi, lekin Jelsomino bunday qilmadi — u halol, oqko'ngil, qalbi buloq suvidek pok edi. U shunday bo'lib o'sdi, balog'atga yetdi. Ochig'ini aytganda, Jelsomino u qadar novcha emasdi, bo'yini pastroq desa ham bo'ladi, semiz emas, oriqroq, xullas, Jasmin jismiga munosib ism edi. Ismi og'ir bo'lganda, ko'tarolmay, bukri bo'lib yurishi mumkin edi.

Jelsomino maktabni allaqachon bitirib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan edi. Agar u ko'ngilsiz bir voqeaga uchramaganida, umr bo'yi shu ishda qolardi va men sizga uning to'g'risida hikoya ham qilib o'tirmasdim. Siz bu voqeani tezda bilib olasiz.

IKKINCHI BOB

*Yoqmay qolgach butun qishloqqa,
Jelsomino ketdi uzoqqa.*

Jelsomino bir kuni ertalab bog'iga borib, noklar pishib yotganini ko'rdi. Noklar doim shunday qiladi: sizga bilintirmasdan, o'z holicha yetilaveradi, bir kuni ertalab qarabsizki, ular pishib, uzadigan payti kelib qolgan bo'ladi.

"Attang, narvonni ola kelmabman, deb o'yladi

Jelsomino. — Uyga borib, tepa shoxdagi noklarni qoqish uchun xoda ham olib kelaman".

Lekin shu topda uning miyasiga yana bir fikr keldi — to'g'risi, qittak dangasaligi tutdi: "Ovozimni ishga solib ko'rsam nima qiladi?"

Shunday qilib, u daraxtning tagiga bordi-da, hazillashibmi, chindanmi, qichqirdi:

— Qani, noklar, to'kiling!

"Do'pir-do'pir" qila ketdi noklar, yerga yomg'irdek to'kilarkan.

Jelsomino boshqa daraxtning tagiga borib ham shunday qildi. Har safar u: "To'kiling!" deb qichqirganida noklar go'yo shu buyruqni kutib turgandek, shoxdan uzilib, yerga duv to'kilardi. Jelsomino bunga juda quvonib ketdi.

"Men kuchimni behuda sarflamayman, — deb o'yladi u. — Narvon va xoda o'rniga ovozimdan foydalanish ilgariroq esimga kelmabdi-da".

Jelsomino bog'ida aylanib shu yo'sinda noklarni terib yurganida, qo'shni yerda chopiq qilayotgan bir dehqon uni ko'rib qoldi. U ko'zini ishqalab, burnini chimdib, ko'rayotgani tush emasligiga ishongach, xotiniga aytgani yu-gurdi.

— Borib ko'r, — dedi butun vujudi bilan titrab. - Jelsomino yovuz jodugar ekan.

Xotini ko'rib, tiz cho'kdi-da:

— U mo'jizakor avliyo ekan-ku, — dedi.

— Jodugar dedim-ku senga!

— Men senga, u mo'jizakor avliyo ekan deyapman! Shu kungacha er-xotin hech urishmagan edi, shu topda eri qo'lga ketmonni, xotini belni oldi. Ularning har biri qurol bilan o'z fikrini quvvatlamoqchi edi, dehqon murosaga o'tdi.

— Yur, qo'shnilarni chaqiramiz. Ular Jelsominoni ko'rib nima deyisharkin?!

Qo'shnilarni chaqirib, tilni ortiqroq qayrash fikri xotiniga yoqdi-da, belni uloqtirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bu voqeadan kechgacha hamma xabar topdi. Aholi ikki guruhga bo'lindi: birovleri Jelsominoni mo'jizakor avliyo desa, ikkinchilari uni yovuz jodugar deyishdi. Kuchli shamolda dengiz to'lqini zo'raya borgandek, tortishuv qizib avj ola boshladi. Rostakamiga janjal chiqib, bir necha kishi shikastlandi ham, hartugul, yengilgina. Bir dehqon janjal paytida trubkasini teskari tutib, og'zini kuydirib oldi. Politsiyachilar nima qilishni bilmay shoshib qolishdi. Ular bir to'dadan ikkinchisiga o'tib, hammani tartib saqlashga chaqirishardi.

Eng ashaddiy janjalkashlar Jelsominoning bog'iga yo'l olishdi. Birovlari mo'jizakordan bir nima esdalik olib qolish uchun, ikkinchilari yovuz jodugarning bog'ini vayron qilish uchun borishdi.

Bir talay odamlarning qayoqqadir kelayotganini ko'rgan Jelsomino o't tushgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. U chelakni olib, yordamga yugurmoqchi edi, olomon o'zining eshigi oldida to'xtaganini ko'rdi. Shunda qulog'iga bunday so'zlar chalindi:

— Ana u! Ana u! — deb qichqirardi ba'zilar. — U mo'jizakor avliyo!

— Qanaqasiga avliyo bo'ladi? Yovuz jodugar u. Qarang, qo'lida chelagi bor. Jodu qilingan bo'lsa kerak.

— Nariroqqa qochib turaylik, agar ichidagisini sepib yuborsa, halok bo'lamiz.

— Chelagida nima bor ekan-a?

— Ko'zing ko'rmi? Chelagida do'zax o'ti bor. Agar u odamga tegsa, kuydiradi, keyin hech qanaqa vrach davolay olmaydi.

— U avliyo, avliyo u!

— Jelsomino, biz, noklarga pishgin, deganingda — ularning nishganini, tushgin deganingda — tushganini ko'rdik.

— Esingizni yedingizmi? — deb so'radi Jelsomino. — Ayb ovozimda. Qattiq dovul bo'lgandek, ovozimdan havo to'lqinlanadi, xolos.

— Ha, ha, biz bilamiz! — deb qichqirdi bir ayol. — Sen o'z ovozing bilan mo'jiza yaratasan.

— Bu mo'jiza emas! Sehr, jodu! — deb qichqirishardi boshqalar.

Jelsomino achchiq bilan chelakni yerga uloqtirdi-da, uyiga kirib, eshikni zanjirlab oldi.

"Endi menga tinchlik berishmaydi, — deb o'yladi u. — Qayerga bormay, qiziqib, ketimdan yugurib yurishadi. Kechqurunlari yotishdan oldin hamma yerda mening haqimda gaplashishadi. Meni yovuz jodugar, deb bolalarni qo'rqitishadi. Yaxshisi bu yerdan jo'nab qolishim kerak. Endi bu yerda nima ham qilardim? Ota-onam o'lib ketdi, yaqin do'stlarim urushda halok bo'ldi. Dunyo kczib, ovozim orqasidan baxt topishga urinib ko'raman. Ashula aytib, pul topadigan kishilar ham bor-ku. Rost, bu g'alatiroq. Ashula aytgan odamlarning o'zi rohatlanadi, buning uchun ularga haq berishning hojati yo'q edi. Lekin, shunday bo'lsa ham, ashulaga pul berishadi. Ehtimol men ham ashulachi bo'lib qolarman?"

U shunday qarorga kelib, arzimagan bud-shudlarini qopga soldi-da, ko'chaga chiqdi.

Uni kutib turgan kishilar shivirlashib, o'zlarini chetga oldilar. Jelsomino hech kimga qaramasdan, indamay yo'lga tushdi. Ancha uzoqqa borganidan keyin burilib, oxirgi marta uyiga qaradi.

Olomon hamon tarqamay, go'yo sharpani ko'rsatayotgandek, unga barmog'i bilan ishora qilardi.

"Ularning shu qilganiga bir hunar ko'rsatmayman-mi?" — deb o'yladi Jelsomino, u ko'kragini to'ldirib nafas oldi-da, ovozi boricha qichqirdi:

— Xayr!

Bu xayrlashuvning oqibati darrov bilindi. Erkaklar kuchli shamol birdan shapkalarini uchirib ketganini sezishdi. Tuksiz taqir boshlari ochilib qolgan bir necha kekxa ayol yasama sochlarining ketidan quva ketishdi.

— Xayr! Xayr! — deb qichqirdi Jelsomino, umrida birinchi marta qilgan sho'xligidan o'zi zavqlanib.

Shapkalar va yasama sochlar qushlardek gala bo'lib, Jelsominoning nihoyatda o'tkir ovozi ta'sirida bulutlarga uchib chiqib ketdi-da, bir necha minutda ko'zdan

yo'qoldi. Ularning bir qancha kilometrga uchib borgani, ba'zilarining chegaradan o'tib ketgani ma'lum bo'ldi.

Bir necha kundan keyin Jelsomino ham chegaradan o'tib, dunyoda g'alati bir mamlakatga borib qoldi.

UCHINCHI BOB

*Jelsomino biroz yo'l yurdi
Va g'alati mushukni ko'rdi.*

Bu notanish mamlakatda Jelsominoning ko'zi birinchi marta kumush tangaga tushdi. U yo'lkaga yaqin yerda, hammaga ko'rinib, yarqirab yotardi. "Qiziq, uni hech kim olmayapti-ya, — deb o'yladi Jelsomino. — Lekin mendan qochib qutulolmaydi. Pulim ozgina edi, u ham kecha kechqurun tamom bo'ldi. Bugun og'zinga uvoq ham solganim yo'q. Bu tangani o'tkinchilarning birontasi tushirib qo'ymaganmikin, avval shuni bilvolay".

U o'zaro shivirlashib, uni kuzatib turgan bir to'da kishi-larning yoniga bordi-da, tangani ko'rsatdi.

— Janoblar, bu tangani birontangiz tushirib qo'yganingiz yo'qmi? — pichirlab so'radi u, o'z ovozi bilan cho'chitib yubormaslik uchun.

— Jo'nab qol! — deyishdi ular. — Agar boshimga falokat tushmasin desang, bu tangani ko'rsata ko'rma!

— Kechirasiz, — Jelsomino xijolatdan shunday dedi-yu, "Oziq-ovqat va boshqa mollar" deb yozib qo'yilgan magazin tomon yo'l oldi.

Vitrinada yaxna go'sht va murabbo solingan bankalar o'rnida dasta-dasta daftarlar, turli bo'yoqlar solingan qutichalar, siyoh to'la shishalar turardi.

— Boshqa mollar degani shular bo'lsa kerak, — dedi Jelsomino va magazinga dadil kirdi.

— Xayrli kech, — deya muloyim salomlashdi u bilan magazin egasi.

"Ochig'ini aytganda, — o'yladi Jelsomino, — hali kun yarimlagani ham yo'q. Kel, buning nima ahamiyati bor". U odatdagidck pichirlab so'radi. Uning pichirlashi ham sog' quloqqa qattiq eshitilardi.

— Non olsam bo'ladimi?

— Marhamat, muhtaram janob. Qancha kerak edi? Bir shishami yoki ikki shishami? Qizilidanmi yoki qorasidanmi?

— Qorasi kerak emas, — deb javob berdi Jelsomino. -Siz rostdan ham nonni shishada sotasizmi?

Magazin egasi xoxolab kuldi.

- Qanday sotsak sizga ma'qul kelardi? Sizing yurtigingizda nonni qirqib sotishadimi? Qarang, nonimiz qanday yaxshi-ya! — U saf tortgan soldatlardek tekis terib qo'yilgan rang-barang siyohli shishalarni ko'rsatdi.

Butun magazinda yeydigan biron narsadan asar ham yo'q edi; pishloq, hatto olmaning po'chog'i ham ko'rinmasdi.

"Jinni bo'lib qolmaganmikin? — deb o'yladi Jelsomino. — Yaxshisi, unga gap qaytarmay qo'ya qolay".

- Chindan ham noningiz ajoyib, — dedi Jelsomino, u magazin egasi nima der ekan, deb qizil siyoh solingan shishani ko'rsatdi.

— Nahotki, — deli magazin egasi bunday maqtovdan og'zi qulog'iga yetib. — Ha, bu shu vaqtgacha sotilgan ko'k nonlarning eng yaxshisi.

— Ko'k dedingizmi?

— Ha, albatta! Kechirasiz, ko'zingiz xiraroqmi deyman?

Jelsomino oldida turgan shishaga qizil siyoh solinganiga shubha qilmasdi. U bu yerdan eson-omon chiqib, es-hushi joyidaroq magazin egasini izlash uchun bahona topmoqchi bo'lib turganida, miyasiga bir fikr keldi.

Menga qarang, — dedi Jelsomino, — non olgani kechroq kelarman. Hozir menga yaxshi siyoh sotiladigan magazinni ko'rsatsangiz.

— Jonim bilan, — dedi magazin egasi odatdagiday tabassum bilan. — Qarang, ro'parada shaharning daftar-qalam sotiladigan eng mashhur magazini bor.

Ro'paradagi magazinining vitrinasida odamning havasini keltiradigan turli non, tort, pirojeniy, makaron, pishloq, kolbasa va sosiskalar bor edi.

"O'zim ham shunday deb o'ylovdim, — dedi Jelsomino, — magazin egasining miyasi aynib, nonni siyoh, siyohni non deb atayapti. Shunaqa bo'lsa kerak".

U ro'paradagi magazinga kirib, yarim kilo non so'radi.

— Non deysizmi? — xushmuomalalik bilan so'radi sotuvchi. — Siz yanglishibsiz. Non ro'parada sotiladi. Biz faqat daftar-qalam sotamiz, — u g'urur bilan qo'lini keng yoyib, mazali narsalarga ishora qildi.

"Endi tushundim, — dedi o'ziga-o'zi Jelsomino. — Bu mamlakatda teskari gapirish kerak ekan. Agar nonni non deb atasang tushunishmas ekan".

— Menga yarim kilo siyoh bering, — dedi u sotuvchiga.

U yarim kilo non tortib, qoidasi bilan qog'ozga o'rab, Jelsominoga uzatdi.

— Menga mana bundan ham ozgina bersangiz, — dedi Jelsomino nomini aytmay pishloqqa ishora qilib.

— Ozgina rezinkadanmi? — deb so'radi sotuvchi. -Hozir, janob. — U pishloqdan kattagina bo'lakni kesib tortdi-da, qog'ozga o'radi.

Jelsomino yengil tortib, yaqindagina topgan kumush tangani taxtaga tashladi.

Sotuvchi egilib, uni bir necha minut tomosha qildi, qanaqa jiringlarkin deb ikki marta taxtaga tashlab ko'rди, keyin katta ko'rsatadigan oyna orqali unga qaradi, hato tishlab ham boqди. Nihoyat, norozi bo'lib, uni Jelsominoga uzatdi-da, sovuq javob berdi:

— Afsuski, yigitcha, tangangiz rostakasi ekan.

— Juda soz, — dedi Jelsomino ishonch bilan jilmayib.

— Undaymas! Yana takrorlayman, bu tangangiz rostakasi ekan! Men uni olmayman. Yo'lingizdan qolmang! Umuman, hozir ko'chaga chiqib, politsiyani

chaqirishga erinayotganimga xursand bo'ling, yigitcha. Rostakasi pul ishlatadigan odamlarning nimaga duchor bo'lishini bilmaysizmi? Turmaga.

— Lekin men...

— Baqirmang, kar emasman. Jo'nang, jo'nang, qalbaki pul olib kelsangiz, aytganingizni olasiz. Ko'rib qo'ying, hatto qog'ozini ham ochganim yo'q. Kelguningizcha, u bir chetda turadi, xo'pmi? Tuningiz xayrli bo'lsin.

Jelsomino baqirib yubormaslik uchun mushtumini og'ziga tiqdi. Sotuvchining yonidan eshikka yetib borguncha uning o'zi bilan ovozi o'rtasida bunday gap o'tdi:

Ovoz: "A-a!" deb yuboraymi? Uning butun vitrinasi chil-chil bo'ladi.

Jelsomino: O'tinaman, bunday qilma. Men bu mamlakatga endi keldim, o'zi busiz ham ishim yurishmay turibdi.

Ovoz: Tiqilib ketayapman, yo'qsa tamom bo'laman. Sen mening egamsan, qanday qilsam yaxshi bo'ladi, o'ylab ko'r.

Jelsomino: Toqat qil, bu esi pastning magazinidan hozir chiqib ketamiz. Uning boshiga tashvish solgim yo'q. Bu mamlakatda bir sir borga o'xshaydi.

Ovoz: Unday bo'lsa tez yur, ortiq toqat qilolmayman. Yugur. Yana bir minutdan keyin qichqirib yuboraman... bir minut hayallasang, hammasi ostin-ustun bo'ladi.

Jelsomino yugurib borib, kimsasiz xiyol kengroq ko'chaga kirdi-da, atrofiga qaradi. Hech kim yo'qligini ko'rib, mushtumini og'zidan oldi, ichiga sig'may turgan g'azabini bo'shatish uchun qisqagina "A-a!" dedi. Ko'chadagi chiroq sindi, derazada turgan gultuvak tebranib ketib, ko'chaga tushdi.

Jelsomino nafasini rostlab oldi:

— Qo'linga pul tushsa pochta orqali singan fonar uchun shahar boshqarmasiga yuboraman, boloxonaga guli bilan yangi gultuvak keltirib qo'yaman. Shulardan boshqa narsa sinmadi, shekilli?

— Yo'q, singani yo'q, — deb javob berdi birov unga ingichka ovoz bilan. Kimdir ikki marta yo'taldi.

Jelsomino ovoz egasini qidirib, mushukni, ochig'ini aytganda, uzoqdan mushukka o'xshash maxluqni ko'rdi. Avvalo, bu mushuk qizil edi. Qandaydir jigarrang yoki to'q qizil rangda edi. Oyog'i faqat uchta. Eng qizig'i shuki, bu mushuk bolalarning devorga chizadiganiga o'xshagan rasm mushuk edi.

— Nima bu? Gapiradigan mushukmi? — hayron bo'ldi Jelsomino.

— Ha, men oddiy mushuklardan emasman. Men, masalan, o'qish va yozishni bilaman. Men doskaga yozadigan bo'rning farzandiman.

— Kimning farzandiman deyapsan?

— Bir qiz maktabdan olgan rangli bo'r bilan bu devorga mening rasmimni chizdi. Lekin uchta oyog'imni chizib bo'lgan paytida politsiya kelib qolib, u shoshapisha qochib ketdi. Men choloq bo'lib qoldim. Shuning uchun ham meni Cho'loq mushuk deb atashadi, biroz yo'talib ham turaman. Axir, eng sovuq qish oylarini zax devorda o'tkazdim-da.

Jelsomino devorga qaradi. Unda, xuddi suvoqdan naqshi ko'chib tushgandek, Cho'loq mushukning izi qolibdi.

— Sen u yerdan qanday qilib tushding? — deb so'radi Jelsomino.

— Buning uchun sening ovozingdan minnatdor bo'lishim kerak, — deb javob berdi Cho'loq mushuk. — Agar bundan ham qattiqroq qichqirganingda devorni teshib qo'yarding-da, ko'ngilsizroq hodisa yuz berishi mumkin edi. Sal sekin qichqirganing mening omadim bo'ldi. Uch oyoqlab bo'lsa ham yerda yurish yaxshi ekan! Darvoqe, sening oyog'ing ikkita, shunday bo'lsa ham bemalol yuraverasan-ku, to'g'rimi?

— Bo'lmasam-chi, — deya uning gapini quvvatladi Jelsomino, — menga bu ham ko'plik qilib qoldi. Agar oyog'im bitta bo'lganida uydan jilmasdim.

— Sen xafa ko'rinasan, — dedi Cho'loq mushuk. — Nima bo'ldi senga?

Jelsomino boshidan kechirganlarini hikoya qilmoqchi bo'lib turganida ko'chada to'rt oyoqli rostakam mushuk ko'rinib qoldi. Lekin u o'z xayollari bilan band bo'lsa kerak, bizning do'stlarimizga qayrilib ham qaramadi.

— Miyov! — dedi unga Cho'loq mushuk. Mushuklarning tilida "miyov" degani — "salom" degani.

Mushuk to'xtadi. U hayron bo'lganga, hatto jahli chiqqanga o'xshadi.

— Mening nomim Cho'loq mushuk, seniki-chi? — qiziqib so'radi bizning mushugimiz.

Rostakam mushuk, javob beraymi, bermaymi, deb ikkilanayotganga o'xshardi. Keyin istar-istamas ming'illadi:

— Mening nomim Qoplun.

— Nima deyapti? — deb so'radi haqiqatan ham hech narsaga tushunmagan Jelsomino.

— Mening nomim Qoplun, deyapti.

— Itlarni shunaqa deyishadi-ku?

— Xuddi shunday!

— Hech tushunolmadim, — dedi Jelsomino. Birinchi marta sotuvchi non o'rnida menga siyohni tiqishtirmoqchi bo'ldi. Endi it laqabidagi mushukka duch keldim.

— Azizim, — dedi Cho'loq Mushuk, — mushuk o'zini itman deb o'ylayapti. Eshitging keladimi? — U mushukka qarab, astoydil so'rashgandi:

— Vov-vov! — jahli chiqib javob berdi mushuk. — Mushuk bo'la turib, miyovlagani uyalmaysanmi?

-Ha, — deb javob qildi Cho'loq mushuk, — qizilbo'r bilan chizilgan uch oyog'im bo'lsa ham, men mushukman.

— Sen bizning avlodimizga isnod keltirding. Sen yolg'onchisan, yo'qol bu yerdan! Mening sen bilan gaplashishga vaqtim yo'q. Ha, yomg'ir yog'adiganga o'xshayapti. Uyga borib, zontigimni olay, — u alanglab bir vovulladi-da, jo'nadi.

— Nima dedi u? — deb so'radi Jelsomino.

— Yomg'ir yog'adi, dedi.

Jelsomino osmonga qaradi. Uylarning tomi ustida quyosh har qachongidan ravshanroq charaqlardi, hatto dengizchilarning durbini bilan ham bironta bulutni topib bo'lmasdi.

— Bu yurtning barcha bulutli kunlari shu bugunga o'xshasa kerak. Menimcha, hamma narsasi teskari mamlakatga kelib qolganga o'xshayman.

— Qimmatli Jelsomino, sen yolg'onchilar mamlakatiga kelib qolding. Bu yerda qonunga binoan hamma yolg'on so'zlashi kerak. Rost gapiradigan odam yaxshilik ko'rmaydi. Ularga shtraf solib, terisini shunday shilib olishadiki, qashishga tirnog'i ham qolmaydi.

O'zining devoridagi kuzatuv punktida turib ko'p narsalarni ko'rgan Cho'loq mushuk Jelsominoga yolg'onchilar mamlakati haqida mufassal hikoya qilib berdi.

TO'RTINCHI BOB

*Bu yerda bayon etdik mushuk gapini,
O'qib biting yolg'onchilar mamlakatin*

— Senga ma'lum bo'lsinkim... — deya so'z boshladi Cho'loq mushuk. Lekin men sizlarning vaqtingizni ko'p olmaslik uchun uning hikoyasini qisqartiraman. Shunday qilib, bu begona mamlakatga Jelsominodan oldin dengiz orqali Jakomon degan ayyor va zolim qaroqchi, kelgan. U baland bo'yli, semiz odam bo'lib, keksaygan vaqtda bedahmaza ish topmoqchi bo'libdi.

— Yoshlik o'tib ketdi, — dedi u. — Dengizda yurish jonimga tegdi. Endi biror orolni bosib olib, eski kasbimni tashlasam tuzuk bo'lasmikin? Albatta, men o'zimning qaroqchilarimni unutmayman. Ularni o'zimga xizmatkor, otboqar, yugurdak qilib olaman, ular mendek atamanlaridan rozi bo'ladilar.

Shunday fikrga kelib, u o'ziga orol izlay boshladi. Lekin barcha orollar kichkinalik qilib, uning didiga o'tirishmadi. Agar uning didiga yoqsa ham shaykalariga yoqmas edi. Biri baliq tutadigan daryosi bo'lsin derdi, u yerning daryosi yo'q, ikkinchisi kinoteatri bo'lsin derdi, uchinchisi qaroqchilik qilib topgan boyligini qo'yadigan bank bo'lishini istardi.

— Orolga qaraganda tuzukroq boshqa biror joyni bosib olsak bo'lmaydimi? — derdi har safar birortasi.

Xullas, ular ko'pdan ko'p banklari, baliq tutish, dam olish kunlari qayiqda sayr qilish uchun talay daryolari bor bo'lgan katta shaharli bir mamlakatni bosib olishdi. Buning ajablanadigan yeri ham yo'q. Qaroqchilar ko'pincha dunyoning biron qismida u yoki bu mamlakatni bosib olib turadilar. Jakomon bu mamlakatni bosib olib, o'zini qirol Jakomon Birinchi deb atadi, o'ziga qarashli odamlarni admiral, ministr, saroy xizmatchilari va o't o'chirish komandalariga boshliq qilib tayinladi.

Shundan keyin Jakomon, meni "oliy hazratlari" deb atashsin, shunday demaganlarning tili qirqilsin, deb buyruq chiqardi. Lekin o'zi to'g'risidagi chin

gaplarni biron kishi tilga olmasligi uchun u ministrarga so'zlarni o'zgartiring, deb buyurdi.

— Hamma so'zlarni o'zgartirish kerak, — dedi u. — Masalan, "qaroqchi" so'zi yaxshi odam degan ma'noni bildirsin. Shunday qilib, odamlar meni qaroqchi deganlarida, yangi tilda bu yaxshi odam degan ma'noni bildirsin.

— Kemalarni talaganimizdan ko'rgan hamma nahang baliqlar nomiga qasam ichamanki, bu juda yaxshi fikr! — qichqirishdi qoyil qolib ministrlar. — Buni oltin harflar bilan yozib qo'ysa arziydi.

— Hamma tushundimi? — deya davom etdi Jakomon. — Endi ishga o'ting! Hamma narsalar, hayvonlar va odamlarning nomi o'zgartirilsin! Birinchi navbatda, ertalabki salom o'rniga, tuningiz xayrli bo'lsin. Shunday qilib, mening sodiq kishilarim ertalabdanoq yolg'on gapira boshlaydilar. Uxlaydigan vaqt bo'lganda esa: "Ertalabki salom" deyish kerak.

— Juda yaxshi! — deb qichqirdi ministrlardan biri. — Biron kishiga: "Juda ochilib ketibsiz" deyiladigan bo'lsa, "Afting qursin", deyish kerak.

So'zlar o'zgartirilgandan keyin yolg'on gapirishga majbur etuvchi qonun chiqarildi. Shundan keyin chalkashlik boshlandi. Avvallari odamlar yanglishib ketaverdi. Masalan, non olaman deb, daftar-qalam sotilayotgan non do'koniga yanglishib boraverishdi, non endi daftar-qalam magazinida sotilardi. Yoki shahar bog'iga o'ynagani borishib, gullarga suqlanib boqishardi:

— Atirgullarning chiroyliligini qarang! — deyishardi. Shu zahotiy oq qirol Jakomonning ayg'oqchilari qo'llariga kishan ushlab, butalar ortidan sakrab chiqishardi.

— Barakalla, qoyil! Siz qonunni buzganligingizni bilasizmi? Sabzini atirgul deyish qayoqdan xayollaringizga kelib qoldi?!

— Kechirasiz, — darhol gunohkor ming'illab, keyin bog'dagi boshqa gullarni shoshib-pishib maqtay boshlardi. — Ajoyib qichitqon ekan-a! — derdi u kapalak gulni ko'rsatib.

— Yo'q, yo'q, bunisi ketmaydi! Endi jinoyat qilib qo'ydingiz. Ozgina qamoqda o'tirib, yolg'on gapirishni mashq qiling.

Maktablarda nima bo'lganini tasvirlab ham bo'lmasdi. Jakomon ko'paytiruv jadvalidagi barcha sonlarni o'zgartirishga majbur qildi. Qo'shish o'rniga ayirish, bo'lish o'rniga ko'paytirish kerak edi. O'qituvchilarning o'zlari ham vazifani yecholmaydigan bo'lib qoldilar.

Dangasalarga juda maza bo'ldi: qancha ko'p xato qilishsa, shuncha yuqori baho ola boshladilar.

Inshoda-chi?

Teskari yozganda inshoning qanaqa chiqishini bilasizmi? Mana, misolga "Ajoyib kun" inshosini olaylik, uni yozgan bir o'quvchi qalbaki oltin medal oldi:

"Kecha yomg'ir yog'di. Katta-katta muzdek yomg'ir yog'ayotganda o'ynab yurish mazza-da! Nihoyat, odamlar zontik va plashlarini uyiga tashlab chiqib, pidjaksiz, ko'ylakchan yurishdi. Oftob charaqlab tursa menga yoqmaydi — ivib

qolmaslik uchun uyda o'tirib, oftob nurlarining eshik cherepitsalarida g'amgin suzishini kechasi bilan kuzatib o'tirasan".

Ana shu inshoga tegishli baho berish uchun "eshik cherepitsalari" bu tilda "deraza oynalari" degan ma'noni bildirishini tushunishingiz kerak.

Lekin shuning o'zi yetar. Endi siz nima to'g'risida gap borayotganini bildingiz. Yolg'onchilar mamlakatida hatto hayvonlar ham yolg'on bo'kirishga majbur edilar.

Itlar miyovlar, mushuklar vovullar, otlar ma'rar, hayvonot bog'idagi qafasdagi sher bo'lsa sichqondek chiyillashi kerak edi, sichqonlar esa bo'kirishga majbur etilgan edi.

Faqat suvdagi baliqlar, osmondagi qushlarga qirol Jakomonning barcha qonunlarini nazar-pisand qilmas edilar. Chunki baliqlar soqov, shuning uchun ham ularni yolg'on so'zlashga majbur etib o'tirishning iloji yo'q edi. Qushlarni bo'lsa, qirol ayg'ochchilari hech qachon tutib, qamay olmasdilar. Qushlar avvalgidek o'z ashulalarini aytaverdilar. Odamlar ko'pincha havasi kelib, ularga zavqlanib boqardilar:

— Qushlar baxtli ekan, ularni hech kim shtraf qilolmaydi.

Jelsomino Cho'loq mushukning hikoyasini eshitar ekan, borgan sari xafaligi oshaverdi.

"Bu mamlakatda qanday yashayman? — deb o'ylardi u. — Agar men o'zimning bu qadar baland ovozim bilan haqiqatni aytsam, qirol Jakomonning barcha politsiyachilari eshitadi. Ovozim ham gapimga kirmaydi. Uni gapga ko'nadigan qilib bo'larmikin?"

- Mana, endi sen hammasidan xabardor bo'lding, — deb tugatdi hikoyasini Cho'loq mushuk. — Bilasanmi, senga yana bir gap aytmoqchiman. Qornim ochib ketdi.

— Mening ham. Esimga ham kelmabdi-ya.

— Ochlikni sira ham esdan chiqarib bo'lmaydi. Vaqt bilan uning ishi yo'q. Aksincha, vaqt o'tgan sari, qorning tobora ochaveradi. Qarab tur, hozir biror narsa toparmiz. Lekin, avvalo meni shuncha vaqt asir qilib turgan mana shu devorda o'zimdan bir esdalik qoldirishni istardim.

U qizil bo'rda chizilgan oyog'i bilan devordagi ilgari o'zi turgan yerni tirnab yozdi:

MIYOV! YASHASIN OZODLIK!

Biror yemak izlab topish juda qiyin edi. Ikkalasi shaharda tentirab yurganida, Jelsomino qalbaki tanga toparmikanman, deb yo'ldan ko'zini uzmadi. Cho'loq mushuk bo'lsa, ko'pchilik orasidan qandaydir tanishini izlayotgandek atrofiga alanglardi.

— Ana u, — dedi nihoyat mushuk. U qog'ozga o'rog'lik nimanidir ko'tarib yo'lakdan shoshib-pishib kelayotgan keksa xonimga ishora qildi.

— Kim u?

— Jo'xori xola, mushuklarning homiysi. U har kuni kechqurun qirol Jakomon saroyining istirohat bog'i oldida yig'iladigan daydi mushuklarga qolgan-qutganlarni qog'ozga o'rab keladi.

Jo'xori xola tayoqdek tik, bo'yi ikki metrcha keladigan, qotma, ko'rinishidan jahldor kampirga o'xshardi. Uni ko'rganda, qo'lga supurgi olib mushuklarni quvlaydigan kampirlardan bo'lsa kerak deb o'ylash mumkin edi. Lekin Cho'loq mushukning gapiga qaraganda, u buning teskarisi bo'lsa kerak.

Jelsomino va uning yangi do'sti kampirning ketidan yurib, kichik bir maydonga borib qolishdi, ichkariroqda istirohat bog'ining shisha siniqlari sanchib qo'yilgan kungurador devori ko'rinib turardi. Ozib ketgan bir necha mushuk xolani tartibsiz ravishda vovullab kutib olishdi.

— Ovsarlar! — dedi Cho'loq mushuk. — Hozir men ularni laqillataman.

Jo'xori xola o'rog'lik qog'ozini ochib, ichidagisini yo'lkaga yaqin qo'ygan paytda Cho'loq mushuk ur-yiqit bo'layotgan mushuklarning orasiga otilib, kirdi-da, qattiq miyovlay boshladi.

Vovullash o'rniga miyovlaydigan mushuk kamdan kam bo'lgani uchun bu yerdagi mushuklarga g'alati tuyuldi. Ular hayratdan og'izlarini ochganча haykaldek qotib qoldilar. Cho'loq mushuk ikkita treska balig'ining boshini, qalqon baliqning dumini tishlaganicha ikki hatlab qirol bog'ining devoriga chiqib oldi-da, undan oshib, butalar orasiga o'zini urdi.

Jelsomino atrofiga alangladi. Uning ham devordan oshib tushgisi keldi-yu, lekin Jo'xori xola unga shubha bilan qarab turgandi.

"Uning shovqin ko'tarishini istamayman", — deb o'yladi u. Nihoyat, o'z yo'lida ketayotgan oddiy yo'lovchiga o'xshab boshqa ko'chaga burilib ketdi.

Mushuklar es-hushini yig'ib olgach, Jo'xori xolaning etagiga yopishib, vovullay boshladilar. Lekin, ochig'ini aytganda, Jo'xori xola ulardan ko'proq hayratda qolgan edi. Nihoyat, u nafasini rostlab, qolgan sarqitlarni mushuklarga bo'lib berdi-da, Cho'loq mushuk yashiringan devorga bir qarab, uyiga ravona bo'ldi.

Jelsomino bo'lsa, muyulishga burilishi bilanoq, ko'pdan qidirgan soxta tangani nihoyat topdi. U non va pishloq yoki bu yerdagilarning aytishicha, "bir shisha siyoh va o'chirg'ich" sotib oldi. Tez kech kira boshladi, Jelsomino juda charchadi, uning yotib uxlagisi keldi. U ochiq eshikni ko'rib, o'sha tomonga jadal yurgan edi, podvalga kirib qoldi, o'sha yerdagi ko'mir uyumi ustiga yotib, uyquga ketdi.

BESHINCHI BOB

*Deraza orqali mushuk tikildi,
U qirolning boshi kalligin bildi.*

Jelsomino uxlab yotardi, tushida yangi, g'alati sarguzashtlarga duch kelishini xayoliga ham keltirmagan edi. Bu sarguzashtlarni sizga keyinroq aytib beraman. Hozir biz Cho'loq mushukning uchala qizil oyog'i izidan boramiz.

Treska balig'ining boshi va qalqon baliqning dumi unga juda mazali tuyuldi. Uning umrida birinchi marta ovqatlanishi edi. U devorda rasm holida turganida ochlik nimaligini bilmagan ham edi.

Mushuk birinchi marta qirol bog'ida tunni o'tkazdi. U qirolning saroyiga qarab, eng yuqori qavatda chiroq yonib turgan bir necha derazani ko'rdi.

— Bu yerda Jelsominoning yo'qligi chatoq bo'ldi-da,— dedi. — U qirol Jakomonga qo'shiq aytib, derazalarni chil-chil qilib berardi. Lekin qirol Jakomon uxlamog'chiga o'xshaydi. Buni tomosha qilib qolish kerak.

Cho'loq mushuk bir qavatdan ikkinchi qavatga tirmashib chiqdi-da, oliy hazratlarining yotog'i yonidagi katta zalga tepadan deraza orqali mo'raladi.

Xizmatkorlar, mahramlar, saroy ahllari, oliy mansabdagi kishilar, admirallar, ministrlar va boshqa mansabdor kishilar keti ko'rinmaydigan ikki qatorga tizilib, kelayotgan Jakomonga ta'zim bilan qulluq qilib turishardi. U baland, semiz hamda shu qadar bahaybat ediki, ko'rgan odam qo'rqib ketardi. Lekin to'q sariq, olovrang, qalin, uzun jingalak sochlari hamda ko'kragiga qirolning nomi yozilgan, yotayotganda kiyiladigan binafsha ko'ylak kishining esini og'dirib qo'yardi.

U kelayotganda hamma ta'zim qilib, hurmat bilan:

— Ertalabki salom, oliy hazratlari! Kuningiz yaxshi o'tsin, davlatpanoh! — deyishardi.

Jakomon to'xtab, huzur qilib esnar, saroy ahllaridan biri shu zahotiyiq nazokat bilan kaftini tutib, uning og'zini berkitardi. Keyin Jakomon yana yo'lda davom etib, g'o'ldirardi:

— Bugun ertalab mening sira ham uyqum kelmayapti. Men o'zimni yengil his qilayapman.

Bu gaplarning hammasi, albatta, teskari ma'noni bildirardi. Lekin u odamlarni aldashga majbur etib, shu qadar o'rganib qolgan ediki, o'zi ham ulardan qolishmas, yolg'on gaplariga hammadan oldin o'zi ishonardi.

— Oliy hazratlarining aftlari qursin, — dedi ministrlardan biri ta'zim qilib.

Jakomon unga g'azab bilan qaradi-yu, lekin shu zohotiyiq esiga tushib qoldi, chunki bu juda ochilib ketibsiz, degan ma'noni bildirar edi-da. U iljaydi, esnab saroy ahllariga o'girildi-da, qo'l siltab, ular bilan xayrlashdi. Keyin binafsharang ko'ylagining etagini yig'ishtirib, yotog'iga kirib ketdi.

Cho'loq mushuk uni kuzatib turish maqsadida boshqa derazaga o'tdi.

Jakomon oliy hazratlari yolg'iz qolishi bilan oyna yoniga bordi-da, o'zining ajoyib to'q sariq sochini oltin taroqda hafsala bilan taray boshladi.

"U sochini juda yaxshi ko'rar ekan-da, — deb o'yladi

Cho'loq mushuk, — lekin arziydi. U chindan ham chiroyli. Shunday sochi bor odam qanday qaroqchi bo'lib qolgan ekan? U rassom yoki muzikachi bo'lishi kerak edi".

Shu topda Jakomon taroqni joyiga qo'yib, chakka sochlaridan tutamlab tortdi... Bir, ikki, uch... uning harsang toshga o'xshash, bir tuki yo'q boshi ko'rindi. Hatto hindu ham dushmanning bosh terisini bu qadar tez shilolmas edi.

— Yasama soch ekan! — deya shivirladi hayratdan Cho'loq mushuk.

Ha, ajoyib to'q sariq sochi yasama chiqib qoldi. Oliy hazratlarining beo'xshov, tuksiz pushtirang boshida so'gal va shishlar ko'p edi. Jakomon ularni g'amxo'rlik bilan

qashidi. Keyin u shkafni ochgan edi, Cho'loq mushukning ko'zi turli rangdagi yasama sochlarga tushdi. Hayratdan uning ko'zi yanada kattaroq ochildi. U yerda xilma-xil qilib taralgan sariq, ko'k, qora yasama sochlar bor edi. Jakomon kishilar bilan uchrashadigan paytida to'q sariq sochini kiyib olardi, lekin uxlash oldidan yolg'iz o'zi qolganda yasama sochlarni almashtirib kiyishni, kal boshi qayg'usidan shu yo'l bilan xalos bo'lishni yaxshi ko'rardi. U boshimda sochim qolmadi, deb xijolat tortmasa ham bo'lardi. Tuppa-tuzuk odamlarning deyarli hammasining sochi ma'lum yoshga yetganda to'kilib ketadi. Lekin Jakomon boshini ochib yurishni istamasdi.

Cho'loq mushukning ko'zi oldida oliy hazratlari o'nlab yasama sochlarni birin-кетин kiyib ko'rди. U o'z savlatiga tikilib, ko'nglini ochish uchun o'zini oynaga solar, sahna-ga chiqishga tayyorlanayotgan raqqosalardek qiyshayib, yonlamalab qarar, kichkina oyna yordamida orqa miyasiga ham qarardi. Oxiri binafsharangli yasama soch uning ko'ngliga yoqqandek bo'ldi. U yasama sochni tuksiz boshiga bostirib kiydi-da, to'shakka yotib, chiroqni o'chirdi.

Cho'loq mushuk deraza oldida yana yarim soat qirol saroyini tomosha qilib o'tirdi. Albatta, bu odobli zotlarga munosib ish emasdi. Eshikdan quloq solib turish yaxshi emas-ku, derazadan mo'ralab o'tirish yaxshi bo'larmidi? Lekin siz hech qachon bunday qilolmaysiz, chunki siz mushuk ham, dorboz ham emassiz. Bir amaldor Cho'loq mushukka juda yoqdi, u yotishidan oldin hashamlari, ordenlari, qurollarini xonaga uloqtirib, yangi mundirini yechib tashladi. Bularning o'rniga u nima kiydi deng! O'zining eski qaroqchilik paytidagi kiyimlarini: tizzagacha shimarilgan ishton, kalta katak kamzul kiyib, o'ng ko'zini qora bog'ich bilan bog'lab oldi. Ana shu kiyimda eski qaroqchi o'rniga yotmasdan, karavot ustidagi soyabonning qoq tepasiga chiqib oldi. U yelkan kema ustuniga chiqishni sog'inib qolgan bo'lsa kerak. Nihoyat, u arzon trubkasini tutatib, zo'r brib ichiga tutunni torta boshladi, bundan Cho'loq mushukning yo'talib yuborishiga sal qoldi.

— Qarang, qarang haqiqatning kuchliligini, — dedi Cho'loq mushuk, — hatto eski qaroqchi ham o'zining haqiqiy kiyimlarini qo'msaydi.

Cho'loq mushuk bog'da tunab, qorovulning qo'liga tushib qolishni ma'qul ko'rmadi. Shuning uchun ham u to'siqdan yana oshib tushib, shaharning markaziy maydonidan chiqib qoldi. Bu maydonga odamlar qirol Jakomonning nutqini eshitish uchun to'planardi. Cho'loq mushuk tunash uchun biror joy topish maqsadida atrofga alanglay boshlagan edi, u o'ng oyog'ining qichishayotganini payqadi.

— Qiziq, — ming'illadi u, — oliy hazratlari yoki eski qaroqchi turgan yerdan burga ilashmadimikin?

Lekin oyog'i g'alati qichimoqda edi. Uning oyog'i sirdan emas, ichidan qichimoqda edi, demoqchiman. Cho'loq mushuk oyog'ini diqqat bilan qarab, hech qanaqa burga topolmadi.

— Endi tushundim, — dedi u, — devorga yozgim kelayotganga o'xshaydi.

Kecha kechqurun Jelsominoning yordami bilan yerga tushganimda ham oyog'im qichigan edi. Yolg'onchilar qiroliga tabrik yozib qoldiraman.

U qirol saroyiga ehtiyotkorlik bilan yaqin kelib, qorovullarning tutib ololmasligiga ishonch hosil qildi. Hamma ish teskari bo'lgan bu mamlakatda qorovullar uxlab, xurrak otib yotardi. Qorovullarning boshlig'i ora-chora kelib, hamma qorovullarning uxlab yotganidan ataylab xabar olib ketardi.

— Bu juda soz, — dedi sevinib Cho'loq mushuk. U qizil bo'rda chizilgan oyog'i bilan (o'ng oyog'i bilan albatta), qirol saroyiga kiradigan bosh darvoza yaqinidagi devorga bunday deb yozdi:

QIROL JAKOMONNING SOCHI YASAMA!

— Bu yozuv xuddi joyiga tushdi, — dedi u yozuvni kuzatib.

— Endi saroyga kiradigan boshqa eshik tomonga yozish kerak.

Chorak soat ichida u bu so'zlarni yuz joyga yozgandir. Nihoyat, u darsda qilgan xatosi uchun berilgan vazifani ko'chirib bo'lgan o'quvchidek, charchadi.

— Endi yotib uxlash kerak.

Maydonning qoq o'rtasida qirol Jakomonning mardliklarini ko'rsatuvchi haykallar bilan bezatilgan marmar ustunlar bor edi. Albatta, bularning hammasi uydirma edi. Bu yerda Jakomonning kambag'allarga o'z boyliklarini qanday berayotganligini, dushmanlarni qanday tor-mor qilganini, o'ziga qaram kishilarni yomg'irdan asrash uchun soyabonni qanday yaratganini ko'rish mumkin edi.

Ustunning tepasida uch oyoqli mushukning barcha xavf-xatardan yashirinb, cho'zilib uxlashiga yetarli joy bor edi. Cho'loq mushuk haykallarga tirmashib tepaga chiqdi-da, ustunning ustiga joylashib yotdi. Yiqilib tushmaslik uchun yashin qaytarg'ichga dumini o'rab, ko'zini yumishi bilanoq uyquga ketdi.

OLTINCHI BOB

*Eshitilib kulgi, shovqin har yonda
Jakomon uyg'ondi erta azonda.*

Tongotarga yaqin Cho'loq mushuk dahshatli shovqin-surondan uyg'onib ketdi.

"Men uxlab yotganimda shaharni suv bosdimikin?" — deb o'yladi u qo'rquv aralash. Ustundan osilib turib, may-don to'la shovqin-so'ron qilayotgan odamlarni ko'rdi. U hamma odamlarning bu yerga yig'ilishiga qirol saroyining devorida:

"QIROL JAKOMONNING SOCHI YASAMA!"

deb yozib qoldirilgan xati sababchi boiganini darrov tushundi.

Yolg'onchilar mamlakatida kichkinagina haqiqat ham atom bombasining portlashidan ko'ra ko'proq shov-shuvga sabab bo'ldi. Shov-shuv va kulgi tovushlarini

eshitib, barcha ko'chalardan odamlar to'planaverdi. Yangi kelganlar avval, bayram bo'layotganga o'xshaydi, deb o'ylashardi.

— Nima bo'ldi? Biz biron jangda g'alaba qildikmi?

— Yo'q, yo'q, undan ham zo'rroq!

— Oliy hazratlari o'g'il ko'rdilarmi?

— Yo'q, bundan ham a'lo!

— Unday bo'lsa, soliqlarni bekor qilishibdi-da? Nihoyat, Cho'loq mushukning yozganini o'qib, yangi kelganlar ham qotib-qotib kulishardi. Binafsha ko'yulakda uxlab yotgan qirol Jakomoni ham kulgi va qiyqiriqlar uyg'otib yubordi. Qirol deraza yoniga yugurib kelib, mamnuniyat bilan ko'zlarini ishqadi.

— Ajoyib! Xalqimning meni qanchalik yaxshi ko'rishini qarang-a! Ularning hammasi menga, kechangiz xayrli bo'lsin, degani kelibdi. Hoy, siz, saroy ahllari, amaldorlar, admirallar, bu yoqqa, yonimga keling, mening amaldor to'nimni va hassamni keltiring! Men boloxonaga chiqib so'zlamochiman.

Lekin, ochig'ini aytganda, saroy ahllari bunga shubha bilan qaradilar.

— Nima bo'lganini bilish uchun biron kishini yuborsakmikin?

— Oliy hazratlari, revolyutsiya qilishgan bo'lsa-chi?

— Bekor gap! Odamlarning xursandchiligini ko'rmayapsizlarmi?

— Shuni aytyapmiz-da. Ular nimaga bunchalik xursand?

— Nimaligi ravshan. Men hozir nutq so'zlamochiman. Kotibim qani?

— Shu yerdaman, davlatpanoh.

Qirol Jakomonning kotibi oldindan yozib qo'yilgan nutqlar bilan to'la semiz papkani doim qo'ltiqlab yurardi. Unda xohlagan temada: nasihatimiz, ta'sirchan, ko'ngil-ochar nutqlar bor edi, lekin hammasi ham boshdan oyoq yolg'on gaplar bilan to'la edi.

Kotib papkasini ochib, yozuv to'la qog'ozni oldi-da, sarlavhasini o'qidi.

— "Guruch bo'tqa tayyorlash haqidagi nutq".

Yo'q, yo'q,, ovqat to'g'risidagisi kerak emas. Birontasining ishtahasi ochilib, gapimga quloq solmay qo'yadi.

— "Tebranmashoq ot kashf etilishi munosabati bilan nutq", — o'qidi yana bir sarlavhani kotib.

— Mana shunisi tuzuk. Tebranmashoq otni men kashf etganimni hamma biladi. Men qirol bo'lmaganimda, tebranmashoq otni hech kim bilmasdi.

— Oliy hazratlari, menda rangli sochlar haqida ham nutq bor.

— Juda soz, menga xuddi ana shunisi kerak! — dedi Jakomon yasama sochini silab. U nutq yozilgan qog'ozni olib boloxonaga chiqdi.

Oliy hazratlari boloxonaga chiqqanida gulduros olqish lar yoki qattiq kulgiga o'xshash tovush yangradi. Hamma narsaga shubha bilan qaraydigan ko'p saroy ahllari buni kulgiga yo'yib, yanada olazarak bo'ldilar. Jakomon bo'lsa, meni olqishlab shovqin solishayapti, deb o'ylab, qo'l ostidagilarga iliq tabassum bilan minnatdorchilik bildirdi-da, nutqni o'qiy boshladi.

Bu yerda uni to'la o'qiyman deb umid qilmang. Baribir undan siz hech narsa tushunmasdingiz, chunki hamma narsa to'g'risida teskari gapirilgan edi. Jelsominoning xotirasiga suyanib, men sizlarga uning qisqacha ma'nosini aytib beraman.

Shunday qilib, qirol Jakomon taxminan bunday dedi:

— Tuksiz bosh nima degani? Bu gulsiz bog' degan so'z.

— Qoyil! — deb qichqirdi olomon. — To'g'ri! To'g'ri! "To'g'ri" so'zi anqovroq saroy ahllarini ham shubhaga soldi. Lekin Jakomon nutqini bemalol davom ettiraverdi:

Men bu mamlakatga qirol bo'lmasimdan oldin odamlar xafalikdan sochlarini yulishardi. Birin-ketin aholining boshida sochi qolmadi, sartaroshlar ishsiz qolishdi.

— Qoyil! — deb qichqirdi kimdir olomon orasidan.

-Yashasin sartaroshlar, yashasin yasama sochlar!

Jakomon biroz shoshib qoldi, yasama sochga qilingan bu ishora uning achchig'ini keltirdi. Lekin u shubhani quvib, davom etdi:

— Grajdanlar, men hozir sizlarga nega to'q sariq sochlar ko'k sochlardan chiroyliligini aytib beraman.

Shu topda saroy ayonlaridan biri Jakomonning yengidan tortib, uning qulog'iga shivirladi:

— Oliy hazratlari dahshatli voqea yuz berdi.

— Nima bo'ldi? Gapir!

— Avval, men sizga rostini aytsam, tilimni kesmaslikka so'z bering.

— So'z beraman!

— Kimdir devorga sizning sochingizni yasama deb yozib qo'yibdi, shuning uchun ham odamlar kulishyapti.

Jakomon shu qadar hayratda qoldiki, qo'lidan nutqi yozilgan qog'ozlarni tushirib yubordi. Ular odamlarning tepasidan uchib borib, oxiri bolalarning qo'lga tushdi. Agar qirolga saroyga o't tushdi, deganlarida ham bunchalik jahli chiqmasdi. U jandamlarga: "Xalqni maydondan quvinglar!" — deb buyurdi. Keyin nima gapligini bilish uchun pastga tushib, xunuk xabar olib kelgan saroy xodimining tilini sug'urib olinglar, dedi. Bechora shoshganidan, tilimni kesmang, deb iltimos qildi. U tilini emas, burnimni kesmang, deb so'rashni mutlaqo unutilib qo'yibdi. O'shanda hech bo'lmaganda burnini kesardilarda, tili bezarar, omon qolardi.

Lekin Jakomon bu bilan tinchlanmadi. Mamlakatning har tomoniga farmon yuborildi. Unda oliy hazratlarini haqorat qilgan odamni ko'rsatib bergan kishiga yuz ming soxta pul va'da qilindi. Maydonning saroyga yaqin yerida, ustunlar oldida o'sha ehtiyotsiz yozuvchining boshini kesadigan joy hozirlashdi.

— Onajon! — deb qichqirdi mushuk beixtiyor va ustun ortiga yashirinib, bo'ynini ushlab ko'rdi. — Men yolg'onchilarning tilida qo'rquv nima deyilishini bilmayman, agar u qahramonlik deyiladigan bo'lsa, men o'zimni hozir juda qahramon sezyapman.

U ehtiyot bo'lib, turgan yeridan kuni bo'yi tushmadi, kulcha bo'lib yotdi. Kechqurun, ko'ngilsiz uchrashuvga duch kelmasligiga ishonch hosil qilgach, ustundan pastga tushib, har bir qadam bosishidan oldin atrofga yuz bor alanglab boqdi. Yerga tushganida uning keyingi oyoqlari juftakni rostlashga tayyor edi. Shu topda uning oldingi o'ng oyog'i qichishib qoldi.

— Ana, yana boshlandi, — deb ming'illadi Cho'loq mushuk. — Oyog'imning qichishini bosish uchun qirol Jakomonga yana bir nordon gap yozib qoldirishim kerak. Devorga chizilgan rasmdan dunyoga kelganimdan keyin, umr bo'yi yozuvchizuv qilishim kerak-da. Lekin bu yerda devor yo'q. Hov anavi yerga yozaman.

Bosh kesishga tayyorlab qo'yilgan yerdagi boltaga qizil bo'rda chizilgan oyog'i bilan qirol Jakomonga atab, — mana shu so'zlarni yozdi:

Hamma ham der shu mahal:

"JAKOMONNING BOSHI KAL!"

Oyog'ining qichishi darrov bosildi, lekin Cho'loq mushuk oyog'ining bir necha millimetr qisqarganini payqadi.

— O'zimning bir oyog'im yo'q, — dedi u, — agar yozaversam, bu oyog'im ham o'chib ketadi. Unda qanday yuraman?

— Hozircha men senga yordam beraman, — degan ovoz eshitildi orqadan.

Agar ovozning o'zi bo'lganida, Cho'loq mushuk qochib qolardi-ya. Ovozning ikki qo'li, qisqichdek barmoqlari bor edi. Qo'l bilan ovozning egasi, bo'yi ikki metrcha keladigan, ko'rinishdan sovuq va jahldor bir keksa xonim edi.

— Jo'xori xola!

— Ha, bu men, — deb shivirladi keksa xonim. — Men seni o'zim bilan olib ketaman. Mening mushuklarimning ovqatini olib qochishni devorlarga bo'r bilan yozishni ko'rsatib qo'yaman senga.

Jo'xori xola Cho'loq mushukni ro'moliga o'rayotganida u indamay turdi, shu topda qirol saroyining darvozasidan bir necha jandarm chiqib kelayotgan edi-da.

"Jo'xori xolaning oldin kelgani yaxshi bo'ldi, — deb o'yladi Cho'loq mushuk, — Jakomonning qo'lga tushgandan ko'ra, uning qo'lga tushganim yaxshiroq".

YETTINCHI BOB

*Cho 'loq mushuk berilib, bo 'Isa ham xayf-xatar,
Nodon mushukchalarga miyovlashni o 'rgatar.*

Jo'xori xola Cho'loq mushukni uyiga olib kelib, uni kresloga chatib qo'ydi. Ha, ha, dasturxonga rasm nusxasini chatigandek, ip va igna bilan chatdi. Ipni uzishdan oldin pishiq bo'lsin, deb ikki marta tugun soldi.

— Xo'xori xola, — dedi Cho'loq mushuk quvnoqlik bilan, — juda bo'lmaganda ko'k ip bilan chatiganingizda tuzuk bo'lardi, u junimning rangiga mos tushardi. Bu to'q sarig'i yomon, Jakomonning yasama sochiga o'xshaydi.

— Yasama soch haqida og'zingni ochmay qo'ya qol, — deb javob qildi Jo'xori xola. — Yaxshisi jim o'tirsang, kecha kechqurungidek mendan qochib ketmasang bo'lgani. Sen ajoyib maxluqsan, sendan katta ishlar kutaman.

— Nima desangiz ham men mushukman, — dedi kamtarlik bilan Cho'loq mushuk.

— Sen miyovlaydigan mushuksan, hozirgi kunda bunaqasi kam. Yo'q desa ham bo'ladi. Mushuklar itlardek vovullaydigan bo'lishdi, lekin ular it bo'lib tug'ilmagani uchun buni uddalasholmayapti. Men itlarni emas, mushuklarni yaxshi ko'raman. Uyimda yettita mushugim bor. Ular oshxonada, umivalnikning tagida yotishadi. Har safar ular og'izlarini ochganda quvib yuborgim keladi. Men ularni miyovlashga o'rgatish uchun yuz marta urinib ko'rgandirman, lekin ular menga quloq solishmadi, menga ishonishmaydi.

Cho'loq mushuk o'zini politsiyadan asrab qolgan, mushuklarning vovullashi joniga tekkan bu keksa xonimni yoqtirib qoldi.

— Harholda, — deb davom etdi Jo'xori xola, — mushuklar to'g'risida ertaga maslahatlashib ko'ramiz. Bugun kechqurun boshqa ish bilan shug'ullanamiz.

U kichikroq javonning oldiga borib, u yerdan bir kitobni oldi-da, sarlavhasini Cho'loq mushukka ko'rsatdi.

— "Tozalik haqida", — o'qidi mushuk.

— Endi, — dedi Jo'xori xola Cho'loq mushukning ro'baro'sidagi kresloga o'rnashib o'tirib, — men senga kitobni birinchi bobidan oxirigacha o'qib beraman.

— U necha bet, xolajon?

— Ozgina! Mundarijasi bilan atigi sakkiz yuz yigirma to'rt bet, men mundarijasini o'qimay qo'ya qolaman. Shunday qilib: "Birinchi bob. Nima uchun nomingni devorga yozmasliging kerak? Nom — muhim narsa, uni har yerga yozavermaslik lozim. Yaxshi rasm solib, tagiga nomingni yozib qo'yishing mumkin. Ajoyib haykal ijod qilsangiz, nomingizni pyedestalga yozishadi. Yaxshi mashina kashf etsangiz, uni o'z nomingiz bilan atashingiz mumkin. Faqat yaxshi ish qilish qo'lidan kelmaydiganlarga nomini yozish uchun devordan boshqa tuzukroq joy topolmaydi".

— Men bunga qo'shilaman, — dedi Cho'loq mushuk, — lekin men devorga o'zimni emas, qirol Jakomonning nomini yozdim.

— Jim turib, quloq sol. "Ikkinchi bob. Devorga do'stlaringning nomini ham yozmasliging kerak".

— Mening atigi bitta do'stim bor, — dedi Cho'loq mushuk. — Lekin men uni adashtirib qo'ydim. Bu bobni eshitgim kelmayapti, bo'lmasa yig'lab yuboraman.

— Lekin buni eshitishga majbursan. Sen baribir o'rningdan jilolmaysan.

Shu topda qo'ng'iroq jiringlab qoldi. Jo'xori xola eshikni ochish uchun o'rnidan turdi. O'n yoshlar chamasida bir qiz kirdi. Uning qiz bolaligini otning dumiga

o'xshatib qo'yilgan bir tutam sochidan bilish mumkin edi. Shunisi bo'lmasa, sportchilar shimi va katak ko'ylagiga qarab, o'g'il bola desa bo'lardi.

— Romoletta! — deb qichqirib yubordi hayratdan Cho'loq mushuk.

Qiz uni eslashga harakat qilib qaradi.

— Sen bilan qayerda ko'rishgan edik?

— Tanimayapsanmi? — davom etdi Cho'loq mushuk. — Seni mening onam desa bo'ladi. Rangimni ko'rib, esingga tushmayaptimi?

— Esingga tushdi, — deb javob berdi Romoletta, — men bir marta maktabdan jindakkina bo'r qarz olgan edim.

— Qarz olgan edim? — so'radi Jo'xori xola. — Buni o'qituvching bilarmidi?

— Men unga o'sha zahoti aytolmadim, — deya tushuntirdi Romoletta, — birdaniga katta tanaffusga qo'ng'iroq chalinib qoldi.

— Juda soz, - dedi Cho'loq mushuk, - demak meni shu jindakkina bo'rning farzandi desa bo'lar ekan-da. Shuning uchun ham gapirishni, o'qishni, yozishni, hisoblashni biladigan ma'lumotli mushuk ekanman. Agar mening to'rttala oyog'imni chizganingda, sendan juda xursand bo'lardim. Lekin shunisiga ham roziman.

— Men ham seni qayta ko'rganimga juda xursandman, — deb jilmaydi Romoletta. — Ehtimol, menga ancha yangiliklardan so'zlab berarsan.

— Mendan boshqa hamma xursand undan, — deb gapga aralashdi Jo'xori xola.

— Menimcha, ikkalovingiz ham mening kitobimda yozilganlarni o'rganishingiz kerak. Romoletta, anavi joyga o'tir.

Qiz kresloni yaqinroq surib, tuflisini nariroqqa uloqtirdi-da, oyog'ini yig'ishtirib o'tirdi. Jo'xori xola uchinchi bobni o'qishga kirishdi. Unda yo'lovchilarni xafa qiladigan so'zlami devorga yozmaslik kerakligi tushuntirilardi. Cho'loq mushuk va Romoletta zo'r e'tibor bilan tinglashdi. Kresloga tikib qo'yilgan Cho'loq mushukning bundan boshqa chorasi yo'q edi. Romoletta bo'lsa biroz ayyorlik ishlatdi, buni tezda payqab olasiz.

O'ninchi bobga kelganda Jo'xori xola esnay boshladi. Avval u har betda ikki martadan esnadi. Keyin tez-tez esnayverdi: har betda uch, to'rt martadan, keyin har bir qatorda... Keyin har bir so'zda... Nihoyat, u shunday huzur qilib esnadiki, og'zi yumilganda ko'zi ham yumildi.

- Har doim shunday, — deb tushuntirdi Romoletta, -kitobning yarmiga yetganda uxlab qoladi.

— Endi nima bo'ladi? U uyg'onguncha poylab o'tiraveramizmi? — deb so'radi Cho'loq mushuk. — U meni shunday qattiq chatib qo'ydiki, esnagim kelsa ham, baribir og'zimni ocholmayman. Bundan tashqari, men bir do'stimni izlab topishim kerak. Men uni kecha kechqurundan beri ko'rganim yo'q.

— Hozir men to'g'rilayman, — dedi Romoletta.

U qaychini olib, tikilgan iplarni ehtiyotlik bilan qirqdi. Cho'loq mushuk polga sakrab tushdi, kerishib, yengil nafas oldi.

— Tez bo'l, — deb shivirladi Romoletta, — oshxonadan o'tib ketamiz.

Oshxonada qop-qorong'i edi, lekin burchakda, ehtimol, univalnik turgan joyda bo'lsa kerak, o'n to'rtta ko'kimtir cho'g' yiltirardi.

— Bu yerdan mushuklarning hidi kelayapti, — dedi bizning Cho'loq mushuk.

— Men hatto yettita mushukning isini sezayapman.

— Bu xolaning mushuklari. Umivalnik turgan joyda hiringlab kulgan tovush eshitildi.

— O'rtoqjon, — degan ovoz eshitilda u yerdan, — sen faqat cho'loqqina emas, ko'rga ham o'xshaysan. Biz ham senga o'xshash it ekanligimizni ko'rmayapsanmi?

— Ey, siz yolg'onchi tentaklar! — dedi Cho'loq mushuk chinakam jahli chiqib. — Hozir vaqtim tig'iz bo'lganligi uchun omadingiz kelib qoldi, bo'lmasa men sizlarni miyovlashga o'rgatib qo'yardim. Jo'xori xola buning uchun menga rahmat ham aytardi.

— Vov-vov! — deya javob qilishdi birdaniga yettita mushukcha.

Cho'loq mushuk oqsoqlanib yettita oshnasining yoniga borib o'tirdi.

— Miyov! — dedi u achchig'i kelib. Yettitala mushukcha ham o'zini noqulay sezdi.

— Eshitdingizmi? — deb so'radi eng kichik mushukcha. — U chindan ham miyovlashni bilarkan.

— Ha, ha, itning shunchalik miyovlashi chakki emas.

— Miyov, — dedi Cho'loq mushuk, — miyov, miyov, miyov!

— Bu radioda ovozga taqlid etuvchi bo'lib ishlasa kerak, — dedi mushukchalaning eng kattasi. — Unga quloq solmang. U bizdan maqtov eshitmoqchi.

— Miyov, — dedi yana Cho'loq mushuk cho'zib.

— Rostini aytganda, — deb ming'illadi boshqa mushukcha, men ham shunday yaxshi miyovlashni istardim. Vovullash jonimga tegdi. Har safar vovullaganimda shunday qo'rqib ketamanki, junlarim tikka bo'lib ketadi.

— Eh, mening qaysarginam! Nimadan qo'rqishingni bilasanmi? — dedi Cho'loq mushuk. — Chunki sen it emas, mushuksan.

— Meni haqorat qilma! Gapingga quloq solganimizning o'zi ham yetar. Sening kimligingni qayerdan bilamiz?

— Men ham sizlarga o'xshagan mushukman.

— Itmisan yoki mushukmisan, bilmadim, lekin mening ham miyovlagim keladi.

— Miyovlab ko'r, — dedi Cho'loq mushuk. — Buning nimaligini bilasan — og'zingda shirin ta'mi qoladi.

— Jo'xori xola beradigan sutdan ham shirinroq bo'ladimi? — deb so'radi eng kichik mushukcha.

Mening juda miyovlagim kelayapti, — dedi mushukcha.

— Miyov, miyov, — dedi Cho'loq mushuk ayyorlik bilan, — dadil bo'ling, og'ayni mushukchalar, miyovlashni o'rganing.

Romoletta qornini ushlab o'zini kulgidan to'xtatolmay turganida, eng kichik mushukcha qo'rqa-pisa miyovlay boshladi. Ikkinchisi unga qattiqroq jo'r bo'ldi. Keyin

ularga uchinchi qo'shildi. Cho'loq mushukning hay barakallasi bilan tezda yettitala mushuk yettita g'ijjakdek miyovlay boshlashdi.

— Endi nima deysiz?

— Bu chindan ham maza bo'larkan!

— Qand solingan sutdan ham shirin!

— Aytganday, — dedi Romoletta, — Jo'xori xolani uyg'otib qo'yinglar. Ktdik, Cho'loq mushuk.

Romoletta bilan Cho'loq mushuk yugurib hovliga chiqishdi.

Jo'xori xola uyg'onib, oshxonaning eshigi yoniga keldi. Chiroqni chiq etib yoqqani eshitildi, keyin eshikdan kekxa xonim ko'rindi, sevinganidan ko'zlaridan yosh tomchilardi.

— Mushukchalarim, xayriyat, xayriyat!

Avval yettitala mushukcha tortinib turdi. Ular egasiga qarab to'xtovsiz miyovlar, nima uchun uning ko'zidan yosh oqayotganini bilishmasdi. Keyin ular eshikka qarab miyovlaganicha oldinma-ketin hovliga chiqishdi.

Jo'xori xola ko'z yoshini artib, ularning ketidan qarab qoldi.

— Barakalla, barakalla, — deb takrorlardi u, — barakalla, azamatlar!

Mushukchalar unga:

— Miyov! Miyov! — deb javob qaytarishardi. Lekin kimdir bilintirmasdan bu g'alati hodisani kuzatardi. Bu uy egasi sinyor Kalimer edi, u shu qadar xasis ediki, uydagi barcha xonalarni ijaraga qo'yib, o'zi chordoqda yashardi. U juda ham yoqimsiz kishi bo'lib, chaqimchiga o'xshardi. Sinyor Kalimer Jo'xori xolaga uyda jondor asrashni ko'p marta man etgan edi. Lekin kekxa xonim unga quloq solmasdi.

— Men bu yerga haq to'layman, — derdi u, — ortiqcha to'layman. Shuning uchun ham xohlaganimni qilaman.

Kalimer ko'p vaqtini odamlar nima qilayotgan ekan, deb chordoqdagi tuynukdan mo'ralab o'tkazardi. Shuning uchun ham u o'sha kuni kechqurun mushuklarni ko'rди, ularning qanday miyovlaganini, hatto Jo'xori xolaning baland ovozda "Barakalla, barakalla!" — deb to'xtovsiz maqtaganini eshitdi.

— Ha, qo'lga tushdingmi, — dedi Kalimer qo'lini bir-biriga ishqab. — Bu qari jodugar daydi itlarni yig'ib, ularni miyovlashga o'rgatmoqchi ekan. Bu safar men uning ko'zini ochib qo'yaman. Hoziroq ministrga yozaman.

U tuynukni berkitib, pero, qog'oz, siyohni oldi-da, yozdi:

"Janob ministr!

Bizning hamshaharlarimiz toqat qilib turolmaydigan hodisalar yuz bermoqda.

Jo'xori xola xonim unday qildi, bunday qildi va hokazo".

Tagiga: "Yolg'onning do'sti", deb imzo qo'ydi.

U xatni konvertga solib, uni pochta qutisiga tashlagani yugurdi. Bu kulfatlarning ustiga, Kalimer uyiga qaytib kelayotgan paytida Romoletta bilan Cho'loq mushuk ko'chada to'xtab, shunday bir ish qilmoqchi bo'ldilarki, agar bu ishni qilganlarida ularga Jo'xori xola o'z kitobidan yana o'n bobni o'qib bergan bo'lardi.

Siz Cho'loq mushukning ba'zida oyog'i qichib, devorga biror narsa yozishdan o'zini tiyolmasligini yaxshi bilasiz. Xuddi shu topda u devorga yozayotganida, cho'ntagida jindakkina ham bo'ri boimaganligi uchun Romoletta unga havas bilan qarab turgandi. Ikkalasi ham Kalimerni payqamadilar.

Bularni ko'rgan chaqimchida shubha tug'ildi. U eshik orqasiga yashirinib, Cho'loq mushukning yozuvini o'qidi. U bunday deb yozgan edi:

*Yana bir g'am qirolning
Ko 'zini yoshlaydilar.
Mushuklar endi hurmay,
Miyovlay boshlaydilar.*

Romoletta bilan Cho'loq mushuk hali joyidan jilmas danoq Kalimer uyiga yugurib borib, sevinchi ichiga sig'may ministrga yangi xat yozdi.

"Janob oliylari! Sizga ma'lum bo'lsinki, qirolimizni haqoratlab devorga yozganlar Jo'xori xonimning jiyani Romoletta, ikkinchisi, barcha qonunlarga xilof ravishda, miyovlashga o'rgatmoqchi bo'lib yurgan it. Sizdan va'da qilingan yuz ming soxta pul mukofotni olishimga ishonaman.

Kalimer Veksel".

Cho'loq mushuk shu topda oyog'i yana bir necha millimetr qisqarganini payqadi.

— Oyoqni yedirmasdan yozishning yo'lini topish kerak, — dedi u xo'rsinib.

— Shoshma, — dedi Romoletta, — Esim qursin, unutibman-a! Men shu yaqin orada turadigan bir rassomni taniyman. Uning uyi chordoqda, doim ochiq bo'ladi. Uning oldiga kirib, ozgina yoki bir quti bo'yoq qarz olishing mumkin. Yur, men senga yo'lni ko'rsatib, keyin uyga qaytaman. Jo'xori xolam kechikayotganimdan xavotirlanib o'tirmasan.

SAKKIZINCHI BOB

*Bananito zo'r rassom, biroq
Cho'tkasini otib, ushladi pichoq...*

Shu kuni kechasi rassom Bananitonning uyquasi kelmadi. U taburetkada munkayib, yolg'iz o'zi chordoqda rasmlariga xomush boqib o'tirardi. "Yo'q, butun harakatim behuda. Mening rasmlarimda bir nima yetishmaydi. Agar o'sha narsa bo'lganda, bular nodir asar bo'lardi. Nima yetishmas ekan-a? Gap shunda".

Shu vaqt uning derazasiga Cho'loq mushuk sakrab chiqdi. U uy egasini bezovta qilmaslik uchun derazadan oshib tushmoqchi bo'lib, tomma-tom kelgan edi.

— E, haliveri uxlamas ekan-da, — dedi miyovlab mushuk. — Mayli, shu yerda kutib turaman. Meni befahm ekan deb o'ylashmadi. Hozircha rasmlarini tomosha qilib turaman.

Lekin u rasmlarga tikilib, baqrayib qoldi.

"Menimcha, — o'yladi u, — rasmlarni lof qilib yuboribdi. Agar shunday qilmaganida, ularni ko'rsa bo'lardi. Xo'sh, gap nimada? Oyoqlarni ko'paytirib yuboribdi. Masalan, anavi otning oyog'i o'n uchta. Qarang-a! Mening atigi uchta oyog'im bor... Keyin burnini ham ko'paytirib yuboribdi. Manavi portret uchta burunlik bo'libdi. Asti ana shu janobga o'xshamayman-a, agar shamollab qolsa, birato'la uchta ro'molcha kerak bo'ladi. Iye, rassom bir nima qilmoqchi..."

Chindan ham Bananito taburetkadan turdi.

"Mana bu yerda biroz ko'k bo'yoq yetmayyotganga o'xshaydi, — deb o'yladi u.

- Ha, ha, xuddi ko'k bo'yoq kerak".

U ko'k bo'yoqni taxtachaga siqib, uni hamma rasmlarga: ot oyoqlariga, uchta burunga, qandaydir bir xonimning ko'zlariga (uning har tomonida uchtadan — oltita ko'zi bor edi) surta boshladi.

Keyin u qanday bo'lganini bilish uchun bir necha qadam orqaga chekinib, ko'zini qisib qaradi.

- Yo'q, yo'q, — deya to'ng'illadi u, — gap bunda emasga o'xshaydi. Rasmlar jindek ham o'zgarmadi.

Cho'loq mushuk turgan joyidan bu so'zlarni eshitolma-di, lekin Bananitoning xafa bo'lib, boshini egganini ko'rdi.

"U juda ham xafa, — deb o'yladi Cho'loq mushuk. — Men olti ko'zli xonimning o'mida bo'lishni istamasdim, agar uning ko'zlari xirlashib qolsa, oltita oynakli ko'zoynak olishga to'g'ri keladi, bunday ko'zoynak juda qimmat tursa kerak".

Shu vaqt Bananito boshqa bo'yoq olib, taxtachasiga siqdi-da, xuddi xonada chigirtkadek sakrab, yana rasmlarga surta boshladi.

"Ha, sariq bo'yoq mos tusharkan, — deb o'yladi u, — manavi joyga ozgina sariq yetishmaydi.

"Rasvo bo'ldi, — deb xayolidan o'tkazdi shu topda Cho'loq mushuk, — endi hammasi tuxumning sarigiga o'xshab qoladi".

Bananito bo'lsa taxtacha bilan buyoq cho'tkasini yerga uloqtirdi; g'azablanib ularni oyog'i bilan ezg'ilab, sochini yula boshladi.

"Agar hozir bas qilmasa, — deb o'yladi Cho'loq mushuk, — qirol Jakomonga o'xshab, boshida tuk qolmay-di. Men uni yupatib qo'ysammikin? Battarroq xafa bo'lsachi? Mushuklarning maslahatiga shu vaqtgacha hech kim quloq solmagan edi. Bu ham qiyin. Chunki mushuklarning tiliga hech kim tushunmaydi".

Oxiri Bananito sochini yulishdan to'xtadi.

— Yetar! — dedi u. — Oshxonadan pichoqni olib hamma rasmlarni tilib, qiymalab tashlayman, mendan rassom chiqmas ekan. Bananitoning "oshxonasi" chordoqning burchagida turgan kichkina stoldan iborat bo'lib, ustida primus, kastrulka, tova va bir nechta qoshiq, vilka, pichoq bor edi. Stol derazaga yaqin turgani

uchun Cho'loq mushk o'zini gultuvakning panasiga oldi. U yashirinma-ganda ham baribir Bananito uni ko'rmas edi, chunki uning ko'zi jiqqa yoshga to'lgandi.

"U endi nima qilmoqchi? — dedi o'ziga-o'zi Cho'loq mushuk. — Qoshiqni oldi... E-e! Och qolganga o'xshaydi. Yo'q, qoshiqni qo'yib, pichoqni oldi. Bunisi menga yoqmadi. U birovni, masalan, tanqidchilarni so'ymoqchi emasmikin? U rasmlarining rasvoligiga xursand bo'lishi kerak edi. Ular ko'rgazmaga qo'yilsa, odamlar rostini aytisholmaydi, hamma xo'p nodir asar ekan, deb maqtaydi, u bir talay pul yig'ib oladi".

Cho'loq mushuk shunday xayollar bilan band bo'lgan-da, Bananito stolning tortmasidan qayroq olib, pichoqni qayray boshladi.

— Ustaradek o'tkir bo'lsin. Rasmlarimdan nom-u nishon qolmasin, — dedi u. "U birovni o'ldirishga qasd qilganga o'xshaydi, — deb o'yladi Cho'loq mushuk, — bir urgandayoq o'ng'almaydigan qilmoqchi shekilli. Shoshma, agar u o'zini o'ldirib qo'ysachi? Bu jinoyat yana ham dahshatliroq bo'ladi. Buning albatta biron chorasini ko'rish zarur. Bir sekund ham vaqtni boy bermaslik kerak. Bir zamonlar Rimni g'ozlar asrab qolgan ekan, umidsizlikka tushgan rassomni Cho'loq mushuk asrab qololmaydimi?"

Bizning uch oyoqli kichkina qahramonimiz jon-jahdi bilan miyovlab, xonaga dadil sakrab tushdi. Xuddi shu vaqt eshik lang ochildi-da, chordoqqa harsillab, terlab-pishib, ust-boshini chang va ohak bosgan bir odam kirib keldi... Uning kimligini topingchi!

— Jelsomino!

— Cho'loq mushuk!

— Seni yana ko'rganimdan xursandman!

— O'zimning cho'log'immisan?!

— Ishonmasang, oyog'imni sanab ko'r.

Pichoqni ushlaganicha og'zini ochib qolgan rassomning ko'zi oldida Jelsomino bilan Cho'loq mushuk quchoqlashib, sevinganlaridan o'yinga tushib ketishdi.

Bizning ashulachimizning bunchalik balandga chiqib qolgani, nima uchun ayni shu vaqtda bu xonaga kirib kelgani to'g'risida sizlarga keyingi bobda batafsil hikoya qilaman.

TO'QQIZINCHI BOB

*Jelsominomiz
bo'Imoqchi hofiz.*

Esingizda bo'lsa kerak, Jelsomino yerto'lada ko'mir ustida uxlab qolgan edi. Ochig'ini aytganda, ko'mir ustida yotish noqulay, lekin yoshlar bunga e'tibor bermaydilar. Ko'mir bo'laklarining qirralari biqiniga qattiq botsa ham, Jelsomino uyquni urib, tush ko'rib yotaverdi.

U tushida ashula ayta boshladi.

Ko'p odam uyqusida valdirab chiqadi, Jelsominoning esa qo'shiq aytadigan odati bor edi. Uyg'onganidan keyin hech narsani eslolmasdi. Jelsomino kunduz kunlari uzoq vaqt indamay yurgani uchun ovozi undan qasos olish uchun shunday hazil qilsa kerak. Shu bilan ovoz erkinlikka chiqishiga yo'l bermagan paytlari uchun egasidan qasdini olsa kerak.

Jelsomino uyqusida xirgoyi qilardi, lekin shunga ham shaharning yarmisi uyg'onib ketardi.

Aholi derazalardan mo'ralab, g'azablanardi:

— Kechasi yuradigan qorovullar qayoqda qoldi? Bunga toqat qilib bo'lmaydi, bu mastning ovozi o'chiradigan odam yo'qmi?

Qorovullar u yoqdan bu yoqqa yugurishar, lekin bo'm-bo'sh ko'chalarda hech kimga duch kelmasdilar.

Jelsomino uxlab yotgan podvaldan o'n kilometrcha na-rida, shaharning boshqa bir chekkasida turuvchi shahar teatrining direktori ham uyg'onib ketdi.

— Rosa ajoyib ovozi bor ekanmi! — dedi u. — Bu haqiqiy tenor. Ashula aytayotgan kim bo'ldiykin? Oh, agar men uni jalb eta olsam, odamlar teatrni buzib kirardi. Bu odam meni rosa boy qilardi.

Haqiqatan ham bu shahardagi teatr tushkunlikka uchragan, to'g'risi, butunlay yopilib qolish oldida turardi. Yolg'onchilar mamlakatida ashulachilar oz, lekin ular ham ashulani buzib aytishni ma'qul ko'rishardi. Chunki ular yaxshi ashula aytganlarida, tomoshabinlar: "Akillama it!" deb baqirishardi. Agar yomon aytishsa, tomoshabinlar: "Qoyil, yashavor! Do'st!" deb qichqirishardi. Shuning uchun ham ashulachilar "Qoyil" deb qichqirishlarini ma'qul ko'rib ashulani yomon aytishardi.

Teatr direktori tez kiyinib, ko'chaga chiqdi-da, ovoz kelayotgan tomonni tasmollab, shaharning o'rtasiga yo'l oldi. U ovoz mana shu yerdan kelayapti, deb bir necha bor yanglishganini sizga aytib o'tirmayman.

— Mana shu uyda bo'Hshi kerak, — der edi u har safar, — shubha bo'lishi mumkinmas, ovoz yuqori qavatdagi anavi derazadan eshitilayapti.

U ikki soatdan keyin charchab, holdan toyib, endi qidirishdan voz kechib turganida, Jelsomino uxlab yotgan podvalga kirib qoldi. Zajigalkasining xira yorug'ida bu ajoyib ovozning egasi ko'mir ustida uxlab yotgan bir o'smir ekanini ko'rib, hayron qoldi.

— Agar u uyqusida shunaqa ashula aytsa, o'ngida juda ham qotirvorsa kerak, — dedi teatr direktori qo'llarini ishqab. — Bu o'smir xazina, lekin o'zi buni bilmasa kerak. Bu xazinani men topdim, u mening boyishimga yordam beradi.

U Jelsominoni uyg'otib, o'zini tanishtirdi:

— Men teatr direktori Domisol bo'lami, seni izlab topgunimcha o'n kilometr yurdim. Sen ertaga kechqurun albatta mening teatrimda ashula aytasan. Tur o'rningdan, hozir uyimga borib, ovozingni sinab ko'ramiz.

Jelsomino ko'nmay, uyquasi kelayotganini bahona qildi lekin Domisol ikki kishilik qulay karavotga joy solib berishini aytdi. Shunda Jelsomino, muzikaga ishim

tushmagan, dedi. Domisol bo'lsa, shunday ovozi bor odam nota bilmasa ham bo'laveradi, dedi.

Jelsominoning ovozi bu qulay amkoniyatdan foy-dalangisi kelib qoldi. "Dadil boi, — deb qiziqirdi u egasini. - Ashulachi bo'lg'ing kelardi-ku! Ko'naver, ehtimol shundan omading yurishib ketar".

Domisol bunday tortishuvni bas qilib, Jelsominoning qo'lidan ushladi-da, tashqariga surgab chiqardi. Uyiga kel-ganda u pianinoga o'tirib, uning pardalarini bosdi-da, Jelsominoga buyurdi:

— Ayt!

— Derazalarni ochib qo'ysakmikin? — tortinib so'radi Jelsomino.

— Yo'q, yo'q, qo'shnilarning tinchligini buzgim kelmaydi.

— Nimani aytay?

— Xohlaganingni ayt. Masalan, qishlog'ingda kuylashadigan qo'shiqlardan birontasini aytaqol.

Jelsomino qishlog'ida aytiladigan qo'shiqlardan birini boshladi. U iloji boricha sekin aytar, hozir chil-chil bo'lib ketadigandek zirillab turgan oynalardan ko'zini uzmasdi.

Deraza oynasi sinmadi-yu, lekin qo'shiqning ikkinchi bandini boshlashi bilanoq qandil chil-chil sinib, uy qorong'i bo'lib qoldi.

— Juda soz! — dedi quvonib Domisol. Keyin sham yoqdi. — Juda ajoyib! Qoyilman! O'ttiz yildan beri mana shu uyda tenorlar ashula aytib keladi-yu, birontasi ovozi bilan kofe ichiladigan piyolani ham sindirolmagan edi.

Ashulaning uchinchi bandi oxirlab qolganda, Jelsominoning xavfsiragani bo'ldi — deraza oynalari sinib ketdi. Domisol pianino chalib o'tirgan yeridan irg'ib turib, uni quchoqladi.

— Bolaginam! — deb qichqirdi u shodlikdan yig'lab. — Mening yanglishmaganim rost. Olamda sen yagona, eng ulug' ashulachi bo'lasan!

Muxlislaring avtomobilingning g'ildiraklarini olib qo'yib, qo'lda ko'tarib yurishadi.

— Mening avtomobilim yo'q, — dedi Jelsomino.

— O'nlab avtomobiling bo'ladi! Har kuni yangi avto-mobilli bo'lasan. Menga duch kelganingga shukr qil. Endi menga yana bir qo'shiq aytib ber.

Jelsomino biroz hayajonlandi. Chunki ashula aytgani uchun umrida birinchi marta maqtov eshitishida. U shuhratparast emas edi-ku, lekin maqtov hammaga ham yoqadi-da. U ishtiyoq bilan yana bir ashula aytdi, bu safar ovozini unchalik tutib turmadi ham. U atigi bir-ikki yuqori pardaga chiqishi bilanoq hammayoq to's-to'polon bo'lib ketdi.

Qo'shni xonalarda derazalarning oynalari birin-ketin sinib tushdi, odamlar qo'rqqanlaridan derazalardan ko'chaga boshlarini chiqarib dod solishdi.

— Yer qimirlayapti! Yordam bering! Yordam bering! Uddalaganing qochib qol!

O't o'chiruv mashinalari chinqirib o'tishdi. Ko'chaga odamlar yugurib chiqishdi. Ular uxlab yotgan bolalarini ko'tarib, ashqol-dashqollar ortilgan aravachalarni tortib, shahardan chiqib keta boshladilar.

Domisol bo'lsa quvonchdan o'zini bilmas edi.

— Ajoyib! G'aroyib! Bunaqasi bo'lmagan! — U Jelsominoni o'pa ketdi, tomog'i shamollab qolmasin deb, bo'yniga issiq sharf o'rib qo'ydi, keyin oshxonaga olib kirib, uning oldiga shuncha ovqat qo'ydiki, bu eng kamida o'nta ishsizning qornini to'yg'azishga yetardi.

— Ol, o'g'lim, tortinma, — der edi u. — Manavi tovuq go'shtini oldingga ol — u yuqori pardaga chiqishga yaxshi yordam beradi. Manavi qo'yning oyog'i past tovushda aytayotganingda ovozingni shiralik qiladi. Yeyaver! Shu bugundan boshlab sen mening mehmonimsan. Sen mening eng yaxshi xonalarimdan birida turasan, uning devorlariga namat qoqtiraman, bemalol mashq qilaverasan, hech kim ovozingni eshitmaydi.

Ochig'ini aytganda, Jelsomino ko'chaga chiqib, sarosimaga tushgan aholini tinchitmoqchi yoki juda bo'lmasa o't o'chiruvchilarga telefon qilib, shaharda bekorga yugurib yurmanglar, demoqchi bo'ldi. Lekin Domisol uni shahdidan qaytardi.

— Unday qila ko'rma, o'g'lim. Barcha singan oynalarni to'latib olishadi, hozir o'zingning sariq chaqang ham yo'q. Buning ustiga, seni qamab qo'yishlari mumkin, agar qamab qo'yishsa, ashuladan orttiradigan shon-shuhrating tamom bo'ladi.

— Ovozim agar teatrdan ham bir falokatni boshlasa-chi? Domisol kuldi:

Teatrlar hofizlarning ashula aytishi uchun moslangan. Teatrlar faqat kuchli ovozlargagina emas, bombaga ham bardosh beradi. Endi yotib uxla, men afisha yozdirib, tezroq bosdiraman.

O'NINCHI BOB

*Hofizimiz ashula aytdi,
Teatrni ham it qulatdi.*

Shahar aholisi ertasiga barvaqt uyg'onib, har yerga quyidagi mazmunda afishalar yopishtirilganini ko'rdi: "Bugun ertalab (aniq emas — soat 48 da) Yevropa va Amerikaning eng yirik teatrlarida bir necha bor ashula aytib, sharmanda bo'lib qaytib kelgan itlarning iti, eng yaramas tenor Jelsomino shahar teatrida ashula aytmaydi.

Shahar aholisining kelmasligini iltimos qilamiz.

Biletlar tekinga beriladi".

Albatta, bu afishani o'qib teskari tushunish kerak edi, butun shahar aholisi ham unda yozilganlarning aksini tushundi. "Sharmanda" so'zini "muvaqqafiyat" deb tushunish kerak edi. "Ashula aytmaydi" iborasi, Jelsomino soat 48 da, ya'ni soat rosa 21 da ashula aytadi, degan ma'noni bildiradi.

To'g'risini aytganda, Jelsomino afishada o'zining Amerikada bo'lgan deb yozilishiga qarshi edi.

— Men Amerikaga hech qachon bormaganman, — deya e'tiroz bildirdi u.

— Shunisi kerak, — dedi unga Domisol, — ana shu yolg'on gap o'rniga tushadi. Agar sen Amerikaga borganingda, Osiyoda gastrolda bo'ldi, deb yozishimizga to'g'ri kelardi. Qonun shunday, sen qonunni unut, ashulani unutma.

Kitobxonlarimizning xabari bor, shu kuni ertalab g'oyat tashvishli bo'ldi (qirol saroyiga kiraverishda Cho'loq mushuk yozgan xatni ko'rib qolishgan edi). Kunning ikkinchi yarmida shahar tinchidi, keyin gazetalarda yozilishicha, kech soat to'qqiz bo'lmasidanoq teatr "sahrodek bo'm-bo'sh" bo'ldi, ya'ni tomoshabin tiqilib ketdi.

Teatrga hamma chinakam ashulachining qo'shiqlarini tinglagani kelgan edi. Domisolning teatrga ko'proq odamni jalb qilish uchun lof gaplarni tarqatgani bekor ketmadi.

— Qulog'ingizni bekitish uchun ko'proq paxta olishni unutmang, — deyishardi Domisolning agentlari shaharda izg'ib. — Bu dahshatli tenor, qulog'ingizni kar qilib qo'yadi.

— O'nlarcha quturgan itlarning vovullashini ko'z oldingizga keltiring, dumi kuygan yuzlarcha mushuklarning miyovlashini bunga qo'shing, bu tovushlarning barchasini o't o'chiruvchi mashinaning chinqirig'i bilan aralashtirib ko'rsangiz, Jelsominoning ovozigga o'xshash tovushni eshitasiz.

— Xullas, bu dahshat ekan-da?

— Chinakam dahshat! U teatrdagi ashula aytish o'rniga botqoqlikda qurbaqalar bilan vaqillashsa bo'lardi. Uni suvning tagida boshini chiqarmay aytishga majbur qilish kerak edi; quturgan mushukdek cho'kib ketgani yaxshi.

Odamlar bu gaplarni yolg'onchilar mamlakatidagi boshqa gaplar singari teskari tushunishdi, fahmlagan bo'lsangiz kerak, shuning uchun ham, yuqorida aytganimizdek, konsert boshlanishidan ancha oldin teatrdagi olma tashlasangiz yerga tushmaydigan darajada tomoshabin tiqilib ketdi.

Soat rosa to'qqizda qirol lojasida to'q sariq yasama sochli boshini mag'rur tutib, oliy hazratlari Jakomon Birinchi hozir bo'ldi. Teatrdagilarning hammasi o'rnidan turib, ta'zim qilishdi-da, uning yasama sochiga e'tibor bermaslikka harakat qilib, yana joylariga o'tirishdi.

Ertalabki voqealarga hech kim shama qilmadi, chunki ehtiyotsiz kishilarning gapini yon daftariga yozib olishga tayyor turgan ayg'oqchilar teatrdagi to'lib yotganini hamma bilardi.

Qirolning kelishini sabrsizlik bilan kutib, parda teshigidan qirol lojasini kuzatib turgan Domisol Jelsominoga tayyorlan, degan ishora qildi-da, o'zi muzikachilarning yoniga tushib ketdi. U tayoqchasini qimirlatgan zahoti quyidagi so'zlar bilan boshlanuvchi milliy gimn sadolari yangradi:

*Jakomonga shon-sharajlar
Bizni qildi baxtiyor.*

*To 'q sariq sochlarining
Rangi mangu bo'lsin bor!*

Bunga hech kim kulmadi, albatta; ba'zilarining gapiga qaraganda Jakomon o'shanda biroz qizarinqiragan, lekin bunga ishonish qiyin, chunki yosh ko'rinishga harakat qiladigan Jakomon o'sha kuni kechqurun betiga upani quyuyq chaplab olgan edi.

Jelsomino sahnada paydo bo'lgani zahoti Domisolga qarashli odamlarning ishorasi bilan zalda hushtak va qichqiriqlar eshitildi:

— Jelsominoning keragi yo'q!

— Bu yerdan chiqib ket, it!

— Botqog'ingga bor, qurbaqa!

Jelsomino ana shunday va shunga o'xshash qiyqiriqlarni toqat bilan eshitib turdi, yo'talib, zaidagilaming tinchlanishini kutdi. Keyin programmasidagi birinchi qo'shiqni ayta boshladi. U imkoni boricha mayin ovozda, shu bilan birga, lablarini mahkam jipslab aytdi, hatto uzoqdan og'zini ochmayotganga ham o'xshardi. Bu qadrdon qishlog'ida aytiladigan qo'shiqlardan biri edi. Bu so'zlari biroz kulgili, oddiy hazil qo'shiq edi. Jelsomino uni shunday berilib aytdiki, tez orada zaidagilaming hammasi qo'lga ro'molcha oldi — tomoshabin ko'zyoshini artib ulgurmasdi. Qo'shiq eng yuqori pardada tugadi, shunday bo'lsa ham Jelsomino qattiq aytmadi, aksincha, iloji boricha ovozini mayin chiqarishga harakat qildi. Lekin bu ham foyda bermadi, shipdan qattiq paqillagan ovoz eshitildi — eng nozik shishadan ishlangan o'nta lampochka sinib ketdi. Lekin bu zo'r hushtakbozlikda bilinmay qoldi. Tomoshabinlaming hammasi bir kishidek oyoqqa turib, bor ovozi bilan baqirardi:

— Yo'qol bu yerdan, masxaraboz!

— Ashulangga endi quloq solmaymiz!

— Ashulangni baliqlarga ayt!

Xullas, agar gazetalar haqiqatni yoza olganlarida "Tomoshabinlar nihoyatda xursand bo'ldilar", deb o'qigan bo'lardik.

Jelsomino ta'zim qilib, ikkinchi qo'shiqni boshladi. Ochig'ini aytish kerak, bu safar u biroz qizishib ketdi. Bu qo'shiq unga yoqardi, o'zi ham bu qo'shiqni aytishga ishqiboz edi, tomoshabin zavqlanib tinglardi. Shuning uchun ham, Jelsomino odatdagi ehtiyotkorligini unutib, yuqori pardadan boshladi. Bu bilet ololmay, teatrdan bir necha kilometr narida turgan kishilami xursand qilib yubordi.

U qarsak chalishlarini, yoki aniqrog'i, yanada zo'rroq hushtakbozlik hamda haqoratlamini kutgan edi. Buning o'miga gur kulgi ko'tarildi, Jelsomino hayratda qoldi.

Tomoshabin uni unutganga o'xshardi — hammasi undan o'girilib, bir nuqtaga qarab kulib turardi. Jelsomino ham o'sha tomonga qaragan edi, badani muzlab, nafasi ichiga tushib ketdi. Ikkinchi qo'shiqda parter tepasidagi qandil sinmadi-yu, lekin bundan xunukroq voqea bo'ldi: mashhur to'q sariq yasama soch havoga uchib, qirol Jakomonning boshi ochilib qoldi. Qirol odamlarning nega kulayotganini bilolmay achchig'i chiqib, o'tirgan lojasining suyanchig'ini barmoqlari bilan chala boshladi.

Bechora, o'zi hech nimani payqamadi, boshqalar haqiqatni aytishga Qo'rqishdi. O'sha kuni ertalab xushomadgo'y saroy ahlining tildan ayrilganini hammasi yaxshi bilardida.

Zalga orqa o'girib o'tirgan Domisol hech narsani ko'rmadi. U Jelsominoga uchinchi qo'shiqni boshla, deb ishora qildi.

"Jakomon sharmanda bo'ldi, — deb o'yladi Jelsomino. — Mening boshimga bunaqa kun tushmasin. Bu safar ashulani yaxshiroq aytaman".

U yurakdan berilib, toia ovozda shunday ajoyib ashula aytdiki, og'iz ochishi bilanoq asta-sekin butun teatr qulab tusha boshladi. Dastavval qandillar sinib, o'zini panaga olishga ulgurolmagan ayrim tomoshabinlarning ustiga tushdi. Keyin qirol o'tirgan lojaning bir qavati quladi, lekin Jakomon omadi kelib, teatrdan chiqib ketgan edi. U yuzingga yana upa sepsammikin, deb oynaga qaragan edi, yasama sochi tushib, boshi ochilib qolganini ko'rdi. Aytishlariga qaraganda o'sha kuni kechqurun qirol o'zi bilan teatrga borgan, shu qadar qayg'uli hodisani bildirmagan saroy a'yonlarining tilini kesdirgan.

Jelsomino ashulasini to'xtatmadi, tomoshabinlar teatrdan qochib chiqa boshladi. Tepadagi so'nggi o'tirar joylar qulab tushganida, zalda faqat Jelsomino bilan Domisol qolgan edi. Jelsomino ko'zini yumib, hamon ashula aytardi, u teatrdan turganini ham, o'zini ham unutib qo'ygan edi, faqat qo'shiq aytib, maza qilayotganinigina bilardi. Domisol bo'lsa ag'rayib qolgan edi. U bo'lgan hodisani ko'rib, jon-jahdi bilan sochlarini yula boshladi.

— Yo rabbiy, teatrim! Xarob bo'ldim, ado bo'ldim! Teatr oldidagi maydonda turgan odamlar:

— Yasha! Yashavor! — deb qichqirishardi.

Bu safar "Yashavor" so'zini shunday aytishdiki, qirol Jakomonning soqchilari bir-biriga qarab, shivirlashib qo'yishdi:

— Bilasanmi, ular ashula yoqmagani emas, boplab aytganiga "yashavor" deyishyapti.

Jelsomino ashulani baland pardada tugatgan edi, teatr vayronalari qorishib, chang-to'zon ko'tarildi. U Domisolning dirijyor tayoqchasi bilan do'q urib, singan g'isht uyumlari ustidan oshib, o'ziga yaqinlashishga urinayotganini ko'rdi.

"Men ashulachi bo'lolmas ekanman, — deb o'yladi Jelsomino xafa bo'lib. — Bu yerdan eson-omon jo'nab qolishim kerak".

U devor yorig'idan may donga chiqib oldi. U yerda yengi bilan aftini bekitib, odamlarga qo'shilib ketdi, kimsasiz ko'chaga o'tib shunday yugurdiki, har qadamda oyog'ini sindirib olishi hech gap emas edi.

Lekin Domisol uni ko'zdan yo'qotmay, qiyqirib quva ketdi:

— To'xta, yapamas! Teatrimni to'lab ber! Jelsomino tor ko'chaga burilib, birinchi duch kelgan yo'lakka o'zini urdi-da, harsillab, zinadan xuddi chordoqqa chiqib qoldi. U eshikni itarib Cho'loq mushuk derazadan sakrab tushgan bir paytda Bananitoning ishxonasida paydo bo'ldi.

O'N BIRINCHI BOB

*Rasmlarni jonli chiqazmoq uchun
Lozimdir haqiqat va talant kuchi,*

Jelsomino bilan Cho'loq mushuk bir-biriga boshdan kechirganlarini shoshib-pishib hikoya qilayotganini ko'rgan Bananito og'zini ochib, anqayib qoldi. U qo'lga pichoqni nima maqsadda olganini ham unutib qo'ygandi.

— Pichoq bilan nima qilmoqchi edingiz? — deb tashvishlanib so'radi Cho'loq mushuk.

— Xuddi ana shuni o'zim ham eslolmay turuvdim, — deb javob berdi Bananito. Xonasiga ko'z yugurtirib chiqsa, yana ruhi tushib ketishi turgan gap edi. Kitobimizning to'qqizinchi bobida yozilganidek uning rasmlari rasvo edi.

— Bilishimcha, siz rassomga o'xshaysiz, — dedi voqeaga hali tushunib yetmagan Jelsomino hurmat bilan.

— O'zim ham shunday deb o'ylardim, — dedi xafalik bilan Bananito, — o'zimni rassom hisoblardim. Lekin kas-bimni o'zgartirib, iloji boricha kam bo'yoq ishlatiladigan hunar topsam tuzuk bo'lardi. Masalan, go'rkov bo'lsam, ishim faqat qora bo'yoqqa tushardi.

— Lekin, mozorda ham gullar o'sadi, — dedi Jelsomino. — Yer yuzida sidirg'a qora, nuqul qora narsa bo'lmaydi.

— Ko'mirchi? — dedi Cho'loq mushuk.

— Agar u yoqilsa, qizil, oq, ko'k alanga beradi.

— Qora siyohchi, unda qoradan boshqa narsa yo'q.

— Qora siyoh bilan turli hamda qiziqarli tarixlarni yozish mumkin.

— Yengildim, — dedi Cho'loq mushuk. — yaxshi ham bir oyog'imni garovga qo'ymadim, bo'lmasa ikki oyoqli bo'lib qolar ekanman.

— Xullam, o'zinga biror ish toparman, — dedi xo'rsinib Bananito.

Jelsomino xonada yurib, Cho'loq mushukni hayratga solgan uch burunli kishining rasmi oldida to'xtadi.

— Kim bu? — deb so'radi Jelsomino.

— Saroydagi amaldorlardan.

— Baxtli odam ekan! U uchta burun bilan barcha hid-larni uch baravar ortiq sezsa kerak.

— E, buning tarixi katta. U, rasmimni ishlab ber, lekin burnimni albatta uchta qilib chizasan, dedi. Biz uzoq tortishdik. Men, odatdagidek, bitta burun chizmoqchi bo'ldim. Keyin juda bo'lmaganda ikkita burunga rozi bo'ldim. Lekin, u oyog'ini tirab turib oldi. Uchta burun chizsang xo'p, bo'lmasa portretning keragi yo'q, dedi. Mana endi nima bo'lganini ko'rayapsizmi? Kezi kelganda injiq bolalarni qo'rqitadigan badbashara narsa chiqdi.

— Manavi otchi, — deb so'radi Jelsomino, — u ham saroy a'yonlaridanmi?

— Ot deyapsizmi? Buning sigirligini ko'rmayapsizmi? Jelsomino qulog'ining orqasini qashidi.

— Ehtimol bu sigirdir, lekin menimcha, otga o'xshaydi. To'g'risi, uning o'n uchta emas, to'rtta oyog'i bo'lganda, otga o'xshagan bo'lardi. O'n uchta oyoq uchta otning rasmiga yetib, yana bittasi ortib qoladi.

— Lekin, sigirlarning oyog'i o'n uchta bo'ladi, — deb e'tiroz bildirdi Bananito. — Buni har bir o'quvchi biladi.

Jelsomino bilan Cho'loq mushuk uh tortib, bir-biriga qarashgan edi, ikkalasi ham ko'zlaridan bir xil ma'noni angladilar: "Agar u yolg'onchi mushuk bo'lganida biz uni miyovlashga o'rgatib qo'ygan bo'lardik. Bu bechorani nima qila olamiz?"

— Menimcha, — dedi Jelsomino, — bir necha oyoqni olib tashlaganda rasm ancha chiroyli bo'lardi.

— Boshqa gapingiz yo'qmi? Hamma mendan kuladi, tanqidchilar bo'lsa, meni jinnixonaga o'tqazib qo'yilsin, deyishadi. Pichoqni nega olganim esimga tushdi. Men hamma rasmlarimni qiymalab tashlamoqchi edim, hozir aytganimni qilaman.

Rassom yana pichoqni olib, g'azab bilan o'n uch oyoqli sigir deb atalmish otga yaqinlashdi. U qo'lini ko'tarib, pichoqni o'qtaldi-yu, lekin shashtidan qaytgandek bo'ldi.

— Necha oylab mehnat qilganman! — dedi uh tortib u. — O'z qo'ling bilan yakson qilishing juda og'ir.

— Bu gapga qoyilman, — dedi Cho'loq mushuk. — Yondaftar olganimda, esimdan chiqib qolmasligi uchun uni yozib qo'yaman. Rasmni tilib tashlashdan oldin Jelsominoning aytganlarini qilib ko'rsangiz bo'lmaydimi?

— To'g'ri! — dedi Bananito. — Mendan nima ketadi? Rasmni xohlagan paytimda tilib tashlashim mumkin.

U ustalik bilan bo'yoqlarning bir qismini qirib, o'n uchta oyoqdan beshtasini o'chirdi.

— Menimcha ancha yaxshi bo'lganga o'xshaydi, — deb dalda berdi unga Jelsomino.

— O'n uchtadan beshni olsak, sakkizta qoladi, — dedi Cho'loq mushuk. — Agar rasmda ikkita ot bo'lganida bu juda mos tushardi. Kechirasiz, men ikkita sigir demoqchi edim.

— Yana bir necha oyoqni o'chirsammikan-a? — deb so'radi Bananito. Keyin javob kutmasdan, yana ikkita oyoqni qirib tashladi.

— Dadilroq... Dadilroq!.. — dalda berdi Cho'loq mushk. — Ko'ngildagidek chiqayapti.

— Xo'sh, endi qanday bo'ldi?

— To'rtta oyoqni qoldirib ko'ringchi, qani nima boiarkin.

To'rtta oyoqni qoldirganda otning sho'x-sho'x kishnashi eshitildi-da, shu topdayoq u rasmdan yerga sakrab tushib, xonada yengil yo'rg'aladi.

— Uh, juda soz bo'ldi-da! Men o'zimni ancha yengil his qilyapman. Rasmda juda qisilib yotgan edim.

U devorda osig'liq turgan kichkina oyna oldiga kelib, o'zini boshdan oyoq toblab ko'rdi-da, mamnunlik bilan kishnadi:

— Chiroyli ot! Chindan ham go'zal ot bo'libman! Janoblar, sizlarga qanday minnatdorchilik bildirishni bil-may turibman. Agar mening yurtimga borib qolsangiz, men sizni rosa sayr qildiraman.

— Qaysi yurtga? Hoy, shoshma, to'xta! — deb qichqirdi Bananito.

Lekin ot eshikdan chiqib-tushiladigan zinaga yctib qolgan edi. U yuqoridan pastki qavatlariga tushib borayotganda to'rttala tuyog'ining taqillab urilishi eshitildi. Birozdan so'ng do'stlar deraza oldida turib, tor ko'cha orqali shahar chekkasiga yo'l olgan mag'rur jonivorni ko'rdilar.

Bananitoni hayajonlanganidan ter bosdi.

— Haqiqatan ham, — dedi u o'ziga kelib, — bu xuddi otning o'zginasi. O'zi shunday deganidan keyin men unga ishonishim kerak. Qarang-a, maktabda uning rasmini ko'rsatib, meni harfini aytishga o'rgatishgan edi. Sigir!

— Davom etdiring, to'xtamang, — deb miyovladi qiziqib ketgan Cho'loq mushuk, — boshqa rasmga o'taylik.

Bananito o'rkachi bir talay tuyaga yaqinlashdi. Uning o'rkachi shuncha ko'p ediki, cho'ldagi qum barxanlarini eslatardi. Bananito o'rkachlarni qirib, ikkitasini qoldirdi.

— Yaxshi chiqyapti, — dedi u shoshib-pishib ishlarkan. — Bu rasm ham epaqaga kelib qoldi. Siz nima deysiz, bu ham tirilib qolarmikin?

— Agar ko'ngildagidek chiqsa, tiriladi, — dedi Jelsomino.

Lekin hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Tuya avvalgidek rasmda miq etmay, beparvo turaverdi.

— Dumlari-chi! — deb qichqirdi birdan Cho'loq mushuk. — Dumi uchta! Bir necha tuyaga yetadi bu dumlar.

Ortiqcha dumlar ham o'chirilganda, tuya ulug'vorlik bilan rasmdan tushib, yengil nafas oldi-da, Cho'loq mushukka minnatdorlik bilan qarab qo'ydi.

— Dumni esgasolganingjuda yaxshi bo'ldi! Umrbo'yi shu chordoqda qolib ketamanmi, deb qo'rquvdim. Yaqin atrofda cho'l bormikin, bilmaysizlarmi?

— Shaharning qoq o'rtasida bir cho'l bor, — dedi Bananito. — Shahar cho'li, lekin hozir berk bo'ladi.

— U shahar istirohat bog'i, demoqchi, — tushuntirdi tuyaga Cho'loq mushuk.

— Haqiqiy cho'l bu yerdan ikki-uch ming kilometr uzoqda. Lekin politsiyaga duch kela ko'rma, hayvonot bog'iga qamab qo'yishadi.

Ketishdan oldin tuya ham o'zini oynaga solib ko'rdi-da, chiroyli ekanman, deb qo'ydi. Tezda u ham lo'killab, tor ko'chadan o'tdi. Uni ko'rgan tungi qorovul ko'zlariga ishonmay, tush ko'rayotgan bo'lsam kerak, deb o'zini qattiq chimchilay boshladi.

— Qarib qolganga o'xshayman, — dedi u tuya ko'zdan g'oyib bo'lganda. — Endi qorovullik vaqtimda ham uxlab qolayapman, tushimda Afrikada yurib-man. Ehtiyot bo'lmasam, ishdan haydab yuborishadi.

Endi Bananitoni xavfi ham, imzosiz xatlar ham ishdan qaytarolmasdi. U bir rasmdan ikkinchisiga o'tar, ortiqcha joylarini qirib, shodlik bilan qichqirardi:

— Mana buni haqiqiy jarrohlik desa bo'ladi. Men o'n minutda professorning o'n kunda qiladigan operatsiyasidan ko'proq ish qilib qo'ydim.

Rasmlar yolg'ondan xoli bo'lganda (ularning yolg'on tomoni ko'p edi) haqiqatan ham go'zallashib, xuddi rostakamday jonlanib ketardi. Itlar, qo'ylar, echkilar rasmdan sakrab tushib, baxt izlab, dunyo kezgani, agar mushuklar bo'lsa sichqon ovlagani yo'lga tushardi. Bananito faqat bitta rasmni tilib tashladi. U ham bo'lsa uch burunli bo'lishni orzu qilgan saroy amaldorining surati edi. Haqiqatan ham saroy amaldorining burni bitta bo'lib qolsa, u rasmdan tushib, buyrug'ini buzgan rassomning ta'zirini berish xavfi bor edi. Portretni burdalashga Jelsomino ham yordamlashdi.

Shu vaqtda Cho'loq mushuk nimanidir izlab, u yoqdan bu yoqqa yurardi. Lekin uning xafa ko'rinishidan omadi kelmaganligi bilinib turardi.

— Otlar, tuyalar, saroy amaldorlari bor ekan-u, — derdi u ming'irlab, — hatto pishloqning uvog'i ham ko'rinmaydi. Sichqonlar ham chordoqdan o'zini olib qochib yuradi. Qashshoqlikning hidi hech kimga yoqmaydi. Ochlik zahardan battar.

U qorong'i burchakni titkilab, chang bosib yotgan rasmni topdi. Uning orqasiga mingoyoq o'rnashib olgan edi, u xavfni sezib, o'zining ming oyog'ida qochib qoldi.

Rasm faqat juda e'tibor bilan tikilgandagina noz-ne'mat to'la stolni eslatardi. Masalan, taqsimchada g'alati maxluq tasvirlanib, agar uning ikkita oyog'i bo'lganda pishirilgan tovuqqa o'xshatish mumkin edi. Lekin uning shu qadar oyog'i ko'p ediki, mingoyoqni eslatardi.

"Mana shu rasmda tasvirlanganni men turmushda ham ko'rishni istardim, — deb o'yladi Cho'loq mushuk.

—Tovuqning yigirmata oyog'i bo'lsa, butun oila, oshxona egasi, hatto och mushuk ham rosa maza qilardi-da! Anchagina oyoqni olib tashlash zarur. Lekin qolgani ham uch kishining tamaddisiga yetadi".

U rasmni Bananitoga olib kelib, pichoqni ishga solishni so'radi.

— Tovuq pishirilgan-ku, — deb e'tiroz bildirdi Bananito, — Uni tiriltirib bo'lmaydi!

— Bizga ham tirigi emas, xuddi pishirilgani kerak, — deb javob qildi Cho'loq mushuk.

Bunga rassom gap topolmadi. Buning ustiga u rasmga berilib ketib, kecha kechqurundan buyon ovqatlanmagani-ni esladi.

Tovuq tirilmadi-yu, lekin hozirgina qozondan olingandek bug'lanib, hidi dimoqqa urib rasmdan tushdi.

— Rassom sifatida sen katta muvaffaqiyatga erisha-san, — dedi Cho'loq mushuk ochko'zlik bilan tovuq qanotini tortqilab (ikkita oyog'ini u Jelsomino bilan Bananitoga qoldirdi), — oshpaz sifatida senga teng keladigan odam yo'q.

— Ozigina vino bo'lsa soz bo'lardi, — dedi Jelsomino ovqatga qo'l cho'zib, — lekin hozir hamma do'konlar berk bo'lsa kerak. Agar ochiq bo'lganda ham baribir pulimiz yo'q.

Shu topda Cho'loq mushukning miyasiga bir fikr kelib qoldi, buni u Bananitoga aytdi:

— Hozir bir katta shisha to'la, hech bo'lmasa kichkina shishada vinoning rasmini chizsang bo'lmaydimi?

— Urinib ko'raman, — dedi rassom ilhomi qaynab. Bananito bir shisha "Kyanti" vinosining rasmini chizdi.

U bo'yab bo'lganda, vino shunday ajoyib chiqdiki, agar Jelsomino o'sha zahoti shishaning og'zidan ushlab qolma-ganda, rasmdan chizillab otilib chiqayotgan vino yerga to'kilib, tamom bo'lardi.

Uchala do'st rassomchilik, ajoyib qo'shiq va mushuklarning sog'lig'i uchun ichishdi.

Lekin oxirgi qadah ko'tarilganda Cho'loq mushuk birdan xafa bo'lib qoldi. Nima bo'lganini ayt, deb ancha qistashga to'g'ri keldi.

— Axir, — deb gap boshladi u, — yarim soat oldin rasmda turgan haligi jonivorlarga o'xshash men ham hali rostakam mushuk emasmanda. Mening atigi uchta oyog'im bor. Men hatto to'rtinchi oyog'imdan urushda ajralganman yoki tramvay bosib ketgan, deb ham aytolmayman. Alday olmayman. Mana, agar Bananito...

Shuning o'zi ham tushunarli edi. Rassom qo'lga bo'yoq cho'tkasini olib, birpasda boplab mushukka oyoq chizdi. So'ng qizig'i, oyoq o'z joyiga darrov mos tusha qoldi. Cho'loq mushuk xonada avval yangi oyog'ini ayab, keyin dadil yura boshladi.

— Juda ajoyib ish bo'ldi! — deb miyovladi u. — Men o'zimni tamoman boshqacha sezyapman. Men shu qadar o'zgarib ketdimki, nomimni boshqacha qo'ygim kelyapti.

— Eh, kalla! — dedi shu topda Bananito peshonasiga urib. — Men oyog'ingni moyli bo'yoq bilan ishlab qo'yib-man, boshqa oyoqlaring bo'rda chizilgan-ku.

— Zarari yo'q, — dedi Cho'loq mushuk, — shun-dayligicha qolaversin. Jonidan umidi yo'qlargina bu oyog'imga tegadi. O'zimning eski nomimni ham o'zgartir-mayman. Agar o'ylab ko'rilsa, bu nom mcnga juda ham mos. Dcvorga yozganimdan keyin oldingi oyog'im kamida yarim santimetr yeyilib ketgan-ku.

Shu kechasi Bananito qanday bo'lmasin karavotini Jelsominoga berishga qaror qildi, o'zi bo'lsa yerga eski lat-talarni solib yotdi. Cho'loq mushuk Bananitoning eshik oldida osig'liq turgan paltosining cho'ntagiga kirib olib, yaxshi-yaxshi tushlar ko'rib uxladi.

O'N IKKINCHI BOB

*"Namunali yolg'onchi" gazetasini o'qib,
Mushuk ko'p xafa bo'ldi, yig'ladi ham.*

Bananito ertalab barvaqt bo'yoq cho'tkasini va bo'yoqlarini olib, ilhomlangan holda uydan chiqdi. U o'z hunarini ko'rsatishga oshiqardi. Jelsomino uxlab yotardi. Cho'loq mushuk rassomni kuzatgani chiqdi, yo'lda unga bir qancha yaxshi maslahatlar berdi...

— Gullarning rasmini chizib sot. Bu g'alati mamlakat-da ishlatiladigan bir talay soxta pullar bilan cho'ntagingni to'latib qaytishingga ishonaman. Hali bu oyda ochilmaydigan gullarning rasmini chiz, chunki shu kunda ochilgan gullarni gulchilardan sotib olishadi. Yana bir maslahat: sichqonlarning rasmini chiza ko'rma, ayollami qo'rqitib yuborasan. Bu gaplarni sening foydangni ko'zlab aytyapman. Menga-ku, sichqonlar juda yoqadi-ya.

Cho'loq mushuk Bananito bilan xayrlashgach, gazeta sotib oldi. Jelsomino o'z konserti haqida yozilganlarni o'qib, xursand bo'ladi, deb o'yladi. Gazetaning nomi "Namunali yolg'onchi" ekan, uning hamma betlari yolg'on dalil va xabarlar bilan to'lgani shundan ham ma'lum.

Masalan, gazetada "Chopog'on Persikettining katta g'alabasi" sarlavhali maqola bor edi. Unda bunday deb yozishibdi:

"Qop kiyib chopishda nom chiqargan chempion Flavio Persiketti mamlakat atrofi bo'ylab yugurib, o'ninchi etap-da g'alaba qozondi. Undan yigirma minut keyin kelgan Romolo Baroni ikkinchi, o'tiz minut-u o'n besh sekund keyin kelgan Pyero

Klementini uchinchi o'rinni egalladilar. Chopog'onlar ichida g'olibdan bir soat keyin kelgan Paskuallino Balzimelli finishga yetib qolganda oldinga o'tib oldi".

"Nima qizig'i bor? — deb so'rarsiz. — Qop kiyib yugurish ham barcha sport musobaqalariga o'xshagan. Mototsikl yoki avtomobil poygasidan ko'ra buni tomosha qilish qiziqroq-ku". Bu to'g'ri, lekin "Namunali yolg'onchi" gazetasini o'quvchilar hech qachon va hech qayerda qop kiyib yugurish musobaqasi o'tkazilmaganligini yaxshi biladilar. Flavio Persiketti, Romolo Baroni, Pyero Klementini, Paskuallino Balzimelli va boshqa chopog'onlar umrida qopga tushmagan. Ular bir-birini quvib o'tishni yoki finishga yetib qolganda oldinga o'tib olishni tushida ham ko'rmagan.

Aslida shunday edi. Har yili gazeta qop kiyib yugurish musobaqasi o'tkazardi. Unda hech kim hech qachon qatnashmasdi. O'z nomini gazetada chiqarishga ishqiboz bo'lgan ba'zi shuhratparastlar yugurishda qatnashdi, deb yozishlari uchun haq to'lar, uni g'olib deb hisoblashlari uchun har kuni ma'lum miqdorda pul berib turardilar. Kim ko'p pul bersa o'sha g'olib deb e'lon qilishar edi. Gazetada uni maqtash uchun so'zni ayamadan, goh "qahramon", goh "eng usta chopog'on" va hokazolar deb yozaverardi. G'alaba pulning tushumiga bog'liq edi. Pul kamroq tushgan kunlarda gazeta o'ch olish uchun komanda yo'lda mudrab qoldi, mashhur chopog'onlar va oddiy sportchilar ishyoqmaslik qildilar, bu uyat, chempion Persiketti va Baroni tomoshabinlarning hurmatiga sazovor bo'lishni istasalar, keyingi etapda g'ayrat ko'rsatishlari kerak, deb yozardi.

Janobi Persiketti shirapazlik fabrikasining egasi bo'lib, uning nomi gazetada chiqsa, pirojniylarining bozori chaqqon bo'lardi. Uning puli ko'p bo'lgani uchun ko'pincha boshqalardan oldin yetib kelardi. Go'yo finishda uni "o'pib tabriklashardi", ishqibozlari esa "kechalari uning derazasi tagida qo'shiq aytishardi". Gazetada ana shunga o'xshash so'zlar yozilardi. Hatto childirma chalish ham qo'lidan kelmaydigan ishqibozlar esa aslida o'z uylarida bermalol xurrak otib yotishardi.

O'sha betda Cho'loq mushuk "Korneliy ko'chasida hech qanday halokat yuz bergani yo'q. Besh kishi o'lmadi, yana o'ntasi sira ham yarador bo'lmadi", deb yozilgan salavhani o'qidi.

Maqolada bunday deyilardi: "Kecha Korneliy ko'chasi-dan o'n kilometrcha yurilgach, qarama-qarshi tomondan qattiq tezlikda kelayotgan ikkita mashina sira to'qnashmadi. To'qnashuv bo'lmagani uchun besh kishi o'lmadi (nomlari ko'rsatiladi). Boshqa o'n kishi yarador bo'lma-ganligi uchun ularni kasalxonaga yotqizishga hojat bo'lmadi (nomlari ko'rsatiladi)". Afsuski, bu xabar uydirma emas, teskari ma'no bildirardi, chindan ham ro'y bergan hodisa faqat teskari bayon qilingan, xolos.

Jelsominoning konserti haqida ham shunday xabar bor edi. Masalan, unda "Mashhur tenor konsertning boshidan oxirigacha og'iz ochmadi", deb yozilibdi. Shuningdek, gazetada vayron bo'lgan teatrning surati ham berilibdi. Uning tagiga bunday deb yozishibdi: "Gazetxon qulog'i bilan ko'rib turibdiki, teatrga hech narsa bo'lgani yo'q".

Jelsomino bilan Cho'loq mushuk "Namunali yolg'onchi" gazetasini o'qib rosa kulishdi. Gazetada adabiyot sahifasi ham bor ekan, unda mana bu she'rni bosib-shibdi:

*Veronalik bir oshpaz
Ko 'ngil ochay deb birpas,
Qarg'aga shunday dedi:
"Og 'zing to 'ldirsang edi
Tosh bilan, bo 'lur rohat,
Maza qilarsan faqat.
So 'ng qo 'lingga bolg'a ol,
Tishlaringga bemalol
Ursang ham rohatijon.
Sinab ko 'r, qarg'a polvon "*

— Bunda qarg'aning nima deb javob bergani yozilmab-di, — dedi Cho'loq mushuk. — Lekin men uning qag'illa-ganini tasavvur qilayapman — butun olamga eshitingandir.

So'nggi betdagi keyingi ustunning tagida "Raddiya" sarlavhali xabarcha bor edi. Jelsomino uni o'qidi:

"Bugun kechasi soat uchda Quduq ko'chasida Jo'xori xola bilan uning nabirasi Romolettani politsiya qamoqqa olganligi qafiy rad etiladi. Ma'lumki, ba'zi kishilar umid qilganidek, ular ertalab soat beshlarda jinnixonaga joylashtirilganlari yo'q". Xabarning tagiga: "Politsiya boshlig'i" deb yozib qo'yilibdi.

— Yolg'onchilar boshlig'i! — dedi Cho'loq mushuk. — Bechoralar chindan ham jinnilarga qo'shib qa-malibdi-da. Bu mening aybim bilan bo'lganiga ishonaman.

— Bunga qara, — deb uning gapini bo'ldi Jelsomino. — Manavini o'qi. Yana bitta raddiya bor ekan.

Endi gap Jelsomino haqida borardi:

"Mashhur tenor Jelsominoni politsiya qidirib yuribdi, degan gaplar sira to'g'ri emas. Bunga hech qanday sabab yo'q, chunki Jelsomino shahar teatriga yetkazilgan zararga javobgar emas. Shuning uchun ham Jelsominoning turgan joyini bilgan kishilar buni politsiyaga xabar qilmasinlar, aks holda ularning adabi berib qo'yiladi".

— Ahvol chatoq, — dedi Cho'loq mushuk. — Yaxshisi sen bu yerdan jilma, men borib, yangiliklarni bilib kelaman.

Jelsominoning uyda bekor o'tirgisi kelmasdi, lekin Cho'loq mushukning to'g'ri gaplariga e'tiroz bildira olmadi. Unga javob berdi-da, o'zi karavotga yotib, chidam bilan butun kunni bekor o'tkazishga kirishdi.

O'N UCHINCHI BOB

*Yolg'onchilar mamlakatida odat:
Rost gapirganjinni sanalur bar vaqt.*

Biz Jo'xori xolani mushukchalarining dastlabki miyovlashlarini eshik oldida tinglab turganidan buyon ko'rganimiz yo'q. O'shanda u Betxovenning ko'p yillardan beri nashr qilinmay stol tortmasida qolib ketgan simfoniyasini topgan muzikachidek xursand bo'lgan edi. Biz Romoletta bilan rassom Bananitoning chordog'iga chiqiladigan yo'lni Cho'loq mushukka ko'rsatib, shoshib-pishib uyiga jo'naganida xayrlashgan edik. Xola bilan jiyan Kalimeming xati butun politsiya mashinasini harakatga keltirganidan bexabar tinch uxlab yotishardi. Kechasi soat uchda bu mashinaning bir vzvoddan iborat bir necha vintlari uyga bostirib kirdi-da, keksa xola va qizchani tez kiyinishga majbur qilib, ularni qamoqqa olib ketdi.

Jandarmlarning kattasi qamoqqa keltirganlarni turma boshlig'iga topshirib, yana uxlagani jo'namoqchi edi, lekin uning hamkasabasi rasmiyatchi chiqib qoldi.

— Ikkalovi nima gunoh qildi?

— Kampir itlarni miyovlashga o'rgatibdi, manavi qiz bo'lsa devorga xat yozibdi. Ikkalovi ham xavfli jinoyatchi. Men sening o'rningda bo'lganimda ularni zindonga solib, qo'riqchilarni ko'paytirardim.

— Nima qilish kerakligini o'zim bilaman, deb to'ng'illadi turma boshlig'i.

— Qani, endi ularning o'zidan eshitib ko'raylikchi, nima deyisharkin.

Avval Jo'xori xolani so'roq qilishdi. U qamoqdan qo'rqmadi. Endi yettita mushukchasi asliga kelib, miyovlashni o'rganganida uning quvonchini hech narsa buzolmasdi. Shuning uchun ham u hamma so'roqlarga xotirjam javob qaytardi.

— Yo'q, ular it emas, mushuklar edi.

Bu yerda anchagina mushuklar ham yig'ilib qoldi, ular qisman havasi kelib, qisman achchig'i chiqib vovullashardi. Goh-gohda ularning ba'zilari mushukka ergashib miyovlay boshlardi. It tutuvchilar shu zahotiyuq ularni ushlab, qoplariga solardilar.

To'xtamasdan miyovlayotgan qaysar mushukni daraxtdan tushirish uchun o't o'chiruvchilarni chaqirib daraxtga o't qo'yishga to'g'ri keldi. Shunday qilib

yig'ilganlar daraxtning yonishini ham tomosha qilib, xur sand bo'lishib uy-uyiga tarqashdi.

Natijada yigirmatacha mushukning miyovlagani aniq-landi. Hammasini jinnixonaga olib ketishdi, chunki ular o'zlaricha rost gapirgan edilar-da, shuning uchun ham ularni yolg'onchilar mamlakatida aqlli mushuklar hisoblab bo'lmasdi.

Jinnixonona direktori ularni qayerga joylashtirishni bilmay qoldi. U uzoq o'ylab: "Hammasini Kalimer Vekselning palatasiga joylashtiringlar", — dedi.

Boshiga tashvish orttirishiga sababchi bo'lgan mushukchalarni ko'rib josusning qanday huzur qilishganini tasavvur qiling-a! Oradan ikki soat o'tmas-danoq, u chindan ham aqldan ozib, miyovlay boshladi. U o'zini mushuk hisoblay boshlagani uchun palatadan yugurib o'tmoqchi bo'lgan anqov sichqonni hammadan oldin quvaladi.

Lekin sichqon kovakka kirib ketdi, Kalmerning og'zida uning dumi qoldi.

Cho'loq mushuk ana shu xabarlarni Jelsominoga yetkazmoqchi bo'lib kelayotganida, uning o'z qishlog'ida aytiladigan, boshiga shuncha kulfat solgan mashhur qo'shiqlardan birini kuylayotganini eshitib qoldi.

"Bu safar men to'rtala oyog'imni garovga qo'ya olamanki, Jelsomino uxlab, tush ko'rib yotibdi. Agar men hozir uni tezroq ogohlantirmasam, jandarmlar tutib oladi", — deb o'yladi Cho'loq mushuk.

Uyning oldida bir talay odamlar ashula tinglab turgani-ni ko'rdi. Hammasi ham o'rnidan jilmay, jim turardi. Hatto qo'shnilarning deraza oynalari ba'zida sinib tushsa ham hech kim norozi bo'lmasdi. Ajoyib qo'shiq ularning hammasini sehrlab qo'yganga o'xshardi. Cho'loq mushuk ko'pchilikning orasida hammadek zavq bilan ashula tinglayotgan ikkita yosh ayg'oqchiga ko'zi tushdi. Xabaringiz bor, bularga Jelsominoni ushlab kelish topshirilgan edi, lekin ikkalovida ham bunday maqsad sezilmas-di. Shu topda binoga yana bir to'da jandarmlar yetib keldi. Ularning boshlig'i qamchi bilan odamlar orasidan o'ziga yo'l ochdi. Ko'rinishidan uning qulog'i karga o'xshar, Jelsominoning qo'shig'i unga ta'sir qilmasdi.

Cho'loq mushuk zinalardan yugurib chiqib, chordoqqa chaqmoqdek tez kirdi.

— Tur! Tur! — deb qichqirdi u dumi bilan Jelsominoning burnini qitiqlab. — Tomosha tugadi! Politsiya kelayapti!

Jelsomino uyg'onib jon-jahdi bilan ko'zini ishqalab so'radi:

— Men qayerdaman?

— Hoziroq bu yerdan jo'nab qolmasak, tezda qayerga borib qolishingni aytib berishim mumkin — qamoqqa.

— Men yana qo'shiq aytibmanmi?

— Yur, tomma-tom qochamiz?

— Mushukning gapini gapirasana. Men tomma-tom sakrab yurishga o'rganmaganman.

— Sen dumimni ushlab olasan.

— Qayerga boramiz?

— Harholda bu yerdan uzoqroqqa. Qayerga bo'lmasin borib qolarmiz. — Oldin Cho'loq mushuk chordoqning oynasidan tomga sakrab chiqdi. Jelsomino boshi

aylanib ketmasligi uchun ko'zini yumib, uning ketidan borishdan boshqa chorasi qolmadi.

O'N TO'RTINCHI BOB

*Benvenuto tinib-tinchimas,
Qissasini eshiting birpas.*

Yaxshiyamki bu atrofdagi uylar arining uyasidek zich ekan. Jelsomino Cho'loq mushuk dalda berib turgani uchun ham qiynalмай tomдан tomga sakrab boraverdi. Cho'loq mushukning o'zi tomlarning orasi sal kengroq bo'lishini istardi, o'shanda u sakrab-sakrab rohatlanardi. Lekin to'satdan Jelsomino toyib ketib, qandaydir bir chol gullarga suv quyib yurgan torgina boloxonaga yiqilib tushdi.

— Afv etasiz! — dedi Jelsomino lat yegan tizzasini ishqalab. — Men sizning uyingizga bu tarzda kirib qolishni xayolimga ham keltirmagan edim.

— Iltimos, tashvishlanmang, — deb javob qildi xushmuomalalik bilan chol. — Uyinga kelganingizga xursandman. Biror yeringiz lat yemadimi? Sihat-salomatmisiz?

Cho'loq mushuk tomдан mo'ralab miyovladi:

— Uyingizga kirsam maylimi?

— E, yana bir mehmon kelib qoldi! — dedi quvonib chol. — Keling, keling, bosh ustiga.

Minut sayin Jelsominoning tizzasini shishib borardi.

— Afsus, — deb so'zida davom etdi chol, — o'tirishingizga birorta stulim ham yo'q.

— Agar siz rozi bo'lsangiz uni karavotga o'tqiza qolamiz, — dedi Cho'loq mushuk.

— Hamma gap shundaki, — dedi chol afsuslanib, — mening karavotim ham yo'q.

Hozir qo'shnidan stul so'rab ko'raman.

— Yo'q, yo'q, — dedi shoshib-pishib Jelsomino. — Men yerda ham o'tiraveraman.

— Uyga kiring, — dedi chol, — bemalol polda yotaverasiz, men hozir sizga kofe qaynatib beraman.

Xona unchalik katta bo'lmasa ham ozoda, chiroyli, yarqiragan mebellari bor edi. Unda stol, bufet, shkaflar bo'lsa ham stul va karavotlardan darak yo'q edi.

— Hamma vaqt tippa-tik yurasizmi? — deb so'radi Cho'loq mushuk.

— Ha, shunday qilmasam bo'lmaydi, — deb javob berdi chol.

— Yotib uxlamaysiz hammi?

— Ba'zida tik turib mudrab olaman, bu ham kamdan kam. Haftasiga ikki soatcha.

Jelsomino bilan Cho'loq mushuk bir-biriga qarab qo'yishdi.

— Yana bir afsonachiga duch kelib qoldik.

— So'raganim uchun ayb etmang, yoshingiz nechada? — deb so'radi yana Cho'loq mushuk.

— Anig'ini ayto olmayman. Tug'ilganimga o'n yil boidi, lekin hozir taxminan yetmish besh yoki yetmish olti yoshga borgandirman.

Chol suhbatdoshlarining basharasiga qarab, ularning bunga ishonmayotganini fahmladi. U xo'rsinib gapida davom etdi:

— Bu yolg'on emas. Afsuski, g'ayritabiiy, lekin haqqoniy gap. Istasangiz, kofe qaynaguncha bu voqeani aytib bera qolay. Mening ismim, - dedi u, — Benvenuto. Lekin odatda meni o'tirmaydigan Benvenuto deb atashadi...

Shunday qilib, Benvenuto eski-tuski bilan savdo qiluvchi oilasida tug'ildi. Bunday tetik, sho'x bolani hech kirm umrida ko'rmagan edi. Unga nima deb ism qo'yishni bilmay turganlarida, u yo'rgakdan sakrab turib, xonada yugura boshladi. Kechqurun uni uxlatishdi, ertalab qarashsa, karavot torlik qilib, oyog'i chiqib qolibdi.

— Oilamizga yordam berish uchun uning tezroq katta bo'lgisi kelayotganga o'xshaydi, — dedi dadasi.

Kechqurun uni uxlatib qo'yishganda hech narsa bilinmasdi-yu, ertalab turib qarashsa, kiyimlari kalta, botinkasj tor bo'lib, ko'ylaklari sig'may qolardi.

— Zarari yo'q, — derdi, onasi, — baxtimizga uyimizda latta-putta serob. Men unga yangi ko'ylak tikib beraman.

Benvenuto bir haftada shu qadar o'sib ketdiki, qo'shnilar uning maktabga boradigan payti kelmadimikin, deb gapira boshlashdi. Eski-ruski bilan savdo qiluvchining xotini o'g'lini o'qituvchining huzuriga yetaklab borganida, o'qituvchining jahli chiqib ketdi:

— Nega uni o'qish boshlangan paytda olib kelmadingiz? Hayit yaqinlashib qoldi. Men uni endi qanday qilib o'qishga olaman?

Onasi, Benvenuto endi atigi yetti kunlik bo'ldi, degani-da o'qituvchining yana ham achchig'i chiqdi:

— Yetti kunlik deysizmi? Bu yer, xonim, bolalar yaslisi emas! Olti yildan keyin olib kelsangiz, o'shanda gaplashib ko'ramiz.

Lekin, u sinf jurnalidan boshini ko'tarib Benvenutoga qaragan edi, uning boshqa o'quvchilaridan bo'yi balandligini ko'rди. O'qituvchi uni oxirgi partaga o'tqazib, ikki karra ikki to'rt bo'ladi, deb tushuntira boshladi.

Tushda qo'ng'iroq chalindi, hamma o'quvchilar o'tirgan joyidan sakrab turib, sinfdan chiqish uchun safga tizilishdi. Faqat Benvenuto o'rnidan jilmadi.

— Benvenuto, - deb chaqirdi uni o'qituvchi, - sen ham safga tur!
— Turolmayman, janob o'qituvchi.

Haqiqatan ham u ertalab soat sakkizdan to kunduzi o'n ikkigacha shu qadar o'sib ketibdiki, partaga tiqilib qolibdi. Benvenutoni partadan chiqarib olish uchun maktab qorovulini chaqirishga to'g'ri keldi.

Ertasiga ertalab uni kattaroq partaga o'tqazishdi, lekin tushda Benvenuto yana o'rnidan turolmay qoldi, chunki bu parta ham unga torlik qildi. U xuddi qopqonga tushgan sichqonga o'xshardi. Partani buzish uchun duradgorni chaqirib kelishdi.

— Ertaga beshinchi sinfdan parta olib chiqamiz, — dedi o'qituvchi bo'ynini qashib?
U sinfga eng katta parta keltirishni buyurdi.

— Xo'sh, endi qalay bo'ldi?

— Juda qulay, - deb javob berdi Benvenuto quvonib. U chindan ham qulayligini isbot qilish uchun bir necha marta o'rnidan turib, yana o'tirdi.

Lekin tushda yana qo'ng'iroq chalanganida bu parta ham shu qadar torlik qilib qoldiki, yana duradgorsiz ish bitmadi.

Maktab direktori bilan shahar hokimi norozi bo'la boshlashdi.

- Nima qilyapsiz, janob o'qituvchi? Sinfda tartib o'rnatishni unutib qo'yganingiz yo'qmi? Bu yil partalaringiz payraxadek sinib ketyapti. To'polonchilaringizga ehtiyot bo'lib turing, biz har kuni yangi parta olib berolmaymiz!

Ota o'g'lini shahardagi eng yaxshi vrachga olib borib, bo'lgan voqealarni aytib berdi.

— Ko'ramiz, ko'ramiz, — dedi vrach yaxshiroq ko'rish uchun ko'zoynagini taqib.

U Benvenutoni boshdan oyoq o'lchab chiqdi.

— Endi o'tir, — dedi u keyin.

Benvenuto stulga o'tirdi, doktor bir minutdan keyin unga:

— O'rningdan tur! — dedi.

Benvenuto o'rnidan turganda doktor yana uning bo'yini va ko'kragini o'lchadi.

- Hm, — dedi u ayb ko'zoynakda emasmikin, deb uni dastro'moli bilan artarkan, — yana o'tirchi.

U Benvenutoni bir necha bor o'tqazib-turg'izdi-da, dedi:

- Qiziq hodisa. Bu bola shu vaqtgacha hech kimda uchramagan yangi kasalga yo'liqibdi. Uning kasali bunday: bola o'tirganda nihoyatda tez qartayadi, bir minut bir kunga to'g'ri kelaveradi. Uni qanday davolash kerak? U doimo yurishi lozim, bo'lmasa bir necha haftadan so'ng oppoq soqolli chol bo'lib qoladi.

Vrachning maslahatidan so'ng Benvenutoning hayoti tamoman o'zgardi. Maktabda ham tik turishi uchun unga o'rindiqsiz maxsus parta yasab berishdi, agar uning o'rindig'i bo'lsa, bexosdan o'tirgisi ham kelib qolardi-da. Uyida ham tik turib ovqatlanadigan bo'ldi. Agar pechka yoniga o'tirgudck bo'lsa, shu zahotiyog:

— Hoy bola, menga qara, ertaroq qartayging kelyaptimi? — deyishardi.

Tur o'rningdan, tur, sochlaring oqarib ketsa maylimi?

"Karavotda yotib uxlagandir?" deb so'rarsiz.

Karavotda yotishni xayoliga ham keltirolmasdi, ertasiga oppoq soqol bilan o'rnidan turishni istamas edi-da. Benvenuto otga o'xshab tik turib uxlashga o'rgandi. Shuning uchun ham qo'shni xotinlar uni "o'tirmaydigan yoki tinib-tinchimas Benvenuto" deb atadilar. Umrining oxirigacha nomi shundayligacha qoldi. Tashvishli kunlarning birida dadasi qattiq og'rib, o'lim talvasasida yotardi. Benvenuto, dedi u o'g'liga, hayotdan ko'z yumishidan oldin, endi onangni boqishing kerak bo'ladi. U kcksayib qoldi, ishga yaramaydi, biror halol ish bilan shug'ullan. Mehnat senga malol kelmaydi. Ishlab tursang sira qarimaysan, chunki o'tirishga vaqt topolmaysan.

Ertasiga otasini ko'mib kelganidan so'ng Benvenuto ish qidira boshladi, lekin hamma uni mazax qilib kuldi:

— Ish so'rayapsanmi, o'g'lim? Seningcha, biz bu yerda qo'g'irchoq yoki bekinmashoq o'ynayapmizmi? Sen hali kichkinasan, fabrikada ishlashga yoshlik qilasan.

- Ishlamoqchimisan? Seni ishga olsak bizga shtraf solishadi, bolalarni ishlatish man qilingan.

Benvenuto ularga e'tiroz bildirmadi, lekin bu kulfatdan qanday qutulish kerakligini o'ylay boshladi.

U uyiga borib, oyna oldida o'tirdi.

Doktor, agar o'tirsang tezda qarib qolasan, degan edi. Qani ko'raylikchi, rost gapirganmikin...

U bir necha minutdan key in katta bo'layotganini sezdi — botinkasi oyog'ini qisa boshladi. U botinkasini yechib, ko'zi oldida o'sayotgan oyog'ini kuzatib turdi. Keyin yana oynaga qarab, avvaliga juda hayron qoldi.

- Qiziq, bu menga qarab turgan qora mo'ylovli yigitcha kirm bo'ldiykin? Men uni qayerdadir ko'rganga o'xshayman... — Nihoyat u eslab, kulib yubordi: — Bu mening o'zim-ku! Chindan ham tez o'sibman! Endi oyoqda turishim kerak, qarigim kclmayapti.

Ro'parasida baland bo'yli keng yag'rinli, mo'ylovi jandarmnikiga o'xshash, yo'g'on ovozli yigitchani ko'rib, onasining hayron qolganini tasavvur eta olasizmi?

- Benvenuto, o'g'lim, juda o'zgarib ketibsana!

— Bunisi yaxshi, oyi. Endi ishlay olaman.

U ish qidirib yurmay, otasining saroyda yotgan aravachasini olib chiqdi-da, shahar ko'chalarida:

— Eski-tuski olaman, eski-tuski! — deb qichqirib yurdi.

Uning yoqimli ovozi eshitgan qo'shni ayollar eshikdan mo'ralashardi.

Juda chiroyli yigit ekan! Qayerdانسiz? — deb so'radi ular.

- O'tirmaydigan Benvenuto! Bu sizmisiz?

- Menman, xolajonlar. Hayron boimang. Men stulda o'tirib uxlab qolgan edim, uyg'onsam mo'ylovim o'sib qolibdi.

Shunday qilib, Benvenuto ishlay boshladi. Hamma uni yaxshi ko'rardi. Hamma vaqt tikka yuruvchi, tinchimas, har doim birovlariga yordam berishga tayyor, doimo biror ish bilan band bo'lgan bu yigitchani yaxshi ko'rmay bo'larmidi. Bir safar uni hatto shahar hokimi qilib qo'yishmoqchi bo'lishdi.

— Bizga xuddi senga o'xshagan o'rnida o'tirib qolmaydigan odam kerak...

Lekin Benvenuto bu taklifni rad etdi.

Bir necha yildan keyin onasi ham o'ldi.

"Endi yolg'iz o'zim qoldim, — deb o'yladi Benvenuto. — Baribir beish o'tirolmayman, unda tez qarib qolaman. Yaxshisi, men yo'l yurib, olamda nima yangiliklar borligini tomosha qilay".

Shunday dedi-yu, aytganini qildi. Latta-puttalar ortilgan aravachasini tortib dunyo keza boshladi. U kun-u tun tinmay yurgani uchun ham ko'p narsalarni ko'rib, turli odamlar bilan suhbatlashdi.

— Ajoyib yigit ekansiz! deyishardi ko'pincha unga.

- Birpas o'tiring, biroz gaplashaylik.

— Tik turib gaplshsak ham bo'ladi, — deb javob qilar-di Benvenuto.

U shunday tentib yurib qartaymadi. Bir kuni bechora bir kulba yonidan o'ta turib, shunday hodisani ko'rdiki, yura-gi qisildi — to'shakda kasal ayol yotardi, atrofida bir-biridan qattiqroq yig'lab, bir necha bola o'tirardi.

— Hoy, yigitcha! dedi ayol uni ko'rib. — Agar vaqtingiz bo'lsa birpasga kirib keting. Bolalarimni yupatgani o'rnimdan turolmayman, ularning ko'zyoshi yuragimga o'tkir pichoqdek qadalyapti.

Benvenuto xonaga kirib, bolalardan birini qo'lga oldi-da, u yoqdan bu yoqqa yurib allalay boshladi. Boshqa bolalarni ham shunday qilib tinchitdi. Faqat eng kichigi hech tinchimadi.

Birpas uni ko'tarib o'tiring, — deb iltimos qildi ayol, — agar o'tirsangiz, darrov uxlab qoladi.

Benvenuto pechka yaqinidagi taburetkaga o'tirgan edi, bola shu zahotiy oq tinchidi. Bu nihoyatda chiroyli bola bo'lib, kulganida xona yorishganday tuyulardi. Benvenuto bolani kuldirish uchun turli qiliqlar qildi. Keyin unga qo'shiq ham aytib berdi, bola oxiri uxlab qoldi.

— Chin qalbidan rahmat aytaman, — dedi ayol. -Agar siz bo'lmaganingizda o'zimni o'ldirishga ham tayyor edim, juda xunob bo'lib ketgandim.

— Qo'ying, bunday gaplarni hazillashib ham aytmang, — dedi Benvenuto.

U chiqib ketayotganida devordagi oynaga qaragan edi, sochining bir necha tolasi oqarganini ko'rdi.

"O'tirsam darrov qartayib qolishimni unutilib qo'yibman-a", deb o'yladi Benvenuto. Lekin shu zahotiy oq qaddini rostlab, uxlab yotgan bolalarga so'nggi marta qaradi-da, yo'lida davom etdi.

Boshqa kuni kechasi kichkina qishloq ko'chasidan o'tib ketayotganida derazalarning birida chiroq yonib turganini ko'rdi. Xonada bir qiz ip yigirib o'tirardi. U ish ustida g'amgin xo'rsinib qo'yardi.

- Sizga nima bo'ldi? — deb so'radi undan Benvenuto. Mana, uch kechadan beri mijja qoqqanim yo'q. Men bu ishni ertagacha tugatishim kerak, agar shunday qilmasam, menga haq to'lashmaydi, oilamiz och qoladi. Bundan tashqari, charximni ham olib qo'yishlari mumkin. Hozir men yarim soatgina uxlab olishga bor-yo'g'imni hadya qilardim.

"Yarim soat — atigi o'tiz minut, — deb o'yladi Benvenuto. — Bu qiz uchun ham yarim soat ishlay qolay". Menga qarang, — dedi u, — siz yotib uxlang, men ishingizni davom ettiraman. Charxni aytlantirish qanaqa bo'lishini ko'rmoqchiman. Yaxshi ishlaydigan ixcham charx ekan. Yarim soatdan keyin men sizni uyg'otib qo'yaman.

Qizcha taxtaga yotib, mushukdek darrov uxlab qoldi. Benvenuto charx yoniga o'tirganicha, qizni uyg'otishga jur'at etolmadi. Chunki u har safar qizchaga yaqinlashganida u yaxshi tushlar ko'rib yotganga o'xshab tuyulardi.

Mana, tong ham yorishdi, quyosh ham chiqib, qizcha uyg'otdi.

— Voy-bo', men sizni ishlatib, o'zim kechasi bila dong qotib qolibman!

- Zarari yo'q, zarari yo'q, juda qiziq ish ekan.

- Boshingiz oppoq chang bo'lib ketibdi.

"Bugun necha yosh qartaygan ekanman?" deb o'yladi, Benvenuto. Lekin u bundan xafa bo'lmadi, chunki qizchaga topshirilgan ishni tamomlagan edi, qizcha bo'lsa sevinganidan kulib turardi.

Yana bir marta Benvenuto o'lim oldida turgan baxtsiz bir cholga duch keldi.

- Afsus, - - dedi xo'rsinib chol, - afsuski, bir marta ham qarta o'ynamasdan u dunyoga safar qilyapman. Barcha do'stlarim mendan oldinroq o'lib ketishdi.

— Agar gap shu bo'lsa, — dedi Benvenuto, — men ham qarta o'ynashni bilaman.

Ular o'yinga kirishishdi. Benvenuto tik turib o'ynamoqchi edi, lekin chol unga:

Tik turib qartalarimni ko'rib olmoqchisan. Sen mening kasalligimdan foydalanib yutmoqchiga o'xshaysan, — deb qochirim qildi.

Benvenuto stulga o'tirib, o'yin tamom bo'lguncha o'rnidan turmadi. U shu qadar parishon ediki, qartadan yanglishib, cholga o'yinni yutqazdi. Chol bo'lsa, birovlarining bog'iga nok olgani tushgan yosh bolalardek qo'llarini ishqalab, huzur qilib kuldi.

— Yana o'ynaymiz, — dedi chol sevinib. Benvenuto o'rnidan turmoqchi bo'ldi, chunki bundan kuni, oyi, ehtimol bir yillik umri qisqarardi. Lekin u bechora cholni xafa qilgisi kelmadi. U o'rnidan turmay ikkinchi marta, keyin uchinchi marta o'ynadi. Chol quvonchdan yosharganga o'xshardi.

— Uning yoshi menga o'tdi, — deb xo'rsindi Benvenuto cholning uyidagi oynada o'z aksini ko'rib.

Benvenutoning sochlari qirov bosgandek oqargan edi.

- Hech gapmas. Ehtimol, chol biror marta bo'lsa ham qarta o'ynab yutishni ko'pdan beri orzu qilgandir.

Shunday qilib, bizning Benvenuto biror kishiga yordam qilish uchun o'tirganida sochlari oqaraverdi. Keyin xuddi kuchli shamolda egilgan daraxtdek qomati bukchaydi. Ko'zlari ham ilgarigidek o'tkir emas edi. O'tirmaydigan Benvenuto qartayaverib, bir tola ham qora sochi qolmadi. Uni yaxshi bilgan kishilar:

— Hojat chiqarishingdan nima foyda bor edi? Agar sen o'zingni o'ylaganingda, hozir ham, chumchuqdek sakrab yurarding.

Lekin o'tirmaydigan Benvenuto boshqa fikrda edi. Uning har bir tola oqargan sochi biror yaxshi ishini esiga solardi. Buning uchun xafa bo'lish kerakmi?

Sen umringni birovlarga bag'ishlaganingdan ko'ra, o'zingni ehtiyot qilganing durust bo'lardi, — derdi unga qo'shni ayollar.

Lekin Benvenuto kulib bosh chayqardi, har bir tola oqargan sochi dunyoda yangidan yangi do'stkir, ming-minglab qadrdonlar orttirishga sabab bo'lganini bilardi u. Sizning ham do'stlaringiz ko'pmi? Shuncha do'st orttirishni istarmidingiz?

Shunday bo'lsa ham Benvenuto har yoqqa borar, hassasiga tayanib nafasini rostdash uchun to'xtab olsa ham, charchash nimaligini bilmasdi. U kunlardan bir kuni yolg'onchilar mamlakatiga kelib qoldi, otasi kabi eski-tuski bilan savdo qilib, tirikchiligini o'tkazib yurdi.

— Siz shuncha mamlakatda bo'lib. — dedi Cho'loq mushuk uning hikoyasini bo'lib, - o'zingizga tuzukroq joy topolmadingizmi?

O'tirmaydigan Benvenuto kuldi: - Xuddi shu yerda odamlar yordamga ko'proq muhtoj. Olamda eng baxtsiz mamlakat shu ekan, shuning uchun ham bu yerda qoldim.

— Manavi to'g'ri yo'l! — dedi cholning hikoyasid ta'sirlangan Jelsomino ko'zyoshini artib. — Endi ovozim nima maqsadda ishlatishni bilib oldim. Dunyo kezib hamma narsani vayron qilish o'rniga, ovozim bilan kishiJ, Iarni xursand etishga harakat qilaman.

— Bu ish qiyin, — dedi Choioq mushuk, — agar alla aytadigan bo'lsang, bolalarni uyg'otib yuborasan.

— Lekin uyquda yotgan kisbilarni uyg'otib, ba'zida his qilsa ham bo'ladi, — deb javob qildi Benvenuto muloyimlik bilan.

— Bu masalani men hal qilaman, — dedi Jelsomin polni mushtlab.

— Hozircha, — deb qo'shimcha qildi Cho'loq mushuk, — tizzangni tuzatib olishing kerak.

Haqiqatan ham Jelsominoning tizzasi tobora shishib, o'rnidan turolmay qoldi. U tuzalgunicha Benvenutoning uyida yotadigan bo'ldi. Buning ustiga, o'tirmaydigan Benvenuto sira uxlamasdi, shuning uchun ham Jelsominoning kechasi qo'shiq aytib yuborib, politsiyani xabardor qilib qo'ymasligi uchun unga qarab turadigan bo'ldi.

O'N BESHINCHI BOB

*Qamoqqa olindi rassom shu topda,
Sababini o 'qing mana bu bobda.*

Bananito — u esingizdadir — ertalab baxt izlab uyidan chiqdi. Uning aniq bir maqsadi yo'q edi, faqat kishilarga o'z mahoratini ko'rsatish uchun qanday bo'lmasin rasm ishlagisi kelardi.

Shahardagilar endi uyg'ona boshlagandilar. Qorovullar shlanglar bilan ko'chalarga suv separ, muzdek suv sachrashiga parvo qilmay, velosipedda o'tib ketayotgan ishchilar bilan hazillashib gap otishardi. Betashvish, g'uborsiz payt edi. Bananito yo'lka o'rtasida to'xtadi — miyasiga ajoyib bir fikr kelgan edi. Unga yo'lka atrofida million-million binafshalar ochilib turgandek va shularning hidini sezayotgandek bo'ldi.

— Bu ajoyib fikr! — dedi to'satdan u.

Turgan joyidan jilmay, ro'paradagi fabrika darvozasi oldida yo'lkaga o'tirib, qutichadan rangli bo'yoqlarni chiqardi. Bir necha ishchi darrov uni qurshab olishdi.

— Bas o'ynaymanki, — dedi ishchilardan biri, — u har safargidek yelkanli kema yoki boshidan nur sochib turgan avliyoning rasmini chizadi. Faqat, shapka tishlab, sadaqa yig'ib yurgan iti qani?

Men shunday bir voqeani eshitdim, — dedi boshqasi. — Bir marta qandaydir rassom yerga qizil chiziq chizibdi, atrofida turganlar uning ma'nosiga tushunolmay, bosh qotirishibdi.

— Xo'sh, undan keyin nima bo'libdi?

— Rassomdan so'rashsa, u bunday deb javob beribdi: "Biron kishi chiziq ustidan emas, tagidan o'ta olarmikin, shuni ko'rmoqchiman", debdi. Keyin shlapasini bostirib kiyib, jo'nab qolibdi. Ehtimol esi joyida emasdir.

- Lekin buning esi joyida ekan, — dedi kimdir. — Qarang.

Bananito boshini ko'tarmay, shunday tez rasm chizdiki, uning qo'l harakatini kuzatib ulgurisholmasdi. Yo'lkada uning yaqindagina o'ylagan fikri jonlandi — ajoyib binafshalar o'sib yotgan gulzor paydo bo'ldi. To'g'ri, bu oddiy rasm edi-ku, lekin shu qadar ko'rkamligidan havoga binafsha hidi tarqalgandek bo'ldi.

— Men binafsha hidini sezayapman, — deb shivirladi ishchilardan biri.

— Agar turmaga qamalishni xohlamasang, — dedi uning o'rtog'i, — yaxshisi oshqovoqning hidini sezayapman, degin. Lekin gaping rost, hidi sezilyapti.

Bananitoning atrofida shovqin tindi. Faqat uning yo'lkaga shitirlatib rasm solishi eshitalardi, har bir yangi binafshani chizgan sari havoga ko'proq yoqimli hid taralardi. Ishchilar hayratda qoldilar. Ular nonushta o'ralgan qog'ozlarni u qo'ldan bu qo'lga olishar, velosipedning yeli chiqib ketmadimikin, deb ushlab ko'rganday bo'lishar, lekin Bananitoning harakatidan ko'zni chalg'itmay, yurakka shodlik bag'ishlagan hidni rohatlanib hidlashardi.

Gudok chalindi, lekin ishchilarning birontasi ham o'rnidan jilmadi. "Barakalla!" degan tovushlar eshitilardi. Bananito boshini ko'targan edi, ko'zi tomoshabinlarning ko'ziga tushdi. Ularning boqishida zavqlanish alomatini ko'rib, xijolat tortdi. Bo'yoqlarni shoshib-pishib yig'ishtirdi-da, bu yerdan jo'nab qoldi.

Ishchilardan bin unga yetib olib:

— Nima qilayapsan sen? Nega qochib ketayapsan? Agar yana biroz tursang, yonimizdagi bor pulimizni senga bermoqchi edik. Biz bunday ajoyib rasmlarni umrimizda ko'rmaganmiz, — dedi.

- Rahmat, rahmat! — deb shivirladi Bananito. Yolg'iz qolish uchun ko'chaning narigi betiga o'tdi. Uning yuragi shu qadar qattiq urardiki, kamzulining ichida mushuk bola tipirchilayotganga o'xshardi. Rassom chindan ham baxtiyor edi!

U yana rasm chizishga botinolmay, shaharda uzoq vaqt tentirab yurdi. Miyasiga turli fikrlar keldi, lekin hammasi ham nomuvofiqday tuyulardi.

Shu paytda itga ko'zi tushib, chinakam ilhomlanib ketdi. U miyasiga shu fikr kelgan yerdayoq yo'lkaga cho'nqayib o'tirib, rasm chiza boshladi.

Shunday yo'lovchilar bo'ladiki, ular goh u, goh bu ko'chada, ba'zilari vazifalariga binoan, ba'zilar ishsizlikdan tentib yuradilar. Shundaylardan Bananitoning atrofiga yana bir necha tomoshabin yig'ilib qoldi.

- Buni qarang, mushukning rasmini chizib o'tiribdi-ya! Ko'rgingiz kelgan bo'lsa, busiz ham shahrimizda to'lib yotgan edi-ku.

Bu oddiy mushuklardan emas, — deb javob berdi Bananito quvnoqlik bilan.

Eshitingizmi? U oddiy mushukni emas, ko'zoynakli mushukning rasmini chizmoqchidir.

Bananito itning dumini chizib bo'lgani hamonoq, u to'rttala oyog'ida turib, quvnoqlik bilan vovullay boshlaganda, xuddi sehrlangandek hamma jim bo'lib qoldi. Odamlar ajablanib turganda, bu yerga tezda politsiya yugurib keldi.

— Nima gap? Bu yerda nima bo'lyapti? Ha, ko'rayapman, ko'rdim! To'g'risi, eshitdim: mushuk vovullayapti. Miyovlaydigan itlarimiz kammidi! Bu kimning mushugi?

Odamlar tezda tarqaldi — bu savolga hech kimning javob bergisi kelmasdi. Faqat politsiyachining yonginasida turgan birgina bechora qocholmay qoldi, chunki politsiyachi uning qo'lidan mahkam ushlab olgan edi.

— Ana uning mushugi, — deb shivirladi u Bananitoni ko'rsatib.

Politsiyachi uni qo'yib yuborib, Bananitoni ushladi:

— Hoy, qani bu yoqqa yur!

Bananito uzoq gapirtirmadi. U bo'yoqlarini cho'ntagiga solib, quvnoqlik bilan politsiyachining oldiga tushdi. It bo'lsa dumini gajak qilib, o'z yo'lga ravona bo'ldi.

Bananitoni to politsiya boshlig'i so'roq qilgunga qadar kutib o'tirish uchun yolg'iz xonaga qamab qo'yishdi. Lekin Bananitoning ishlagisi kelib, qo'li qichishardi.

U qushning rasmini chizib, uchirib yubordi, lekin qushcha uning yelkasiga qo'ndi-da, erkalanib qulog'ini cho'qiy boshladi.

— Tushunarli, — dedi Bananito, — qorning ochga o'xshaydi.

U darrov bir necha tariq donasini chizdi. Shunda o'zining ham qorni ochligini esladi.

— Menga ikkita tuxumdan pishirilgan quymoq bo'lsa yetadi. Buning ustidan pishgan shaftoli yesam soz bo'lardi.

U aytgan narsalarini chizgan edi, tezda quymoqning hidi xonaga taralib, eshik tirqishidan qorovulning dimog'iga urildi.

— Hm... Qanday yoqimli! — dedi qorovul bu xushbo'y hidni ketma-ket hidlab. Lekin birdan unda shubha tug'ildi. Eshik tuynukchasini ochib, qamoqxonaga qaradi. Ishtaha bilan quymoq yeyayotgan mahbusni ko'rib, qotib qoldi. U hayron bo'lib turganida politsiya boshlig'i kirib keldi.

— Qoyilman! — deb qichqirdi u g'azab bilan. — Juda soz! Mahbuslarga restorandan ovqat keltirib berayotganga o'xshaymiz!

— Sen emas... Men... — dedi duduqlanib qorovul.

— Sen ustavni bilmaysanmi? Non bilan suv, suv bilan nondan boshqa hech narsa bermaslik kerak!

— Buning qanday bo'lganligini bilolmay qoldim, -deya oldi nihoyat qorovul.

— Ehtimol, tuxumni cho'ntagida olib kelgandir.

— Xo'p, yaxshi, plitani qayoqdan oladi? Mening yo'qligimda qamoqxonada oshxona qurib, yangilik chiqarganga o'xshaysiz.

Lekin shu topda politsiya boshlig'i qamoqxonada hech qanaqa plita yo'qligini ko'rib, ishonch hosil qildi. Buning ustiga, Bananito qorovulni behuda qiynamaslik uchun ovqatni qanday tayyorlaganini aytib berdi.

— Sen meni ahmoq deb o'ylayapsanmi? — dedi boshliq uning gapiga ishonmay. — Agar men senga, oq musallasda pishgan qalqon baliqning rasmini chizib ber, desam nima qilasan?

Bananito indamay bir varaq qog'ozni oldi-da, aytilgan ovqatning rasmini chizdi.

— Kashnichli bo'lsinmi, kashnichsizmi? — deb so'radi u chizaturib.

— Kashnichli bo'lsin, — deb buyurdi boshliq mazax qilib. — Sen haqiqatan ham meni ahmoq deb o'ylayapsan shekilli. Chizib bo'lganingda men ana shu qog'ozni oxirigacha o'zingga yedirtiraman.

Lekin Bananito rasmni chizib bo'lganida oq vinoda pishirilgan qalqon baliqning ishtaha ochadigan hidi anqidi, bir necha minutdan keyin bo'zrayib qolgan boshliq oldidagi stolga bug'i chiqib turgan ovqat qo'yildi. U marhamat, totib ko'ring, deyayotgandek ko'rinardi.

Ishtahangiz yaxshi bo'lsin, — dedi Bananito. — Ovqatga qarang.

Yegim kelmay qoldi, — deb to'ng'illadi boshliq hayratdan o'zini o'nqlab olib. — Baliqni qorovul yesin. Sen men bilan yur.

O'N OLTINCHI BOB

*Bananito ministr bo'ldi,
Ammo uzoq o'tmay quvildi.*

Qorovullarning boshlig'i ahmoq odam emas edi. Aksincha, juda mug'ambir kishi edi.

— Bu odam, — fikr qildi u Bananitoni qirol saroyiga kuzata turib, — o'zining og'irligicha, ehtimol undan ham ko'proq oltinga arziydi. Kattagina po'lat sandig'im bo'lgandan keyin unga bir necha kilo oltinni yashirib qo'ysam nima qiladi? Po'lat sandiqda unga hech kim tegmaydi, sichqonlardan ham bexatar bo'ladi. Qirol menga albatta tuzukkina mukofot beradi.

Lekin uning o'ylaganicha bo'lib chiqmadi. Qirol Jakomon bo'lgan voqeani eshitib, rassomni tezda olib kiringlar, dedi. U qorovullar boshlig'i bilan sovuqqina xayrlashib, bunday deb qo'ydi:

— Siz bu ishingiz uchun medal bilan mukofotlanasiz.

— Bu medalni nima qilaman? - dedi qorovullar boshlig'i o'z-o'zicha to'ng'illab.

— Bunaqa medallardan yigirma to'rtta bo'ldi. Yana hammasi kartondan! Agar oyog'i qiyshiq stolim bo'lganda edi, qimirlamasin deb bu medallarni uning oyog'i tagiga qo'yardim.

Mayli, u to'ng'illab o'z yo'lida ketaversin. Yaxshisi biz Bananito bilan qirol Jakomonning qanday uchrashganini ko'raylik.

Rassom qudratli qirol oldida o'zini yo'qotib qo'ymadi. U so'roqlarga xotirjam javob berarkan, bozordagi savat to'la apelsindek qirolning boshida tovlanib turgan ajoyib to'q sariq yasama sochidan ko'zini uzmasdi.

— Nega buncha tikilib qoldingiz?

— Sochlaringizga havasim kelyapti, oliy hazratlari. - Shunday sochning rasmini chiza olarmidingiz?

Jakomon o'zicha, Bananito taqir boshimga rostakam chiroyli sochning rasmini chiza olarmikin, yotayotganda uni boshimdan olib, qutiga solib yurmas edim, deb o'yladi.

— Bunday chiroyli sochning rasmini chizolmayman, albatta, — deb javob berdi Bananito, shu bilan qirolni xursand qilmoqchi bo'lib.

Taqir boshiga qayg'urib yuruvchi bu "bechora"ga uning yuragi achidi. Ko'p kishilar tarashdan erinib sochini qirdirib tashlashadi-ku. Odamlarga sochining rangiga qarab baho berishmaydi. Agar Jakomonning chiroyli qora jingalak sochi bo'lganda ham baribir u hamma bilganidek muttaham, qaroqchi bo'lib qolaverardi.

Jakomon xo'rsinib, taqir boshiga rasm soldirish fikrini vaqtincha yig'ishtirib qo'ydi. Lekin ulug' qirol bo'lib tarixda qolish uchun Bananitoning qobiliyatidan foydalanishga qaror qildi.

— Men seni hayvonot bog'iga ministr qilib tayinlayman, - dedi u rassomga. — Hayvonot bog'imiz bor-u, lekin hayvonlar yo'q. Sen ularning rasmini chizasan. Turli hayvonlarni ko'proq chizishingni iltimos qilaman.

"Qamoqda o'tirgandan ko'ra ministr bo'lgan yaxshiroq" - deb o'yladi Bananito. U kech kirguncha minglab tomoshabinlar ko'zi oldida yuzlarcha hayvonlarning rasmini chizib, tiriltirib yubordi. Ularning ichida sher, yo'lbars, timsoh, fil, to'ti,

toshbaqa, baliqchi qush, itlar ham bor edi. Poyloqchi, tozi, laycha, ko'ppak itlarning rasmini chizgan edi, ular saroy a'yonlarining g'ashiga tegib, qattiq vovullay boshladi.

- Agar oliy hazratlari itlarning vovullashiga ruxsat etsa, holimiz nima kechadi? - deb to'ng'illarda saroy a'yonlari. — Bu qonunga xilof-ku! Bunday nomuvofiq ishlarni ko'rib, kishilarning boshiga xavfli fikrlar keladi.

Lekin Jakomon Bananitoga xalal bermang, nimani xohlasa o'shani qilaversin, deb buyurdi. Shunday qilib, saroy ahli g'azabini yutib, ko'nikishga majbur bo'ldi. Bananitoning chizgani bo'yicha hayvonlar qafaslarda o'z joylarini egalladi. Masalan, hovuzlarda oq ayiq, tulen, pingvinlar, hayvonot bog'ining yo'lklarida bolalar tushadigan aravachalarga qo'shilgan eshaklar paydo bo'ldi.

Shu kuni kechasi Bananito dam olgani o'z chordog'iga kelolmadi. Qirol rassomga saroydan bir xona ajratib, qochib ketmasligi uchun eshik oldida o'nta qorovulni poylatib qo'ydi.

Ertasi kuni hayvonot bog'ida qiladigan ish qolmadi, shundan keyin Bananito oziq-ovqat mahsulotlari, ularning aytishicha, davlat qog'oz-daftarlari ministri qilib tayinlandi. Unga stol ajratib, saroyga kiraverishda rasm chizib o'tirishi uchun barcha zarur narsalarni tayyorlab berishdi. Odamlar unga murojaat qilib, nimani yegilari kelsa o'shani olishlari mumkin edi.

Oldiniga ba'zilarning hafsalasi pir bo'ldi. Agar Bananitodan yolg'onchilar mamlakatida non deb ataluvchi siyohni so'rashsa, u siyoq to'la shishaning rasmini chizib, shu zahotiyog:

— O'ting, yana kim, — derdi.

— Menga siyohning nima keragi bor? — derdi omadi yurishmagan kishi.

- Ularni ichib yoki yeb bo'lmasa.

Lekin tezda odamlar Bananitodan xohlagan narsani olish uchun o'sha narsaning nomini aslicha atash kerakligini tushunib qolishdi.

Saroy a'yonlarining g'azabi qaynab toshdi.

— Ishlarimiz tobora yomonlashayapti, — deyishardi ular achchig'laridan ko'karishib. Bundan yaxshilik, chiqmaydi. Hech kim yolg'on gapirmay qo'yadi. Qirol Jakomonga nima bo'ldi?

Qirol Jakomon bo'lsa shamol uchirib ketmaydigan sochning rasmini chizib berishni Bananitodan qanday iltimos qilishni bilmay yurardi. Ungacha qirol rassomga xohlagan ishini qilishga yo'l qo'yib, boshqalarning e'tiroziga quloq solmadi. Saroy ahli bu ahvoldan norozi edi. Ularning toqati toq bo'lgandi.

Generallarning ham ta'bi xira edi.

Buni qaranglar-a, — deyishardi ular. — Mana endi anavi rassomdek odamga yo'liqib, uning aytganiga ko'nyapmiz. U quymoq, tovuq kabob, qovurilgan kartoshka, shokoladlarning rasmini chizyapti. Bularning o'rniga zambaraklar yasash kerak edi, zambarak! Biz yengilmas armiyani qurollantirib, qirollikni kengaytirardik!

Eng urushqoq general Jakomonning oldiga borib, ana shu gaplarni aytdi.

Eski qaroqchi bu gapdan qoni qizishayotganini seza boshladi.

— Zambaraklar yasalsin! — dedi u. — Juda soz, to'plar kerak! Urush kemalari, samolyotlar, dirijabllar ham yasalsin! U jin urgur Bananitoni tez chaqirib keling!

Jakomonning yaqin kishilari uning "jin urgur" so'zini tilga olganini ko'pdan beri eshitishmagan edi. U shaykalarini bosqinchilikka yuborishdan oldin kemasida nutq so'zlayotganda shunaqa so'kinib qo'yishni yaxshi ko'rardi.

Turli noz-ne'matlarni kishilarga tarqatish to'xtatildi. Bananito qirol va uning bosh shtabi huzurida hozir bo'ldi. Devorlarga katta geografiya kartalari osib qo'yildi, bo'lg'usi jangda g'alabaga erishiladigan yerlarni belgilab qo'yish uchun xizmatkorlar qutichada bayroqchalar keltirdi.

Bananito xotirjam, hech kimning so'zini bo'lmay, otashin nutqlarni oxirigacha eshitdi. Lekin unga zambaraklarning rasmini chizish uchun qog'oz bilan qalam berganlarida u qog'ozning o'rtasiga katta harflar bilan "yo'q" deb yozib qo'ydi, keyin hamma o'qisin, deb zalni aylanib chiqdi.

— Janoblar, — dedi ularga, — agar miyangizni yengillatish uchun lazzatli kofeni ko'ngillaringiz tusasa, bir daqiqadayoq hozirlab beraman. Agar tulki ovlash uchun bittadan ot mingingiz kelsa, men sizlarga eng yaxshi zotli chopar otlarning rasmini chizib beraman. Lekin to'plarni esingizdan chiqaring. Mendan uni umid qilamang.

Shu topda qiy-chuv ko'tarildi. Hammasi baravardan qichqirib, stolni mushtlay boshlashdi. Jakomon bo'lsa qolini og'ritmaslik uchun xizmatkorni chaqirib, bor kuchi bilan uning yelkasiga mushtladi.

— Boshini, boshini kesish kerak! - degan qiyqiriqlar eshitilardi.

— Bunday qilamiz, — dedi nihoyat Jakomon, — uning boshini kesmay, o'ylab ko'rishiga vaqt beramiz. Menimcha, uning esi joyida emas, shuning uchun ham ulug' rassom bo'lib yetishgan. Uni bir necha kun jinnixonaga qamab qo'yamiz.

Saroy a'yonlari bu hukmni yumshoq hisoblab shovqin ko'tarishdi. Lekin Jakomonning xulqini bilganlari uchun darrov jim bo'lishdi.

— Ungacha, — deb davom etdi Jakomon, — rassomga qalam bilan ham, bo'yoq bilan ham rasm solishga ruxsat etilmaydi.

Shunday qilib, Bananitoni ham jinnixonadagi yolg'iz uyga qamab qo'yishdi. Uning qog'oz, qalam, bo'yoq va cho'tkacha olishiga ruxsat berishmadi. Qamoqxonada bir parcha g'isht yoki bo'r ham yo'q edi. Faqat namat qoqilgan devorlarga qon bilan yozish mumkin edi. Bananito chor-nochor yangi ajoyib suratlar yaratish mumkin emas, degan fikrga ko'nikishga majbur bo'ldi.

U taxta ustida qo'lini yostiq qilib cho'zilib yotdi-da, yaqindagina oqlangan shiftga tikildi. Uning ko'zi oldidan ajoyib sharpalar birin-ketin o'ta boshladi. U bu yerdan chiqqanidan keyin jonli qilib chizadigan rasmlarni o'z xayolida tasavvur etar edi. U bu yerdan chiqib ketishiga birpas bo'lsa ham shubha qilmasdi.

Niyati xolis edi, uni qutqazish uchun kimdir harakat qilmoqda edi. Bu xaloskorning ismi tilingiz uchida turibdi: ha, o'sha, o'zimizning Cho'loq mushuk.

O'N YETTINCHI BOB

*Cho 'loq mushuk oyog 'ini berib,
O'z do 'stini goldi qutqarib,*

O'tirmaydigan Benvenutoning uyida Jelsomino lat yegan tizzasini davolab yotganida rassomning ministr bo'lganini eshitdi. Cho'loq mushuk uning oldiga borib, Jo'xori xola bilan Romolettga ozodlik berishni iltimos qilmoqchi bo'ldi. Afsuski, u saroyga kelganida Bananitoning baxt yulduzi allaqachon so'ngan edi.

— Agar Bananitoni ko'rmoqchi bo'lsang, - dedi unga qorovul istehzo bilan, — jinnixonga borishing kerak. Lekin bilmadim, seni u yerga qo'yisharmikin? Agar jinni bo'lganingda edi...

Cho'loq mushuk o'zimni jinnilikka solsammikin yoki jinnixonaga boshqa yo'l bilan kirishga harakat qilsammikin, deb uzoq o'yladi.

— Oyoqlarim, menga yordam bering, - dedi u nihoyat. — Endi to'rttasiz, devorga tirmashib chiqish oson bo'ladi.

Jinnixona bahaybat binoga joylashgan, atrofiga zovur qazib, suv to'latilgan edi. Cho'loq mushuk suvga tushishga majbur bo'ldi. U suvga sakrab, zovurdan suzib o'tidida, devorga chiqib birinchi ochiq derazaga o'zini urdi, bu yer oshxona ekan. Pol yuvayotgan bir boladan boshqa hamma oshpaz va xizmatkorlar yon tomondagi xonaga kirib ketishgan ekan. Bola mushukni ko'rib qichqirdi:

— Yo'qol bu yerdan, yaramas! Bu yerda tashlandiq bo'lmasligini bilmaysanmi?

Haqiqatan ham bechora bola doim och yurar, shuning uchun hamma chiqindilarni, hatto baliq suyagigacha yeb qo'yar edi. So'nggi ulushimni ham olib qochib ketmasin, deb mushukni quvalay turib, shoshganidan uzun yo'lakka chiqadigan eshikni ochib yubordi. Bu yo'lakning ikki tomonida jinnilar yoki to'g'rirog'i, mahbuslar yotgan qator xonalar bor edi. Qamoqdagilar jinni emas edi, ular bir vaqt rost gapirib qo'yib, aksiga, buni Jakomonning ayg'oqchilari eshitib qolib, qamoqqa olingan edilar.

Ba'zi bir qamoqxonalar yo'lakdan faqat temir panjara bilan ajratib qo'yilgan edi. Boshqalari vazmin temir eshiklar bilan berklangan bo'lib, faqat ovqat uzatadigan kichkina tuynukchalarigina bor edi.

Shunday qamoqxonalardan birida Cho'loq mushuk Jo'xori xolaning mushukchalari bilan ko'ngilchan Qoplanni ko'rib, juda ajablendi. Ular bir-birining dumiga boshini qo'yib uxlab yotar, ehtimol ajoyib tushlar ko'rishayotgan edi. Cho'loq mushuk ularni uyg'otishga jur'at etolmadi. Uyg'otganda ham baribir ularga yordam berolmasdi-da. O'sha yerga, xabaringiz bor, Kalimer Vekselni ham qamab qo'yishgan edi. U uyg'oq bo'lib, Cho'loq mushukni ko'rgan zamon iltijo qila boshladi:

- Azizim, menga sichqon keltirib ber, sen ozodlikda yuribsan! Faqat bitta sichqon bo'lsa bas! Mana, ko'pdan buyon mening changalimga birortasi ham tushmadi.

"Bu chindan ham aqldan ozibdi", deb o'yladi Cho'loq mushuk, u Kalimerni tanimasdi.

Yo'lakning oxirida umumiy xona bo'lib, unda eng kamida yuz kishi uxlab yotardi. Ularning orasida Jo'xori xola bilan Romoletta ham bor edi. Agar chiroq yoniq bo'lganda Cho'loq mushuk ehtimol ularni ko'rib, tanigan bo'lardi. Agar Jo'xori xola uyg'oq bo'lganda, ehtimol odati bo'yicha Cho'loq mushukning dumidan tutardi. Lekin chiroq o'chiq, Romolettadan tortib hamma mahbuslar qattiq uxlab yotardilar. Cho'loq mushuk oyoq uchida yurib, xonadan o'tdi-da, yuqori qavatga chiqadigan zina oldida to'xtadi. Ancha vaqt qidirganidan keyin u Bananito qamab qo'yilgan xonani nihoyat topdi.

Rassom qo'lini yostiq qilib, tinch uxlab yotar, kelgusida chizadigan ajoyib rasmlarini tushida ko'rayotgandi. Rasmlarning birida to'satdan bo'shliq paydo bo'ldi. Bananitoga ajoyib guldasta o'rtasida mushukning boshi ko'rindi, u xuddi Cho'loq mushukka o'xshab miyovlardi. Bananito uyg'onib, eshikka qaradi-da, hamon jinnixonada yotganligini angladi. Lekin eshikning tuynukchasi ochiq bo'lib, undan Cho'loq mushukning boshi ko'rindi. U o'ngida ham miyovlardi.

- Bananito, Bananito! Uyqing rosa qattiq ekan!

— Qarang, qarang, Cho'loq mushukning mo'ylovi-ku bu!

— Ko'zingni och, senga aytyapman! Bu men, Cho'loq mushukman. O'sha sen chizgan oyog'im ham joyida, yaxshi ishlayapti.

Cho'loq mushuk shu gaplardan keyin g'ujanak bo'lib panjaradan o'tdi-da, xonaga sakrab tushdi. Bananitoning yoniga yugurib borib, qo'lini yaladi.

— Men senga yordam bergani keldim.

— Rahmat senga, lekin qanday qilib yordam berasan? Hozircha bilmadim. Qorovullardan kalitni o'g'irlab kelsa bo'ladi-ku.

— Ular uyg'onib qolishi mumkin. Unda eshikni kemirib, bu yerdan chiqib ketishingga yordam beraman.

— Agar ixtiyoringda o'n yil bo'lganda, ehtimol temir eshikni zo'rg'a tesharsan. Men esa hozir chiqib ketishim kerak.

— Nima qilish mumkin?

— Arra kerak. Arra topib kelsang, qolgan ishni o'zim bajaraman.

— Unday bo'lsa arrani topib kelishga harakat qilaman.

— Agar men, — dedi Bananito, — arraning rasmini chiza olsam oson bo'lardi, lekin bu qaroqchilar menga siniq qalam ham qoldirishmadi.

- Agar gap shunda bo'lsa, — deb javob qildi Cho'loq mushuk, — mana mening oyoqlarim! Uchta oyog'im bo'r bilan, to'rtinchisi yog'li bo'yoq bilan chizilgani esingdadir.

— Ha, lekin oyoqlaring o'chib ketadi-da. Cho'loq mushuk uning gapiga quloq solmadi.

— Shoshma, sen keyin menga boshqa oyoq chizib qo'yishing mumkin.

— Derazadan qanday tushamiz?

— Parashutning rasmini chizasan.

— Suv to'la zovurdan qanday o'tamiz?

— Rasmdan qayiq yasab.

Bananito qochish uchun kerakli hamma narsalarni chizib bo'lganda, Cho'loq mushukning oyog'i kesilgandek kichkinagina, yaroqsiz bo'lib qoldi.

Ko'rdingmi, — deb kuldi Cho'loq mushuk, — nomimni o'zgartirmaganim yaxshi bo'lgan ekan. Cho'loq edim, umrbod cho'loq bo'lib qolaman.

— Men senga hozir boshqa oyoq chizaman, — deb takif qildi Bananito.

— Vaqtimiz ziq, qorovullar uyg'onguncha chiqib ketaylik.

Bananito arrani ishga soldi. Baxtiga, uni shuncha o'tkir qilib chizibdiki, temirni olmani qirqqandek kesardi. Bir necha minutda eshik katta ochilib, do'stlarimiz yo'lakka chiqib olishdi.

— Yur, Jo'xori xola bilan Romolettani, bir yo'la mushukchalarni ham ola ketamiz, - dedi Cho'loq mushuk.

Lekin qorovullar shovqindan uyg'onib ketib, shubha bilan u yoq bu yoqni ko'zdan kechira boshlashdi. Bananito bilan Cho'loq mushuk bir yo'lakdan ikkinchi yo'lakka o'tib yurgan qorovullarning vazmin oyoq tovushini eshitdilar.

— Oshxonaga yetib olaylik, - deb shivirladi Cho'loq mushuk. — Hammamiz qochib ketolmasak ham, ikkalamiz qutulib qolamiz. Ozodlikda qamoqda yotgandan ko'ra ko'proq foyda keltiramiz.

Lekin ular oshxonaga kirganlarida haligi bola yana Cho'loq mushukka qarab qichqira boshladi:

— Men seni hozirgina haydab yuborgan edim-ku, ochko'z! Sen mening rizqimni olib qochmoqchimisani? Yo'qol bu yerdan! Manavi oynadan chiqib ket! Agar cho'kib ketsang yana ham yaxshi.

Uning shunday jahli chiqib ketdiki, Bananitoga ham e'tibor bermadi. U faqat mushukdan ko'zini uzmas, uning sherik bo'lishidan qo'rqardi. Bananito parashutni ochib, qayiqni tayyorladi-da, Cho'loq mushukni qo'liga oldi.

— Ketdik!

— Ha, ha, yo'qoling bu yerdan, — deb to'ng'illadi bola, — bu yerga qaytib kela ko'rmang!

Faqat Bananito derazadan sakrab tushgandagina bola shubhalanib qoldi.

"Bu kim bo'ldi ekan?" — deb o'yladi boshini qashib. U tashvish orttirmaslik uchun og'iz ochmaslikka qaror qildi: hech kimni ko'rganim ham yo'q, hech nima eshitmadim ham, dedi o'z-o'ziga. U tashlandiqlar ichidan karamning o'zagini topib, huzur qilib chaynay boshladi.

Tez orada Bananitoning qochib ketgani ma'lum bo'ldi. Qorovullar jinnixonaning derazasidan qichqirishardi:

- Yordam bering! Xaloyiq! Xavfli jinni qochib ketdi!

Bananito bilan Cho'loq mushuk zovurdan o'tib olish uchun qayiqqa ikki bukchayib, qo'llarini eshkak qilib suzib bordilar. Agar Cho'loq mushukning maqsadidan xabardor bo'lgan o'tirmaydigan Benvenuto aravachasi bilan kutib turmaganida, ular uzoqqa qochib borolmasdilar.

— Tezroq, bu yerga yashirining! — deb shivirladi chol. Ularni aravachasiga o'tqazib, ustiga churuk lattalarni tashlab qo'ydi.

Yetib kelgan qorovullarga u qarshi tomonni ko'rsatib yubordi:

— Huv anavi yoqqa qarang. Ular o'sha tomonga qochib o'tishdi!

— Sen kimsan?

— Men bechora bir churukchiman, bu yerda dam olgani to'xtagan edim.

— Eski-tuski bilan savdo qiluvchi rostakamiga char-chaganini bildirish uchun aravachasining shotisiga o'tirib, trubkasini chekdi. Bechora Benvenuto! Agar birpas o'tirsa sochlari yana ham oqarib bir necha yillik umri ado bo'lishini yaxshi bilardi. Lekin Benvenuto shunaqa ko'ngilchan odam edi!

"Mening o'tgan umrim, — deb o'yladi u, — birovlarining hayotini uzaytirdi. Shunday qilib men o'z umrimni boshqalarning hayotiga bag'ishlayman".

U qorovullarning basharasiga qaratib quyuq tutun purkadi.

Baxtga qarshi, xuddi shu topda Cho'loq mushukning burni qichib qoldi. Chunki uning ustidagi lattalari chang bosib ketgan edi. "Yolg'iz karkidongina bu churuklarni xushbo'y deyishi mumkin edi. Cho'loq mushuk aksirib yubormaslik uchun oldingi oyoqlari bilan burnini berkitmoqchi edi, lekin faqat bittagina oldingi oyog'i qolganligi kechroq esiga tushdi. U shunday qattiq aksa urdiki, hammayoqni changitib yubordi.

Cho'loq mushuk rassomni payqab qolishmasin, deb aravachadan sakrab tushdida, qochib qoldi.

— Kim u? — deb so'radi qorovullar.

— Itda, — deb javob berdi Benvenuto, — lattalarning orasida yotgan ekan, qochib ketyapti.

— Biror gunohi bo'lgani uchun qochayotgan bo'lsa kerak, — dedi qorovullar.

— Quvamiz.

Cho'loq mushuk o'z orqasidan kelayotgan oyoq tovushlarni, "ushla uni!" degan qichqiriqlarni eshitdi.

— Mayli, meni quvlashaverishsin, — dedi sevinib Cho'loq mushuk, — Benvenuto bilan rassomni tinch qo'yishsa bo'lgani.

U shahar ko'chalaridan qochar, qorovullar tillarini osiltirib uni quvlashardi. Ana, qirol saroyi oldidagi maydon, ana Cho'loq mushuk bexavotir tunagan o'sha ustun.

Yana sal qochsak qutulamiz, — derdi Cho'loq mushuk oyoqlariga yolvorib.

Har qancha harakat qilsa ham oyoqlari uning aytganlarini qilmadi. Cho'loq mushuk ustunga tirmashib, yuqoriga chiqib olish o'rniga ustunga yopishib qoldi. U yana uch oyoqli mushukni tasvirlovchi rasmga aylandi qoldi. Shu paytda bu ish juda xush keldi, chunki qorovullarning keyinchalik yozgan ma'lumotlariga ko'ra, ular og'zini ochib qolavergan.

— U qayoqqa yo'qoldi? — deb so'rashdi qorovullar bir-biridan.

— Mana shu ustunga sakraganini ko'ruvdim.

— Ustunda hech narsa ko'rinmaydi.

— Faqat qandaydir chizma-chiziq bor. Qarang, qandaydir bir bola maktabdan olgan bo'r bilan mushukning rasmini chizib ketibdi.

— Uni qo'y-e, ketdik! Rasmlar bilan ishimiz yo'q. Shu paytda Benvenuto aravachasini tortib, nafasini rostdash uchun to'xtab-to'xtab, uyiga jo'nadi. Charchaganidan yurishga madori qolmay aravachasining shotisiga yana ikki-uch marta o'tirib dam oldi. Xullas, u uyidan chiqqanida yoshi saksondan ko'p ham, kam ham emas edi. Uyning ostonasiga qaytib kelganida to'qson yoshdan oshib ketgandir. Dahani ko'kragiga tegib, ko'zi ich-ichiga botib ketgan, ovozi xuddi yer tagidan kelayotgandek sekin eshitilardi.

— Bananito, tur yetib keldik.

Lekin Bananito uning gapini eshitmadi: lattalar orasida issiqda uxlab qolgan edi u.

O'N SAKKIZINCHI BOB

*Benvenutoning umri tugab —
Qolganidan bor bu bobda gap.*

— Bu yerda nima qilyapsan? Lattalaring bilan gaplashayapsanmi? Benvenuto rassomni uyg'otayotgan paytda qorovul uning orqasiga kelib to'xtadi.

— Qanaqangi lattalar bilan? — Benvenuto vaqtni cho'zish uchun qaytarma savol berdi.

- Yirtiq paypoqlarga qarab bir nima deyayotganingni yaxshi eshitdim. Ehtimol sen ularning yirtig'ini sanayotgandirsan.

— Ehtimol gapirgandirman, lekin o'zim buni sezmadman, — deb g'udurladi Benvenuto. — Bilasizmi, juda charchaganman-da. Aravani tortib kun bo'yi yuraman. Qarilikda qiyin...

— Charchagan bo'lsangiz dam oling, — dedi rahmi kelib qorovul. — Shu paytda kim sizga latta-putta sotardi?

Men hozir o'tiraman, — dedi Benvenuto yana aravachasining shotisiga o'tirib.

— Agar ruxsat bersangiz, — dedi qorovul, — men ham birpas dam olsam.

— Bu shotisiga o'tiravering.

— Bilasizmi, kechasi bilan qorovullik qilib odam charchaydi, Bir zamonlar pianinochi bo'lishni orzu qilgan edim. Doim o'tirib chalasan, yaxshi kuylar ichida bo'lasan.

Men bu to'g'rida hatto insho ham yozganman. Inshoning temasi: "Katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?" edi. Men bunday deb yozdim: "Men katta bo'lganimda pianinochi bo'laman, barcha mamlakatlarga borib, konsert berib yuraman, menga hamma qarsak chaladi, olamga mashhur bo'laman! Lekin men

o'g'rilar orasida ham shuhrat topmadim. Shu vaqtgacha birorta o'g'rini tuta olmadim. Menga qarang, favqulodda siz o'g'ri emasmisiz-a?

Benvenuto bosh chayqab, uni tinchlantirdi. Uning bu sho'rpehona qorovulni yupatish uchun biror gap aytgisi kelardi, lekin madori yetmadi. Benvenuto minut sayin umri tugab borayotganini sezdi, lekin jimgina quloq berib o'tirishdan boshqa iloji yo'q edi.

Tungi qorovul bo'lsa uh tortib, ishi, bolalari, umrida ko'rmagan pianino haqida uzoq vaqt hikoya qilib o'tirdi.

— Eng katta bolam o'n yoshga kirdi, - dedi u. — Kecha u ham maktabida yaxshi insho yozibdi. O'qituvchilar hamma vaqt o'sha bir xil temada: "Katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?" degan insho yozdirishadi. Mening o'g'lim: "Uchuvchi bo'laman, raketada oyga uchaman", deb yozibdi. Men uning orzusiga yetishini astoydil tilayman, biroq ikki yildan keyin uni ishlatishga majburman. Mening maoshim oilamizning ta'minotiga yetmaydi-da. Uning fazoni o'rganishiga ishonish qiyin, to'g'ri emasmi?

Benvenuto yo'q degandek bosh chayqadi. U shu bilan, dunyoda inson qo'lidan kelmaydigan ish yo'q, orzuning ushalishiga ishonchni yo'qotmaslik kerak, demoqchi bo'ldi. Lekin qorovul uning bosh qimirlatganini payqamadi. U Benvenutoga qarab, uxlab qolibdi, deb o'yladi.

— Bechora chol, — deb shivirladi u. - Chindan ham charchabdi. U yoq bu yoqni aylanib chiqay.

Qorovul tovush chiqarmaslik uchun oyoq uchida yurib ketdi, Benvenuto bo'lsa o'rnidan qo'zg'almay o'tiraverdi. Uning turishga madori qolmagan edi.

— Shunday biroz o'tira turaman, dedi u sekin xo'rsinib. - Qo'limdan kelganini qildim. Bananito endi xavf-xatardan qutuldi. Bechora qorovul ham men bilan so'zlashib, ko'nglini bo'shatdi.

Uning xayoli chalg'ib, hech narsani ajratolmay qoldi: unga juda uzoqdan qo'shiq, alla eshitilayotgandek bo'ldi. Lekin tezda quloqlari shuni ham eshitmay qo'ydi.

Bu allani, og'aynilar, Benvenuto tushida eshitgani yo'q edi. Jelsomino odatdagidek uyqusida ashula aytayotgan edi. Uning ovozi zina tomondan tor ko'chaga yoyilib. Bananitoni uyg'otib yubordi.

— Benvenuto! - deb chaqirdi u lattalar orasidan boshini chiqarib.

- Benvenuto, qayerdamiz? Nima bo'ldi?

Lekin Benvenuto endi unga javob bera olmasdi.

Rassom aravachadan sakrab tushib, cholni ikki marta qimirlatib ko'rdi. Bechoraning qo'li sovib qolgan edi. Ichkaridan Jelsominoning jozibador ovozi eshitilardi. Yoqimli alla tor ko'chada yangrab, havoga taralardi.

Bananito yuqoriga chopib chiqib, Jelsominoni uyg'otdi-da, ikkalovi ham ko'chaga chiqdi.

— U tamom bo'пти! — dedi Jelsomino.

— Biz hech narsani tashvish qilmay, tinchgina uxlayotganimizda, bizning aybimiz bilan, butun kuch-quvvatini bizga sarflab, dunyodan o'tibdi.

Tor ko'chani oxirida o'sha tungi qorovul ko'rindi. - Uni uyga olib kiraylik, — deb shivirladi Jelsomino.

Lekin rassomning yordamiga ehtiyoj qolmagandi. Benvenuto yosh boladek yengil bo'lib qolgan edi, Jelsomino uni qo'lida osongina ko'tarib, uyga olib kirdi. Qorovul aravachaga qarab, bir necha minut to'xtab qoldi.

Latta-puttalar bilan savdo qiladigan chol shu yerda tursa kerak, — deb o'yladi u. — Aravachasini ko'chani o'rtasida qoldirib ketgani uchun uni shtraf qilish kerak edi.

Lekin u yaxshi chol ekan. Bu tor ko'chadan o'tmagandek bo'lib ketaveraman.

Bechora Benvenuto! Uning uyida murdani yotqizishga ham stul topilmadi. Marhumning boshiga oddiy yostiq qo'yib, polga yotqizishga to'g'ri keldi.

O'sha voqealardan ikki kun keyin Benvenuto ko'mib kelishdi. Sizning u voqealardan hali xabaringiz yo'q. Bu to'g'rida keyingi bobda o'qiysiz. Motamda minglab odamlar qatnashdi, ularning har biri marhumning yaxshiliklarini bilsa ham, hech kim nutq so'zlamadi.

Xuddi ana shu motamda Jelsomino umrida birinchi marta hech narsani sindirmay qo'shiq aytdi. Uning ovozi avvalgidek kuchli bo'lsa ham, lekin mayin jaranglardi. Uni eshitganlar ko'ngillari yumshab, o'zlarining yaxshi kishilarga o'xshab qolayotganliklarini seza boshlashdi.

Lekin bungacha, hali sizga aytganimdek, ancha voqealar bo'lib o'tdi. Avval Jelsomino bilan rassom Cho'loq mushukning yo'qligini payqab qolishdi. Ana shu tashvishli kunlarning g'alvasi bilan ular bunga ahamiyat berishmagan edi.

— U aravachada men bilan birga edi, — dedi Bananito. — Albatta men uni lattalar orasida payqadim. Lekin birdan uning aksa urib yuborganini eshitdim.

— Ehtimol u biror falokatga yo'liqqandir, — dedi Jelsomino.

— Balki u Jo'xori xola bilan Romolettani qutqazgani jinnixonaga qaytib borgandir.

— Hamma nima bilandir band, — dedi uyalib Jelsomino. — Faqat men bekor yuribman. Mening qo'limdan qandillarni sindirish-u, odamlarni qo'rqitish keladi!

Uning bunchalik xafa bo'lganini shu vaqtgacha hech kim ko'rmagan edi. Lekin xuddi shu topdayoq uning miyasiga ajoyib bir fikr keldi.

— Yo'q, yo'q! — dedi u to'satdan. — Mening qo'limdan nima ish kelishini hali ko'ramiz!

Qayoqqa borasan? — deb so'radi uning o'rnidan turib, pidjagini kiyayotganini ko'rgan Bananito.

- Endi navbat menga keldi, — deb javob berdi Jelsomino. - Sen uydan chiqqan ko'rma, politsiya izlab yuribdi. Mening nimaga qodirlikimni eshitib qolarsan. Bu ajoyib yangilik bo'ladi!

O'N TO'QQIZINCHI BOB

*Yolg'onchilik kasalidan hamma qutulib,
Rostni so'zlay boshladilar quvonchga to'lib.*

Bananito qochganda ko'tarilgan to'polondan keyin jinnixonaga yana jimlik cho'kdi. Palata, bo'lma, yo'lkalarda hamma uxlab yotardi. Faqat oshxonadagi bechora bola uyg'oq edi, xolos. Uning uyqusi kelmasdi, chunki doimo och bo'lar, kechasi bilan tashlandiqlarning orasini titkilab, yemak izlardi. Bananito bilan ham, rassomni quvayotganlar bilan ham uning ishi yo'q edi. Hatto uni jinnixonaning ro'parasidagi maydonda turib, ashula boshlagan g'alati, to'g'risi, past bo'yliroq yigitcha ham qiziqtirmadi.

Bola oshxonada kartoshka po'choqlarini chaynab, bosh chayqab unga qarab turardi.

— Bu chindan ham jinni bo'пти. Jinni bo'lmasa, chiroyli qizlarning uyi oldida emas, jinnixonaning derazasi tagida qo'shiq aytarmidi? Kel, bilganini qilaversin. Lekin ovozi baland ekan. Bahs o'ynaymanki, hozir uni qorovullar tutib oladi.

Biroq, qorovullar Cho'loq mushukni tutolmay, charchab, o'lgandek dong qotib yotishardi.

Tovushni sinab ko'rish uchun past tovushda ashula boshlagan Jelsomino tobora qattiqroq ayta boshladi. Oshxonada turgan bola kartoshka po'choqlarini unitib, og'zini ochib qoldi.

— Uning ashulasini eshitsang, ochlik esingdan chiqar ekan.

Shu paytda u qarab turgan deraza oynasi chil-chil bo'ldi, bir bo'lak oyna sinig'i oz bo'lmasa uning burnini uchirib ketay dedi.

— Hoy, kim u yoqdan tosh otyapti?

Birdan bahaybat binoning turli yerida, barcha qavatlarining oynalari birin-ketin sinib tushaverdi. Qorovullar bo'lsa, mahbuslar g'alayon ko'tarmadimikin, deb o'ylab palata va bo'lmalarga kirib chiqishdi. Lekin ular darrov bu fikrdan qaytishdi. Haqiqatan ham mahbuslar uyg'ongan-u, lekin ular tinchgina, Jelsominoning qo'shig'idan rohatlanib o'tirishardi.

- Kim bu yerda derazalarni sindiryapti? — deb qichqirardi qorovullar.

Jim! degan ovoz eshitildi har tomondan. Ashulani eshitaylik. Derazangiz bilan nima ishimiz bor?! Bizlarnikimi u?!

Keyin derazadagi panjaralar sinib tusha boshladi: temir panjaralar gugurt cho'pidek sinib, derazadan ko'char, zovurdagi suvni sachratib cho'kib ketardi.

Buni ko'rib jinnixonaning mudirini qaltiroq bosdi.

— Sovuqdan qaltirayapman, — dedi u kotiblariga, o'zi bo'lsa "yer qimirlayapti", deb o'ylardi.

U mashinasini chaqirib, ministrga xabar beraman, dedi-da, jinnixonani o'z holiga tashlab, shahar chekkasidagi bog'iga jo'nab qoldi.

"Ministriga borarmidi u, — deb o'ylardi jahli chiqib kotiblar, ministrni bahona qilib qochib ketdi. Biz qopqonga tushgan sichqondek o'lib ketaveramizmi? Ovora bo'ladi!"

Ular oldinma-ketin, biri mashinada, boshqasi yayov ko'tarma ko'prikdan shu qadar tez o'tib ketishdiki, darvozada turgan qorovullar ularning qorasini ham ko'rmay qoldi.

Tong yorisha boshladi. Uylarning tomi g'ira-shira oqarib ko'rindi. Bu Jelsominoga "Qattiqroq ayt!" degan ishoradek tuyuldi.

O'shanda Jelsominoning qanday ashula aytganini eshitsangiz edi! Uning ovozi vulqondek zo'r kuch bilan eshitalardi. Jinnixonadagi barcha yog'och eshiklar payraxadek sinib, temir eshiklar esa shunday buralib ketdiki, eshikka sira o'xshamay qoldi, qamoqdagilar sevinganidan sakrab yo'lakka chiqishdi.

Qorovullar, nazoratchilar, sanitarlar birin-ketin ko'tarma ko'prikdan qochib o'tib, maydonga chiqib olishdi. Birdan hammasi shaharda muhim ishi borligini eslab qoldi. - Men itimni cho'miltirishim kerak edi, - dedi biri.

— Meni bir necha kun dengiz bo'yida dam olishga taklif etishgandi, — dedi boshqasi.

— Men qizil baliqlarimning suvini o'zgartirishni unutibman, o'lib qoladi, deb qo'rqayapman.

Ular aldashga shunchalik o'rganib qolishgan ediki, qo'rqayotganliklarini tan olgilari kelmasdi.

Xullas, bir necha minut ichida jinnixonaning oshxonadagi bechora boladan boshqa barcha xizmatchilari qochib ketdi. Bola qo'lida karam o'zagini ushlaganicha og'zini ochib, anqayib turardi, chunki uning hozir hech nima yegisi kelmas, umrida birinchi marta miyasida ajoyib fikr tug'ilgan edi.

Nazoratchilaming qochib ketganini hammadan oldin Romoletta payqadi.

— Nima qilib turibmiz? Biz ham qochaylik! - dedi u Jo'xori xolaga.

— Bu qoidaga xilof, — deb javob berdi Jo'xori xola. -Lekin, ikkinchi tomondan, qoida bizga qarshi-ku. Ha, mayli, yur!

Ular bir-birining qo'lini ushlab, odamlar ur-yiqit bo'lib tushib kelayotgan zina tomon yurishdi. To's-to'polonda Jo'xori xola minglab tovushlarning ichidan mushukchalarining ovozini tanidi. Shu paytda Cho'loq mushukning yettala kichkina shogirdlari ham ko'pchilik orasidan boshini mag'rur ko'targan, qovog'i soliq o'z homiysini tanishdi. Ular miyovlashib, shu zahotiyiq xolaning bo'ynidan quchoqlab, haryoqdan yopishib olishdi.

- Mana, hozir uyimizga boramiz, — derdi Jo'xori xola ko'z yoshi qilib. — Bir, ikki, uch, to'rt... Hamma shu yerdami?.. Yetti, sakkiz! Hatto yana bin qo'shilib qolibdi.

Ha, bu o'sha xushfe'l Qoplun edi. Jo'xori xolaning qo'lida unga ham joy topildi. Jelsomino ashulasini to'xtatib, jinnixonadan chiqib kelayotganlardan Cho'loq mushukni so'rardi. Lekin hech kim unga tayinli javob bermadi. Shunda uning sabri tugadi.

- U yerda, ichkarida hech kim qoldimi? deb so'radi u.
- Hech kim qolmadi, — degan javob eshitildi.
- Shunday bo'lsa, mana ko'ring.

U suvga tushayotgan g'avvoslardek ko'krak qafasini to'ldirib nafas oldi, ovozini bir tomonga yo'naltirish uchun qo'llarini og'ziga karnay qildi-da, qattiq qichqirdi. Agar Mars yoki Zuhra yulduzida qulog'i bor maxluqlar yashaganda, ehtimol uning tovushini eshitardi. Juda kuchli bo'ron turgandek bo'ldi, bino tebranganini aytish kifoya. Tomdagi cherepitsalar hamda pechka mo'rilari changdek to'zib ketdi. Keyin yuqori qavatdan tortib bino devorlari og'ib silkindi-da, qattiq gumburlab pastga quladi, suvni atrofga sachratib, zovumi to'latib yubordi.

Bularning bari bir minut ichida bo'ldi. Buni oshxonada turgan bola yaxshi biladi. U hamma qochib chiqsa ham o'rnidan jilmay turardi, keyin birdan derazadan sakrab tushib, apil-tapil zovurdan suzib o'tdi, maydonga chiqib olishi bilanoq ketidan butun bino quladi.

Butun maydon bo'ylab "ura" sadolari yangradi, xuddi shu paytda quyosh chiqdi, odamlar bir-biriga: "Tez bo'l, tomoshadan qolasan", — deyishardi, bir daqiqa oldin esa hech kim bunday deb shoshirishni xayoliga ham keltirmagan edi.

Maydonda turgan odamlar Jelsominoni ko'tar-ko'tar qilib ketishdi, muxbirlar uning oldiga borib, taassurotini so'rashga ham ulgurisholmadi. Ular bir chekkada g'amgin bo'lib turgan Kalimer Vekselning suhbatini bilan qanoatlanishga majbur bo'ldilar.

- Siz "Namunali yolg'onchi" gazetasiga biror ma'lumot berishni istamaysizmi? — deb so'rashdi undan.

— Miyov, — deb javob berdi Kalimer teskari qarab.

— Juda soz! — deyishdi muxbirlar. — Siz bu voqeadan xabardor ekansiz. Nima uchun hech qanday voqea bo'lmaganini siz bizga aytib berolmaysizmi?

Miyov, — yana bir marta miyovladi Kalimer.

— Juda yaxshi! Jinnixonaning vayron bo'lganini, jinnilarning qochib ketganini qat'iyon rad etamiz.

Qulog'ingiz bormi? — deb yubordi birdan Kalimer. — Tushunsangizchi, men mushukman!

— Men itman demoqchimisiz, miyovlayapsiz-ku?

— Yo'q, yo'q, mushukman! Men mushukman, sichqon tutaman. Yetar, yetar, men endi sizlarning kim ekanligingizni bilib oldim. Har qancha yashirinsangiz ham mendan qochib qutulolmaysiz. Sizlar sichqonsiz, hozir changalimga tushasiz. Miyov! Miyov!

Xuddi shu paytda Kalimer sapchib qoldi. Muxbirlar qalamlarini cho'ntakka solib, avtomobillariga zo'rg'a chiqib olishdi. Kalimer yerga yiqilib, kech kirguncha jon-jahdi bilan miyovlab yotdi. Bir rahmdil yo'lovchi uni ko'tarib, kasalxonaga eltib qo'ydi.

Bir soatdan keyin "Namunali yolg'onchi"ning shoshilinch soni chiqdi. Birinchi betning boshidan oxirigacha yirik harflar bilan quyidagicha sarlavhani yozishibdi:

"Tenor Jelsominoning yangi muvaffaqiyatsizliklari: u ashula aytib, jinnixonani vayron qilolmadi".

Gazeta redaktori xursand bo'lib, qo'llarini ishqalardi:

— Juda ajoyib raddiya chiqdi. Bugun kam deganda yuz ming nusxa sotib qolaman.

Lekin tezda "Namunali yolg'onchi"ning sotuvchilari o'tmay qolgan dasta-dasta gazetalarni qaytib olib kelishdi. Hech kim birorta nusxani ham sotib olmabdi.

- Nima gap?! - deb qichqirdi redaktor. - Bitta gazeta ham sotilmadimi? Nima, odamlar kalendarni o'qishyaptimi?

Yo'q, janobi redaktor, — dedi eng dadil gazeta sotuvchi. - Kalendarni ham endi hech kim o'qimayapti. Dekabr oyini avgust oyi deb yozadigan kalendarni o'qishadi, deb o'ylaysizmi? Oyning nomini o'zgartirish bilan odamlarning tani isiydimi? Katta voqealar bo'lyapti, janob redaktor. Odamlar bizdan kulyapti, gazetangizdan qog'oz kemachalar yasang, deyishyapti.

Shu paytda redaktorning xonasiga o'z holicha shaharga chiqib ketgan iti kirib keldi.

— Pish-pish! - deya chaqirdi uni egasi.

— Vov-vov! — deb javob berdi iti.

— Nima-nima? Vovullayapsanmi?

It javob berish o'rniga dumini likillatib, yana qattiqroq vovullay boshladi.

- Zamon oxir bo'libdi! — dedi redaktor peshonasidan terini artib. - Chindan ham oxir zamon bo'libdi!

Lekin bu zamonning emas, yolg'onchilikning oxiri edi. Jinnixona vayron bo'lganidan keyin yuzlab to'g'ri kishilar birdan ozodlikka chiqib qoldi. Zoologiya va grammatika qoidalariga ko'ra vovullay boshlagan itlar, miyovlay boshlagan mushuklar, kishnay boshlagan otlar bu hisobga kirmaydi. Haqiqat juda tez tarqalib, aholining ko'pchiligiga yoyildi. Magazin egalari mollarning nomini o'zgartira boshladilar.

Bir non do'konning egasi "Daftar-qalamlar" viveskasini ko'chirib olib, orqasiga ko'mir bilan "Non" deb yozib qo'ydi. Shu zahotiy oq do'konning oldida bir talay odam to'planib, uni olqishlay boshladi.

Lekin qirol saroyi oldidagi katta maydonda yana ham ko'p odam to'plandi. Oldinda Jelsomino turardi. U ashula aytar, uning ovozi eshitib, shaharning har tomonidan, hatto yaqin atrofdagi qishloqlardan ham odamlar to'plana boshladi.

Jakomon xonasida o'tirib, ko'p odam to'planayotganini ko'rda-da, xursand bo'lganidan chapak chalib yubordi.

— Tez bu yoqqa kelinglar! - deya qichqirdi u saroy xizmatchilarini chaqirib. — Tez! Xalqim nutq so'zlashimni kutyapti. Ana, qarang hamma meni bayram bilan qutlagani kelibdi.

— Bugun bayrammi? — deb so'rashdi bir-biridan saroy ahli.

Siz balki ajablanarsiz, lekin ular bo'lgan voqealardan hali bexabar edilar. Josuslar saroyga kelib xabar berish o'rniga, qochib qolishga joy qidirib ketishdi.

Qirol Jakomonning saroyida mushuklar hamon vovullardi. Bular butun qirollikdagi eng so'nggi baxtsiz mushuklar edilar.

YIGIRMANCHI BOB

*Jakomonning davri tez bo'ldi g'oyib,
Faqat bir ustini qoldi cho'qqayib.*

Olamda taqdir kitobi yo'qligini bilasiz. Bo'lajak voqealar yozib qo'yilgan kitoblar ham yo'q. Bunday kitob yozish uchun hech bo'lmaganda "Namunali yolg'onchi" gazetasining bosh redaktori bo'lish kerak. Xullas, bunday kitob yo'q, qirol Jakomon zamonida ham bo'lgan emas.

Afsus! Agar shunday kitob bo'lganida, yasama sochli bechora qirol uni varaqlab, shu kuni: "Jakomon bugun nutq so'zlamaydi", degan yozuvni o'qigan bo'lardi.

Haqiqatan ham u xizmatkorlarning oynavand eshiklarni ochishini, o'zining boloxonaga chiqishini sabrsizlik bilan kutib turgan paytda Jelsominoning ovozi eshitildi: oynavand eshiklar sinib, bo'laklari polga uchib tushdi.

— Ehtiyot bo'ling! — deb qichqirdi Jakomon xizmatkorlariga.

"Jiring-g-g..." degan tovush eshitildi xonadan.

— Oyna sindi! Kim oynani sindirdi? — deb baqirdi Jakomon.

Hazrat oliylari nega hech kim jvob bermayapti, deb hayron bo'lib, atrofga qaradi. Lekin, afsuski, yaqinida hech kim qolmabdi. Ministrlar, xizmatkorlar, barcha saroy ahli birinchi ishoradayoq, ya'ni Jelsomino birinchi marta tovushini yuqori pardaga chiqarishi bilanoq ust-boshini almashtirgani o'z xonalariga yugurdilar. Ular shuncha vaqtdan beri kiyib yurgan amaldor kiyimlarini polga uloqtirib, karavot tagidan qaroqchilarning kiyimlari solingan eski jomadonlarini olishdi. Ular:

— Ko'zimga qora bog'ichni taqmasam, ko'cha supuradigan qorovulga o'xshab ketaman, deyishardi to'ng'illab.

— Yengimdan langarning shaklini olib tashlasam, meni hech kim tanimaydi.

Boloxonaga chiqadigan oynavand eshiklarni ochib-yopib turadigan ikkita xizmatkorgina Jakomon bilan qoldi. Oynalari sinib tushsa ham ular odob bilan eshik dastasidan tutib turar, goho-goho yenglari bilan uni artib qo'yishardi.

— Sizlar ham jo'nang, — dedi xo'rsinib Jakomon. -Endi atrofimdagi hamma narsa yemirilyapti.

Haqiqatan ham shu paytda katta qandildagi minglab lampochkalar sinib tushdi: Jelsomino shu kuni zo'r hafsala bilan ashula aytdi.

Xizmatkorlar qirolning gapini qaytarmadilar: orqalari bilan yurib, har uch qadamda ta'zim bilan zina tomondagi eshikka yetib olishdi-da, baravardan burilib, tezroq pastga tushish uchun panjaradan sirpanib tushishdi.

Jakomon o'z xonasiga kirib, qirollik kiyimlarini yechdi-da, oddiy kishilarning kiyimini kiydi. U bunaqa kiyimni shaharda sezdirmay aylanib yurish uchun asrar edi

(lekin u bu kiyimni shu kungacha biror marta ham kiyimadi, buning o'rniga shaharga josuslarni yuborib turdi). Bu jigarrang kostum bo'lib, bankada ishlovchi kassirga yoki falsafa professoriga mos kelardi. To'q sariq yasama sochi o'ziga juda yarashardi. Afsuski, buni ham yechib tashladi, chunki u hamma yerda qirolning tojiga nisbatan ko'proq mashhurroq edi.

— Oh, mening ajoyib yasama sochlarim! — deb uh tortdi Jakomon. - Ajoyib yasama sochim!

U mashhur shkafni ochdi, uning ko'zi navbatdagi tomoshaga tayyorlanib qo'yilgan qo'g'irchoqlarning boshiga o'xshash qator yasama sochlarga tushdi. Jakomon bularni ko'rib, o'zini tutib turolmadi: u bir talay yasama sochlarni jomadonga joyladi.

— Men ularni olib ketaman. Quvg'inda yurganimda bular baxtli kunlarimni yodimga soladi.

U zinadan pastga tushdi, lekin saroy ahlidek yerto'laga tushib, chiqindilar oqiziladigan quvur orqali sichqonlardek saroydan qochib ketmadi. Jakomon o'zining ajoyib bog'iga, to'g'risi, sobiq bog'iga chiqishni ma'qul ko'rди. Bog' avvalgidek go'zal, ko'm-ko'k va gullar atriga to'la edi.

Jakomon qirol bog'ining havosidan so'nggi marta nafas olib, keyin tor ko'chaga chiqiladigan kichkina eshikni ochdi, hech kim uni payqamaganligiga ishonch hosil qilgach, yuz qadamcha yurdi-da, xaloyiq Jelsominoni hayqirib tabriklayotgan maydonga yetib oldi.

Tuksiz boshi, jigarrang kostumi Jakomonni boshqacha qilib yubordi. Bundan tashqari, qo'lidagi jomadonidan kelgindiga o'xshardi.

— Siz yaqindagina kelganga o'xshaysiz, — dedi kimdir uning yelkasiga do'stona qoqib. — Keling, tenor Jelsominoning konsertini biz bilan birga tomosha qiling. Ana u, qarang. Velosiped minib poyga chopadiganlarga o'xshaydi. Ko'rinishidan uch pulga arzimaydi, lekin ajoyib ovozi bor, eshityapsizmi?

Eshityapman, eshityapman, — deb to'ng'illadi Jakomon. Keyin o'z-o'zicha: "Ko'ryapman ham..." deb qo'ydi.

Ha, u yaxshi ko'rgan boloxonasining qulaganini, saroyning gugurt qutisidan yasalgandek osongina nurab, chang-to'zoni osmonga ko'tarilganini ko'rди. Jelsomino changni haydash uchun ovozini yana bir yuqori pardaga ko'tardi, hamma saroy o'rnida vayronani ko'rди.

— Aytgandek, — gapirdi yana Jakomonga yonida turgan odam, — bilasizmi, bitta ham tuki yo'q ajoyib boshingiz bor ekanmi? Mening bu gapimdan xafa bo'lmang. Mening boshimga ham qarab qo'ying.

Jakomon qo'li boshini siladi, keyin yonida turgan odamning gapiga binoan uning koptokdek dumaloq, silliq, tuksiz boshiga qaradi.

— Sizning chiroyli tuksiz boshingiz bor ekan, — dedi Jakomon.

— Ey, yo'g'-e, unchalik emas! Sizning boshingiz juda ketvorgan ekan. Hozir u quyosh shu'lasida shunday yarqirayaptiki, qaraganda ko'zni oladi.

E, e, qo'ying, juda maqtab yubordingiz, - deb to'ng'illadi Jakomon.

— Ishonavering, gapning sirasi shu! Bilasizmi, men sizga bir nima demoqchi edim? Agar bizning taqir boshlilar klubimizga a'zo bo'lganingizda sizni darrov prezident qilib qo'yishardi.

— Prezident deysizmi?

— Ha, bir ovozdan saylashardi.

— Taqir boshlilar klubi bormi?

— Bor. Kechagi kungacha u maxfiy edi, endi ochiq ishlayveradi. Shahrimizning yaxshi kishilari unga a'zo.

Bilasizmi, unga kirish qiyinroq. Boshingizda bitta ham tuk qolmaganini isbot qilishingiz kerak bo'ladi. Ba'zilar bizning klubimizga kirish uchun hatto sochini yuladi.

— Sizningcha men...

— Garov o'ynayman, siz bizning prezidentimiz bo'lishingiz mumkin.

Jakomon yana bir minut tursa ko'ngli buzilishini sezdi.

"Yanglishgan ekanman, — deb o'yladi u. — Hayotimda noto'g'ri yo'ldan boribman. Lekin uni yangidan boshlashga kechikdim".

U odamlarning u yoqdan bu yoqqa yurishidan foydalanib, suhbatdoshidan uzoqlashdi, maydondan chiqib, bo'm-bo'sh ko'chadan ketdi. O'n ikkita yasama soch jomadonda g'amgin shitirlardi. Uning chiqindilar oqiziladigan quvur qopqoqlardan mo'ralagan basharalarga bir necha bor ko'zi tushdi. Bular unga tanishdek tuyuldi. Ular qaroqchilar emasmikin? Lekin bu basharalar jigarrang kostum kiygan taqir bosh, savlatli kishini ko'rishi bilan yashirinardi.

Jakomon o'zini o'ldirmoqchi bo'lib to'ppa-to'g'ri daryo tomon yurdi. Lekin qirg'oqqa yetganida u bu fikridan qaytdi. Jomadonini ochib, yasama sochlarni oldi-da, ketma-ket suvga uloqtirdi.

— Xayr! — deb shivirladi ularga Jakomon. - Xayr, kichkina yolg'onchilar!

Lekin yasama sochlar nobud bo'lmadi. O'sha kuni daryoda timsohlardan battar sho'xlik qilib yurgan bolalar ularni tutib oldilar. Bolalar yasama sochlarni oftobda quritib, boshlariga kiyishdi-da, ko'chaga chiqishdi. Ular kulib qo'shiq aytishar, bugun Jakomon qirolligining motami ekanligidan bexabar edilar.

Jakomon bu yerdan abadiy jo'nab ketaversin (uning omadi kelib, biror yoqqa borishga, hurmatli taqir boshlar klubiga prezident yoki kam deganda sekretar bo'lishga imkoniyat tug'ilib qoldi), biz siz bilan maydonga yana bir nazar tashlaylik.

Jelsomino jarangdor qo'shig'ini tugatib, peshonasidan terini artidi.

— Mana bu ishni ham tugatdik.

Lekin uning ko'ngli g'ash: "Cho'loq mushukdan xabar yo'q edi.

— U qayoqda qolib ketdiykin? — deb so'radi o'zidan bizning qahramonimiz.

— Jinnixonaning vayronalari tagida qolib ketmadimikin? Men hammasini ostin-ustun qilib yubordim-ku.

Lekin xayloyiq uning uzoq tashvish tortib turishiga yo'l qo'ymadi.

— Ustunni, — qichqirishardi unga har tomondan, — ustunni qulatish kerak!

— Nega?

— Axir unda qirol Jakomonning yurishlari, qahramonliklari tasvirlangan-ku. Bu ham boshdan oyoq yolg'on. Jakomon hech qachon saroydan burnini suqib tashqariga qaramagan ham edi.

— Yaxshi, — dedi Jelsomino, — men ustunga shunday ashula aytayki, omon qolmasin. Faqat hammangiz nariroqqa qochib turing, bo'lmasa ustingizga qulab tushadi.

Ustun oldida turgan kishilar nari turishdi, maydonda turgan xaloyiq shamolda chayqalayotgan dengizdek to'lg'andi. Xuddi shu paytda Jelsomino, ustunda, yerdan ikki metrcha balandda o'ziga yaxshi tanish bo'lgan uch oyoqli mushukning tasvirini ko'rdi.

— Cho'loq! — deb qichqirdi u va shu zahotiy oq ko'ngli tinchidi.

Rasm silkindi, atrofi qiyshaydi, lekin yana jimib qoldi.

— Cho'loq! — deb qichqirdi Jelsomino yana qattiqroq. Bu safar ovoz marmarning qarshiligini yengib, ichkariroqqa singidi.

Cho'loq mushuk ustundan ajralib, oqsab yerga sakradi.

— Juda xursandman, juda xursandman! — deb miyovladi u Jelsominoning yuzidan o'pib. Agar sen bo'lmasang mana shu ustunda qolib ketardim, oxiri bir kun yomg'irlar meni yuvib ketardi. Mening tozalikni yaxshi ko'rishimni hamma biladi, lekin hadeb cho'milaverib yuvilib ketishni sira istamasdim.

— Meni unutdingizmi? - Bananitoning ovozi eshitildi; u tirsagi va tizzasini ishga solib, oxiri o'zining, hammamizning ham do'stlarimiz yoniga yetib keldi. — Agar sening boshingga o'shanday kulfat tushsa, men sening rasmingni qaytadan chizaman, sen avvalgidan ham go'zal, rostakam mushukka tuzukroq o'xshab qolasan.

Hozirgina uchrashgan uchala do'stning aytadigan gapi ko'p edi, shuning uchun ularni bezovta qilmaymiz.

Ustunchi?

Ustun kimga ham xalaqit berardi? Unda tasvirlanganlar bir vaqtlar mamlakatni yolg'onchi, uyatsiz, qallob odam boshqarganini, bitta boplab aytilgan qo'shiq uning qirolligini vayron etganligini odamlarning esiga tushirib turadi.

YIGIRMA BIRINCHI BOB

*Qissamiz tugadi. Xulosa oddiy:
Masalani urush hal qilolmaydi.*

Yigirmanchi bobni yozib bitirishga oshiqib, cho'ntagimda bir necha varaq qog'ozni unutib qoldiribman. Agar siz unga yozilganlarning ma'nosi bilan tanishsangiz, shu bilan bizning bu qissamiz tugaydi. Bu Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida boshidan kechirganlarini menga hikoya qilib berganida yozib olgan xotiramning so'nggi varaqlari edi. Ana shu varaqlarning birida Jakomonning bundan keyin nima bo'lgani noma'lum, deb yozib qo'yilganini ko'rib turibman. Shuning uchun

ham u tuzuk odam bo'ldimi yoki qaroqchilikka o'rgangan ko'ngli yana qing'ir yo'lga boshladimi, bilolmayman.

Boshqa varaqda Jelsomino qilgan ishidan umuman xursand bo'lsa ham, har safar maydondan o'tayotganida, botinkasining ichiga tosh tushib qolgandek, o'ng'aysizlik sezishi yozilgan.

— Qirolning saroyini buzib, vayronaga aylantirish kerakmidi? - derdi o'zidan o'pkalab. - Men deraza oynalarini sindirib turaversam ham baribir Jakomon qochib ketardi. Keyin oynachini chaqirilsa, hammasi joyida bo'lardi.

Jelsominoni qiynayotgan ana shu "tosh"dan qutulishi uchun Bananito yordam berdi: u bir necha varaq qog'oz, bir quticha bo'yoq bilan saroyni tikladi-qo'ydi. U bu ishni yarim kunda bitkazdi, hatto yuqori qavatdagi boloxonani ham unutmadi. Boloxona ilgarigi joyida paydo bo'lganida, shahar aholisi uning ustiga chiqib nutq so'zlashni Bananitodan iltimos qildi.

— Mening maslahatinga quloq bering, - deb javob qildi Bananito, - yaxshisi shu boloxonadan turib nutq so'zlashni man etuvchi qonun chiqaringlar. Bundan tashqari, men rassomman. Agar juda nutq eshitgingiz kelayotgan bo'lsa, Jelsominodan iltimos qiling.

Shu paytda boloxonada Cho'loq mushuk paydo bo'lib miyovladi:

— Miyov!

Maydonda qarsak sadolari yangradi, bundan boshqa nutq so'zlashni hech kim talab qilmadi.

Mana, yana bir varaqda Jo'xori xolaning uysiz mushuklar institutiga direktor qilib tayinlangani yozilibdi. Buni to'g'ri qilishibdi - shunday odam direktor bo'lganidan keyin mushuklarni it bo'lib vovullashga hech kim majbur etolmasligiga ishonsangiz bo'ladi. Romoletta yana maktabga qatnay boshladi, endi u partada emas, o'qituvchining stolida o'tirgan bo'lsa kerak u salobatli o'qituvchi bo'lib qolganidir.

Mana, nihoyat kichkina varaqdagi qisqacha yozuvga ko'zim tushdi. Unda: "Urush 1:1 hisobi bilan tugadi", deyilgan.

Qarang-a, oz bo'lmasa men sizga urush to'g'risida gapirishni unutamayman.

Bu voqea Jakomon qochib ketganidan bir necha kun keyin bo'ldi. U Bananitoning zambaraklar rasmini chizib berishiga umid qilib, o'ziga tegishli kishilardan yashirincha qo'shni davlatlardan biriga urush e'lon qilgan edi. Lekin u davlatning odamlari bilan o'ynashib bo'lmasdi — ularning armiyasi vatanni himoya qilish uchun yo'lga chiqdi.

— Lekin biz urushni mutlaqo istamaymiz, — deyishdi yangi ministrilar. — Biz Jakomonga o'xshagan emasmiz.

Chinakam konsertga tayyorgarlik ko'rib, muzikada mashq qilayotgan Jelsomino bilan bir muxbir suhbatlashib, bu to'g'rida maqola yozmoqchi bo'ldi.

— Urush deysizmi? deb so'radi Jelsomino. Dushmanga darhol urushni to'xtatishni, uning o'rniga futbol o'ynashni taklif qiling. O'yin oqibatida ehtimol bittayarimtasining oyog'i lat yer, lekin harholda qon to'kilmaydi.

Bu fikr dushman tomonga ham yoqib qoldi, chunki ularning ham urushga toqati yo'q edi. Futbol o'yini yaqinda, dam olish kuni bo'lib o'tdi. Jelsomino, albatta, o'zining komandasiga yon bosardi. U o'yinga berilib ketib: "Bo'sh kelma! Bo'sh kelma!" — deb qichqirib yuborgan edi, koptok dushman darvozasiga otilib kirdi. Esingizda bo'lsa kerak, qadrdon qishlog'ida ham xuddi shunday voqea bo'lgan edi.

"Bu urushni shunday nohaq g'alaba bilan tugallash yaramaydi, — dedi Jelsomino o'z-o'zicha. - Buni futbol o'yini deyiladi, har qanday ko'z bo'yamachilik o'yin qoidasiga xilof'.

U shu zahotiyoq ikkinchi darvozaga ham to'p kiritdi. Agar uning o'rnida bo'lganingizda, ehtimol siz ham shunday qilardingiz.